

# O'SIMLIKLER KARANTINI ASOSLARI



QISHLOQ XO JALIGI VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

O'SIMLIKlar VA QISHLOQ XOMALIK MAHSULOTLARI KARANTINI  
KAFEDRASI

## 0'SIMLIKlar KARANTINI ASOSLARI

(DARSLIK)

5411500- “O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini” yo'nalishi talabalari uchun  
tavsiya etilgan.

**KBK 41.41 (0'zb)7 M 57**

**UO'K: 238.(12).100**

**I. R. Saidov, O. T. Usvaliev. 0'SIMLIKAR KARANTINI ASOSLARI,  
darslik- Toshkent.: "Fan ziyozi" nashriyoti, 2021. 216-bet.**

**ISBN 978-9943-708-96-9**

Ushbu darslikni maqsadi mutahassislarni Respublika sharoitida yetishtirilayotgan ekinlar hosildorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida ularda uchraydigan zararli organizmlarni fitosanitar nazoratdan utkazish bo'yicha bilimga ega bo'lishga va xorijdan kelgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini nazorat qilishning qonuniy yo'Harini o'rgatadi.

Fanni o'rganish bo'yicha darslik o'quv rejasi va dasturiga muvofiq "0'simliklar karantini asoslari" fanidan ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari, informatsion texnik ta'minot manbaalari asosida tayyoriangan.

Darslik 5411500 - 0'simliklar va qishloq xo'jalik mabsulotlari karantini yo'nalishi talabalari uchun muljallangan.

Avtorlar darslikdagi rasmlai-ni adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan manbalardan olinganligini ma'lum ularning mualliflarigaminatdorchilikbildiradi.

**Mualliflar:**

**Saidov Istam Rustamovich** q/x.f.f.d, dotsent.

**Usvaliev Oybek Tiirkiiyovich** assistent.

**Taqrizchilar:**

**Sulaymonov O.A.** O'simliklar kamtini ilmiy tadqiqot mai'kazi direktori q/x.f.f.d.

**Mahammadiev B.Q.** ToshDAU 0'simliklar himoya qilish kafedrasi datsenti b.f.n.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrdagi 676-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilg'chein.*

jb I.R.Saidov, O.T.Usvaliev.

© «Fan ziyozi» nashriyoti, 2021

ISBN 978-9943-708-96-9

543739

## **KIRISH**

Hozirgi taraqqiyotimiz davrida o'simliklar mahsulotlarini jumladan u rug\* va ekish materiallarini import va eksport qilish hajmi keskin ortib bormoqda.

Shuningdek kam o'rganilgan yoki o'rganilmagan no'malum organizmlami aniqlash, turizm va ilmiy aloqalarning kengayib borishi natijasida ham kirib kelish havfi ortib bormoqda.

Ulami o'z vaqtida aniqlash va mamlakatimiz xududiga kiritmaslik soha mutaxassislarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga karantindagi organizmlami tarqalib katta zarar keltirganligi to'g'risida jahon amaliyotidan ma'lum.

O'zbekiston Respublikasida o'simliklar karantini xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi olimlar va mutaxassislamning xizmatlari tufayli zararli organizmlar o'z vaqtida aniqlanib hududimizga kirishining oldi olinmoqda, jumladan kapr qo'ng'izi, o'rta er dengizi meva pashshasi, qator lurdagi tripslar, kuyalar, turli o'simliklaming bakteriyali, virusli va /.amburugii kasalliklari shular jumlasidandir.

Hozirgi taraqqiyotimiz davrida o'simliklar karantini davlat xizmatining roli sezilarli darajada oshib bormoqda.

Bu esa ulami o'qitish sifatini oshirib, malakali mutaxassislar layyorlashni taqozo etamoqda.

Xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, savdo, sayyoxlik mimo-sabatlarining kengayishi bir davlat xududida uchraydigan o'simliklarda kasallik ko'zg'atuvchi mikroorganizmlaming boshqa xududlarga tarqalib, o'z arealini kengayishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonlardagi taitibsizlikka barham berish uchun davlatlararo nazorat maskanlarini tashkil kilish, mamlakat ichkarisidagi ekinzorlarni muntazam nazorat qilish asosida ekinzorlardagi fltosanitar xolatni baholab turish ham taqozo etiladi.

Karantin ob'ektlariga mamlakat hududida uchramaydigan yoki juda kam tarqalgan turlari mamlakat ichkarisiga transport vositalari, qishloq ho'jalik homashyolari, insonlar orqali kirib kelishi mumkin.

Bu esa mahsulotlarni zararlanishiga o'simliklarni kasallanishiga sabab bo'ladi zararli hasharot, havfli o'simlik kasalliklari va begona o'tlar kirib kelisb imkoniyalar ochiladi.

Bunday zararli organizmlarni ekinzorlarda tarqalishini o'z vaqtida aniqlash, ularni yangi hududlarga tarqalishini chegaralasb va zararlangan joyiarini himoyalab, yo'q qilib tasplash, mamlakatning boshqa hududlariga bunday organizmlar uchramaydigan hududlariga tarqalishini oldini olish muhim axamiyatga ega.

Bu o'quv qo'llanmaning maqsadi mutaxassislarni Respublika sharoitida etishtirilayoggan ekinlar hosildorligini oshirish va maxsulot sifatini yaxshiash maqsadida ularda uchraydigan kasalliklami fitosanitar nazoratdan utkazish bo'yicha bilirnga ega bo'lishga va xorijdan kelgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini nazorat qilishning qonuniy yo'llarini o'rgatadi.

#### **0°simliklar karaniinining umumiyligi asoslari fani tarixi**

0°simliklar karantini fanining rivojlanish tarixi XVIJI asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar Rossiyada A.T. Bolotov, Fransiyada A. Tillet, Italiyada F. Fontana, Daniyada Ya. Fabritsius ta'limotlarida bayon qilingati. Bu to'g'rida dastiabki ma'lumotlarni XIX asrning ikkinchi yarmida nemis olimi A. de Bariy, Rus olimi M.S. Voroninlar bergan. Rossiyada XIX asrning 70-80 yiltarida dastiabki entomologiya komissiyasi va Byurosi, karantin stansiyalari tuzilgan.

Karantin kasalliklarini o'rganishda XX asr boshlarida ms olimlaridan A. A. Yachevskiy, D.I. Ivanovskiy, I.L. Serbinov, G.K. Burgvits, Amerika olimlaridan E. Smit, U. Stenli kabilar munosib hissa qo'shgan.

Birinchi karantin tadbirdi Fransiyada joriy qilingan. Bunga sabab 1858-1862 yillarda AQSHdan Fransiyaga keltirilgan uzum ko'chatlarida uchraydigan filloksera xasharoti sabab bo'lgan. Keyinchalik Fransiyaga oidium, soxta un shudring kasalligi tarqala boshlagan. Shu maqsadda qishloq xo'jaligida 56 ta departament tashkil qilinib, ular tok kasalliklariga qarshi kurash ishlarini boshlashgan.

Chet eidan tok qalamchalarini olib kelishini man etilishi bo'yicha "0°simliklar karantini" to'g'risidagi birinchi qaror 1873 yil 6 aprelda

Kos.siyada qabul qilingan edi. Shundan keyin 1881, 1910 va 1912 yillarda uslibu qaror mukammalashtirilgan.

1875 yilda Kolorado qo‘ng‘izini tarqalib ketishini oldini olish nuiqsadida Amerikadan kartoshkani olib kelinishini tartibga solish 10 ‘g‘ridagi qaror chiqdi.

1877 yilda Shveysariyada boiib o‘tgan yig‘ilishda Evropa mamlakatlarida tokning folleksera tufayli nobud bo‘lishining oldini olish inasalasi xalqaro darajaga ko‘tarildi.

Birinchi xalqaro konvensiyani 1878 yil 1 sentyabrda Bern shaxrida (iermaniya, Avstro-Vengriya, Shveysariya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya kcyinchalik Italiya, Ispaniya, birinchi jaxon urishidan keyin Vengriya, (hexoslovakiya va Yugoslaviya davlatlari imzolagan.

1905 yil 7 iyunda Xalqaro konvensiyada Rimda Xalqaro qishloq xo‘jalik institutini ochish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Bu institut dustlab turli mamlakatlarda turli kasallik, xashoratlar va begona o‘tlardan ximoya qilishga o‘rgatish qonunlarini yaratishgan.

1912 yilda AQSH da karantin hududini tashkil qilish boshlangan. Amerikada shu yili qabul qilingan “0“simliklar karantini” to‘g‘risidagi qonun hozirgacha o‘z kuchini saqlab kelmoqda.

Karantin soxasidagi tadbirlar bir mamlakat misolida tashkil qilinishi xch qanday samara bermasligi aniq bo4di.

Konvensianing talablariga asosan, tokning fillokserasi tarqalgan davlatlar jaxon bozorida tok ko‘chatlari sotish xuquqidan maxrum qilingan.

1913-1914 yillarda Misr Arab Respublikasidan Rossiyaga keltirilgan paxta tolasida paxta kuyasi borligi aniqlangan. Shundan boshlab tashqaridan keladigan yuklarni karantin nazoratidan o‘tkazish tadbirlari ishlab chiqilgan.

1914 yilda Fransiyada 30 mamlakat ishtirokida sertifikatlar bilan almashinish va zararli organizmlarga qarshi kurash choral ari belgilab olingan.

1929 yili Rimda 24 ta davlat ishtirokida boiib o‘tgan xalqaro konferensiyada Rim konvensiyasi qabul qilingan. Bunga asosan shu davlatlarda o‘simliklar ximoyasi va karantini bo‘yicha ilmiy tadqiqot

institutlari tashkil qilinishi, zararli organizmlami tarqatmaslik uchun qonunlar ishlab chiqish, mamlakatda aniqlangan karantin obektlarining ro'yxatini e'lon qilish, o'simliklarni bir mamlakatdan ikkinchisiga olib borishni qat'iy nazorat qilish kabi tadbirlar vazifa qilib yuklatilgan.

MDHda 1931 yil 5 iyunda narkomzem tarkibida birinchi karantin xizmati tashkil qilingan. Shu yili qishloq xo'jalik o'simliklarini olib kelish va olib chiqish to'g'risidagi tartib ishlab chiqildi.

1951 yilda Rim konvensiyasi matni FAO ning yig'ilisbida Xalqaro osimliklami ximoya qilish konvensiyasini 50 mamlakat ishtirokida tasdiqlaydi. Bunda yagona xalqaro fitosanitar guvoxnomasini berish, fitosanitar nazorat o'tkazish talablari va nazorat qilinadigan ob'ektlar miqdori aniqlandi.

1951 yil 18 aprelda Evropa 0'rtta er dengizi xovzasasi (EOZR) bo'yicha o'simliklami ximoya qilish Konvensiyasi qabul qilinadi.

1956 yilga kelib Janubiy Sharqiy Osiyo va Tinch okeani xovzasida o'simliklarni ximoya qilish komissiyasi tuziladi.

Karantin xizmatining 1961 yil 21 iyulda birinchi, 1980 yil 28 mayda ikkinchi Qarori qabul qilingan. 1967 yil 10 avgustda O'simliklarni tashqi karantin qoidalarida 70 ta ob'ekt karantin ob'ekti sifatida ko'rsatilgan. O'simliklar karantin xizmati Nizomida uning maqsadi va vazifalari, mansabdar shaxslarning burch va majburiyatlari ko'rsatilgan. SHu davrdan boshlab dengiz, daryo portlari aeroport, temir yoM va nazorat punktlarida karantin nazorati amalga oshirildi.

1962 yil 21 iyulda davlat karantin xizmatini nizomi qabul qilindi.

1980 yilida ushbu Nizomga o'zgartirishlar kiritildi. Bu nizomda karantin nazoratidagi organizmlami ro'yxati e'lon qilindi.

Fitosanitariya tadbirlari qatoriga patogen organizmni saqlovchi o'simlik qoldiqlarini yo'q qilish, g'alla ekinlari naholini yoqish, begona o'tlarni yo'q qilish, tuproqdag'i patogen organizmlarga qarshi kimyoviy va fizik ishlov berish, kasallik tarqalishiga sabab bo'luvchi mehnat qurollari va mashina qismlarini dizengefksiya qilish kabilalar kiradi. Kasalliklaming tarqalishida suv xavzalari va daryo, ariq oqimi, qushlar, xayvonlatning asosiy roli o'rganiladi.

Davlat karantin inspeksiyasi 1979 yildan boshlab Qishloq xo'jaligi

Vn/Jrligi qoshidagi O'simliklami ximoya qilish bosh boshqarmasiga, 1995 I liInn Q'zR VM qoshidagi Respublika o'simliklar karantini bosh davlat liifipoksiyasiga aylantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini Bosh Davlat iiinpcksiyasi qoshida 1934 yilda markaziy karantin laboratoriyasi tashkil l'ilgim.

Karantin inspeksiyasi respublika xududiga xorijiy davlatlardan xavfli lunantin obektlarini kirib kelishini olini olish tadbirlarini belgilash bilan iliug'illanadi. Buning uchun mamlakat ichkarisidagi va xorijdan keltirilgan lovarlarning fitopatologik, entomologik, bakteriologik va gerbologik U'kshirishlarnini amalga oshiradi.

Xorijdan keltirilayotgan turli yuklaming, o'simlik namunalari, nnig'larini karantin nazorati introduksion karantin pitomniklarda amalga oshiradi.

Q'zR O'simlikshunoslik instituti karantin pitomnigida boshoqli ckinlar, Akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik, sabzavot, uzumchilik va vinochilik korporatsiyasi karantin pitomnigida mevali o'simliklar, G'o'za seleksiyasi va urug'chiligi instituti pitomnigida g'o'za navlari, O'zR FA "Botanika" IIChMning Botanika bog'i karatin pitomnigida manzarali gul va butalar, daraxt o'simliklari urug'larining namunalari o'rganiladi.

Respublikada karantin tadbirlari o'tkaziladigan hasharotlar, kasalliklar va begona o'tlaming dastibaki ro'yxati 2002 yilda e'lon qilingan bo'lib, 30 ta ob'ekt, jumladan 9 tasi Evropa, 0'rta er dengizi o'simliklami ximoya qilish tashkiloti tavsiyasi asosida karantin ob'ekti ro'yxatga olingan.

O'zbekiston davlati uchun karantin ahamiyatiga ega bo'lган zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlaming 2006 yildagi ro'yxatida respublika xududida uchramaydigan karantin zararkunandalar 58 ta, o'simlik kasalliklari 17 ta, nematodalar 4 ta, bakterial kasalliklar 9 ta, virus kasalliklari 11 ta, begona o'tlar 33 ta deb ko'rsatilgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatkich zararkunandalarda 60 ta, o'simlik kasalliklari 16 ta, nematodalar 4 ta, bakterial kasalliklar 9 ta, virus kasalliklari 11 ta, begona o'tlar 36 ta ni tashkil qilganligi (2008 ) karantin ob'ektlar soni muntazam

o‘zgarib turishini ko‘rsatadi.

1 .Respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelib, xaiq xcfjaligiga katta iqtisodiy zarar etkazishi mumkin boigan karantindagi xavfli zararkunandalardan, o‘simlik kasalliklari va begona o‘tlardan muhofaza etish.

2. Karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalarni o‘simlik kasalliklari va begona o‘tlarni vaqtida aniqlash, ulaming yoyilishiga yo‘l qo‘ynaslik va ularni yo‘q qilish, shuningdek respublikaning bu zararkunandalar, kasallik va begona o‘tlardan holi mintaqalariga ular kirib borishim oldini olish.

3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va boshqa o‘simlik mahsulotlarini etishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash va uiardan foydalanishda o‘simliklar karantiniga oid qoidalar rioxasi etilishi hamda ulaming amalga oshiri ustidan davlat nazoratini olib borish.

## **1- BOB. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Qishloq xo'jaligi ekinlari karantini fanining vazifasi zararli "ii"!UH/,mlarning mamlakat ichkarisida tarqalishiga yoki tashqaridan kirib l.i'lmhiga yo'l qo'ymaslik, bu organizmlar ekinzorlarda paydo bo'lganda 1111 > |i11isli vaqtini nazarda tutib, uni chegaralash tadbirlarini ishlab chiqishga Mvuiyalar berishdan iborat.

Bufan mamlakatimiz hududida namoyon bo'ladigan, rivojlanadigan, Inic|iladigan karantin hasharotlarning paydo bo'lishi muddatlari va mii|dori to'g'risida ma'lumot berib, saqlab qolish uchun zudlik bilan o'tkaziladigan tadbirlami belgilash yo'llarini ko'rsatib beradi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari karantini fanining vazifasi karantin xizmati vnkillari va ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari bilan birga ekin dalalarida Iill4|alishi mumkin bo'ladigan, zararli hasharotlarning kelib qolishi xavfini, rivojlanishini va tarqalishini oldindan nazorat qilish malakasini hosil qilishdir.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini zararkunandalardan, kasalliklardan va bogona o'tlardan himoya qilish ko'p jihatdan malakali kadrlar layyorlashga bog'liqdir.

O'simliklar karantinining asosiy vazifalari o'simliklaming tashqi va ichki karantini bo'yicha davlat tadbirlari tizimini amalga oshirishdan iborat bo'lib, bu tadbirlar quyidagilarga qaratiladi:

(O'simiiklami zararakunandalardan. o'simlik kasalliklardan va begona o'tlardan samarali himoya qilish ishlarini to'g'ri tashkillashtirish uchun lalabalar o'simliklarni himoya qilish fanlarini chuqur o'zlashtirishlari lozim. O'simliklami himoya qilishda karantin usuli katta ahamiyatga egadir. Chunki bu usul asosan xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari, begona o'tlar iqlimiylar va boshqa sharoitda zarar keltiradigan darajada ko'payishi mumkin bo'lgan joylarga kelib qolishni oldini olish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun joylarda karantin mspeksiyalari.sohaning boshqa sub'ektlari tashkil qilingan. Hozirgi vaqtida 14 ta viloyat karantin inspeksiysi, 167 ta o'simliklar karantini bo'yicha tuman o'simliklar karantini inspeksiysi, 31 ta chegara karantin maskan, 14 ta fiimigatsion otryad, 6 ta karantin pitomnigi, 1 ta karantin laboratoriysi, 1 ta botanika bog'i, 2 ta oranjereya va 26 ta Davlat nav

sinash uchastkasi respublikamizdagi fitosanitar holatni nazorat qilish bo'yicha ish olib bormoqda. Ular tarkibida tajriba va seleksiya stansiyalari, nav sinash maydonchalari tashkil qilingan.O'simliklar karantini ma'lum hududda uchramaydigan, chet eldan kelib qolishi mumkin bo'lgan zararkunandalardan himoya qilishga, o'tgan taqdirda esa darrov xavf oldini olish va yo'q qilishga qaratilgan davlat ahamiyatiga ega bo'Mgan tadbir va choralar sistemasidir. Karantin chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huziiridagi respublika O'simliklarni himoya qilish va O'simliklar karantini Bosh Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bu fan respublikaning turli mintaqalarida tashkil qilingan xo'jalik va chegara maskanlarida ishlaydigan mutaxassislami ekinlarda uchraydigan zararli organizmlar turlari, tarkibi va miqdorini aniqiash bo'yicha mavjud xuquqiy hujjatlar, qonunlar bilan ta'minlaydi. Har bir mintaqada mavjud va kirib kelishi mumkin boigan hasharotlarning rivojlanishi va tarqalishida ulaming biologik xususiyatlari ahamiyati haqida axborot bilan tanishtiradi. O'tkazilgan nazorat yuzasidan ma'lumotlar tayyorlanadi va yuqori tashkilotlarga taqdim etiladi, shuningdek, tarqalishi xavf tug'diradigan va kirib kelishi mumkin boigan turlar ro'yxati bilan tanishtiriladi.

O'simliklar karantini meteorologiya, iqlimshunoslik, kimyo, fizika, gigiena va toksikologiya fanlari bilan uzviy bogiiq. Karantin so'zi ital. Quarantagiorni - qirq kun, ma'nosini ifodalaydi, karantinlash esa infektion kasalliklaming epidemik o'choqdan boshqa hududlarga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va shu o'choqni tugatish, kimyoviy va biologik kurash ishlatalganda epidemianing oldini olish va bartaraf qilish uchun ko'rildigan chora-tadbirlardir. Qirq kunlik karantin birinchi marta 1374 yilda Italiyada sharq mamlakatlaridan dengiz qirg'og'iga kelgan kemalarni 40 kun davomida ayrim joylarda vabo kasailigidan saqlash uchun to'xtatib qo'yilgan. Aholining karantinlangan zonadan chiqishi yoki kirishini ta'qiqlash, karantinlangan kishilarni yoki jamoalarni tevarak-atrofdagi aholidan to'la yoki qisman ajratib qo'yish, nazoratga olingen jamoalarda bemorlarni, batsilia tashuvchilarni va bemorga yaqin yurgan barcha kishilarni aniqiash hamda himoyalash

I ,IIH choralar (sanitariya ishlov berish, laboratoriyyada tekshirish, liimunlash, dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya) kiradi. Aholi n'llasida xavfli infektion kasalliklar, masalan, toun, vabo, chin dmdiak tarqalish xavfi tug'ilganda ayrim kishilar, oilaiar, jamoalar (kvartiralar, hovli, uy, yotoqxona, harbiy qism, kema, eshelon va hoshqalar), hatto mahallaJar, qishloqlar va tiimanlar karantinga olinishi miimkin. Qaysi kasallikka qarshi karantin belgilansa, o'sha kasallikning inkubatsion davriga teng muddatda karantinni saqlash vaqtি belgilanadi. Karantinga olinadigan kishilar (jamoalar) qaysi bino, muassasada turgan bo'lsa, o'sha bino, muassasa ham ko'pincha karantmda deb e'lon qilinadi.

Uy hayvonlari o'rtasida kasalliklar tarqalganda (epizootiya) ular ham karantinga olinadi. Xalqaro miqyosdagи karantin tadbirlariga amal qilish va talablarni bajarish bo'yicha masalalar Xalqaro Parij I<onvensiyasida (1851) ko'rsatilgan.

Sobiq ittifoqda 1931 yil 5 iyunda birinchi karantin xizmati tashkil ijilingan. Karantin xizmatining 1961 yil 21 iyulda birinchi, 1980 yil 28 mayda ikkinchi qarori qabul qilingan. 1967 yil 10 avgustda O'simliklarning tashqi karantin qoidalarida 70 ta ob'ektni karantin ob'ekti sifatida ko'rsatilgan. O'simliklar karantin xizmati Nizomida lining maqsadi va vazifalari, mansabdor shaxslarning burch. va majburiyatlar ko'rsatilgan.

SHu davrdan boshlab dengiz, daryo portlari, aeroport, temir yo'l va imzorat punktlarida karantin nazorati amalga oshirildi. 1913-1914 yillarda Misr Arab Respublikasidan Rossiyaga keltirilgan paxta tolasida paxta kuyasi borligi aniqlangan. Shundan boshlab tashqaridan keladigan yuklarni karantin nazoratidan o'tkazish tadbirlari ishlab chiqilgan.

Davlat karantin inspeksiyasi 1979 yildan boshlab Qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi O'simliklarni himoya qilish bosh boshqarmasiga, 1995yildan Q'zbeldston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi respublika O'simliklar Bosh davlat karantin i nspeksiyasiga aylantirilgan.

Respublikada karantin tadbirlari o'tkaziladigan hasharotlar, kasalliklar va begona o'tlar dastibki ro'yxati 2002 yilda e'lon qilingan bo'lib, 30 ta ob'ektni, jumladan, 9 tasi Evropa, 0'rtalari er dengizi

o'simliklarni himoya qilish tashkiloti tavsiyasi asosida karantin ob'ekti hisobida ro'yxatga olingan. O'zbekiston davlati uchun karantin ahamiyatiga ega boigan o'simiik, zararkunandalar, kasalliklar va ashaddiy begona o'tlarning 2006 yildagiro'yxatida respublika hududida uchramaydigan karantin zararkunandalar 58 ta,o'simiik kasalliklari 17 ta, nematodalar 4 ta, bakterial kasalliklar 9 ta,virus kasalliklari 11 ta, begona o'tlar 33 ta deb ko'rsatilgan bois, 2008 yilda bu koisatkich zararkunandalarda 60 ta, o'simlik kasalliklari 16 ta,nematodalar 4 ta, bakterial kasalliklar 9 ta, virus kasalliklari 11 ta, begona o'tlar 36 ta ni tashkil qilganligi (2008 ) karantin ob'ektlar soni muntazam o'zgarib turishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini Bosh davlat inspeksiyasi qoshidagi Karantin Iaboratoriyasi respublikada mavjud turdosh tashkilotlarga tashkiliy, uslubiy va ilmiy yojinalishlarni amalga oshirishda rahbarlik qilib kelmoqda. Uning faoliyatining boshlanishi 1934 yildan karantin inspeksiyasi tashkil qilingan davrga to'g'ri keladi.

Inspeksiyaning dastlabki davrdagi faoliyatida zararli hasharotlarga (olma mevaxo'ri,komstok qurti) qarslii biologik kurash choralarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Karantin inspeksiyasi respublika hududiga xorijiy davlatlardan xavfli karantin ob'ektlari kirib kelishining olini olish tadbirlarini belgilash bilan shug'ullanadi. Buning uchun mamlakat ichkarisidagi va xorijdan keltirilgan tovarlarning fitopatologik, entomologik, bakteriologik va gerbologik tekshiruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazining Botanika bogida 1941 ta turli manzarali va daraxt o'simliklari urugiarining namunalari o'rganilsa, G'allaorol karantin pitomnigida IKARDA Xalqaro tashkilotidan keltirilgan bug'doy, sholi, afa va boshqa g'alla ekinlarining 2129 ta namunasi sinovdan o'tkazilmogda.

Respublika karantin Iaboratoriyasi tadqiqotlari asosida Respublika uchun karantin hisoblangan 8 ta hasharot va 3 ta begona o't aniqlangan. Respublika hududidagi ekinzorlarda karantin begona o'tlardan

/arpechak, ermon, shuvoq bargli ambroziya. sudraluvchi kakra, hasharotlardan g‘o‘za kuyasi va antraknoz kasalligi tarqalishining oldini olish maqsadida muntazam nazorat ishlari olib borilmoqda.

Respublika karantin inspeksiyasi laboratoriysi xodimlarining asosiy laoliyati o‘simliklar karantini bo‘yicha to‘plangan tajribalarni umumlashtirib, karantin ob’ektlari turlar tarkibi, ekologiyasi, biologiyasini o‘rganish asosida karantin ob’ektlami tekshirish va karantin ckspertizasini, ob’ektlami zararsizlanirish usullarini takomillashtirishdan iborat.

#### **1.1. 0‘simliklar karantini tizimining tashkiliy tuzilishi**

Xorijiy davlatlardan mamlakat ichkarisiga zararli hasharot, xavfli kasallik va begona o‘tlar urug‘ining kirib kelmasligini 0‘simliklar karantini Nizomiga asosan Respublika Vazirlar Mahkamasi liuzuridagi respublika 0‘simliklar karantini Bosh davlat inspeksiyasi nmalga oshiradi. Bu tashkilot o‘simliklar karantini bo‘yicha tashkiliy va lejali nazorat ishlarining mazmunini belgilaydi va bajarilishini nazorat ijiladi.

Davlat chegaralaridagi o‘simliklar karantin inspeksiyasi (karantin laboratoriysi va fumigatsiya otiyadi bilan) qo‘shni davlat chegaralarida va viloyatlar orasida faoliyat ko‘rsatadi. SHahar va lumanlararo karantin inspeksiyasi belgilangan hududdagi nazorat ishlarini iimalga oshiradi. Tuman karantin inspeksiyasi daiyo, dengiz portlarida, lemir yo‘llarda, aeroportlarda, bosh pochtalar va davlatlararo yo‘mlarda tashkil qilinadi.

Respublika Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qoshida O’simiikkarni himoya qilish instituti va 0‘simliklar karantini Bosh davlat inspeksiyasi qoshida karantin laboratoriysi faoliyat ko‘rsatadi.

Iaboratoriya xodimlari karantin inspeksiyasi xodimlariga, pitomniklaming nav sinash uchastkalarini xodimlariga uslubiy yordam tashkil qiladi. Zarur hollarda karantin ob’ektlarning fitosanitai’nazoratini nmalga oshiradi, xodimlar malakasini oshirish va o‘qitish ishlarini tashkil (jiladi).

G‘simiik mahsulotlarini zararli hasharot va kasallikkardan tozalash uchun 1962 yildan boshlab fumigatsion otryadlar tashkil qilingan.

1981 yilgacha 24 mln. t karantin yuklar, 2 mldr dona ko‘chatlar fumigatsiya etilgan. Birgina 1980 yilda 1,5 mln tonna har xil mahsulotlarga ishlov berilgan.

## **2- BOB. ICHKI VA TASHQI KARANTIN TADBIRLARI**

Tashqi karantining asosiy vazifasi mamlakat hududiga karantin ob’ektlari kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Tashqi karantin respublikamiz hududiga boshqa davlatlardan kirib kelayotgan mahsulotlami respublika karantin inspeksiyasi tomonidan maxsus sertifikatlari mavjud bo‘lgan taqdirda kiriti- lishiga ruxsat etiladi. Sertifikat mahsulotni olib kelayotgan transport vositasi hujjatlari qatorida eksport qilayotgan davlat tamonidan berilib, maxsus ruxsat etilgan yo‘nalish bo‘yicha olib kiriladi.

Respublika hududiga karantin ob’ektlarini kiritish davlatlararo tuzilgan o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha konvensiya - bitim asosida amalga oshiriladi.

Respublikada uchramaydigan va mavjud o‘simliklaming, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurash, tarqalishini oldini olish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish o‘simliklar karantini inspeksiyasining vazifasiga kiradi. Davlatlar orasidagi qishloq ho‘jalik mahsulotlari bilan tovar ayri boshlash yangi tur hasharotlaming kelib chiqishiga va tarqalishiga olib kelmasligi uchun qat’iy karantin nazoratini o‘matish lozim. Urug‘lik va ko‘chatlik materiallarning hasharotlar bilan zararlanganligini aniqlash maqsadida ular introduksion karantin pitomniklarda bir yil davomida nazoratdan o‘tkaziladi.

Tashqi karantin yoki xalqaro karantining maqsadi respublikamiz hududiga bizda uchramaydigan zararkunandalarni kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Namunalarda hasharot, aniqlangan taqdirda uni zararlantirish mumkin bo‘limgan taqdirda 3-5 kunda eksport qiluvchi mamlakatga qaytariladi yoki yo‘q qilib tashlanadi.

Ichki karantin vazifasi mamlakat ichidagi kichik arealda uchraydigan zararkunanda basharotlarni boshqa hududlarga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Buning uchun zararkunanda hasharotning mayjud o‘chоqlarini muntazam o‘rganib turish, ularga qarshi kurashni tashkil (jilish tadbirlarini ishlab chiqish lozimdir. Ichki karantin bo‘Vicha dastlabki tashkiliy ishlar 1931 yildanboshlangan.

Ichki karantin tadbirlari respublika karantin inspeksiyasi Nizomi asosida nazorat qilinadi. Buning uchun respublika karantin inspeksiysi va uning joylardagi nazorat punktlari ekinzoiarda, bogiarda va o‘tloqzorlarda muntazam kuzatish ishlari olib boradi. Bu joylarda aniqlangan zararkunanda hasharotlar tarqalishining oldini oluvchi kurash choralarini belgilab beradi.

Biror bir hasharotlaming mayjudligi to‘g‘risida ma’lumot aniqlangan tnqdirda bu joylarda vaqtinchalik karantin mintaqasi deb belgilanadi va bu paydo boiish manbaini bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqadi. Ikmday joylardan mahsulotlarni olib chiqish uchun faqat maxsus sertifikat berilgan taqdirda mxsat etiladi.

Karantin ob’ektlarning tarqalishining oldini olish maqsadida karantin ob’ektlar bilan ishlaydigan ilmiy-tadqiqot institut-lariga respublika karantin boshqarmasi tomonidan maxsus nizom asosida tadqiqotlar olib borishga ruxsat etiladi.

Karantin ob’ektlari bilan ishlash uchun Bosh karantin inspeksiyasining ruxsatnomasi beriladi. Tadqiqot mavzulari Bosh karantin Iaboratoriysi bilan kelishib tasdiqlanadi. Buning uchun tadqiqot o’tkazish joyi aniqlanadi, talablari ishlab chiqiladi va tadqiqot o‘lkazuvchiarning mas’ul kishilarini ajratilgandan keyin bu joyga boshqa kishilaming kirishi ta’qiqlanadi. Karantin talablariningbajarilishini viloyat karantin inspeksiysi nazorat qiladi.

Karantin ob’ektlarini Bosh karantin Iaboratoriysi mxsatisiz boshqa lashkilotlarga hasharotlar kolleksiyasini berish ta’qiqlanadi. Berilgan hollarda tashkilot rahbari va ijrochilar ishtirokida dalalotnomaga tuzilib, hisob qilish maqsadida maxsus jumal yuritiladi. Xalat, maxsus kiyimlar, ish qurollari, idishlar faqat tadqiqot davomida foydalanihib, ish lugagandan keyin maxsus vositalar yordamida zararsizlantiriladi.

Foydalanilgan ozuqa muhitlari, o'simlik, emlamning qoldiqlari sterelizatsiya qilinadi va viloyat inspeksiya boshlig'i ishtirokida yo'q qilinadi.

Mamlakat ichkarisiga o'simlik va o'simlik mahsulotlarini olib kirish uchun tovarni eksport qiluvchi davlat tomonidan berilgan xorijiy karantin ruxsatnomasi bo'lgaa taqdirdagina ruxsat etilib, bu materiallarni foydalanish tartibi belgilanadi.

Mamlakat ichkarisiga karantin materiallarda zararkunanda hasharotlar namunalarining kirib kelishiga imkon berilmaydi.

Xorijiy davlatlardan respublikamiz fuqarolariga pochta orqali o'simlik urug'lari, ko'chatlar, mevalar, sabzavotlar yuborilishi mumkin emas.

Mamlakat hududidan olib o'tiladigan tranzit tovarlar respublika karantin inspeksiyasi tamonidan nazorat qilingandan keyin ruxsat etiladi. Mamlakatimiz chegara hududidagi karantin punktlari ham mazkur inspeksiya tomonidan aniqlanadi. Bu punktlardan o'tadigan avtotransportlar: yuk mashinalari, engil avtomobil va avtobuslar nazoratdan o'tkaziladi. Xalqaro pochtalarda karantin inspektorlari tomonidan nazorat amalga oshiriladi.

Mamlakatga keltirilgan tovarlarda karantin ob'ektlari aniqlangan taqdirda tezda kimyoviy va rentgen nurlari bilan ishlov berish yoki fumigatsiya qilish usulidan foydalanib zararsizlantiriladi. Ayrim ob'ektlarda yashirin belgilari saqlagan urugiar va ko'chatlar introduksion karantin uchastkalarida yoki karantin oranjeriyalarida bir yil muddatda kuzatilgandan keyin tarqatishga ruxsat etiladi.

Respublika hududida uchramaydigan karantin ob'ektlari bilan olib boriladigan tadqiqotlar xam respublika Bosh karantin inspeksiysi va markaziy karantin laboratoriysi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O'simliklarni zararlaydigan hasharotlarning namunalarini mamlakatga kiritilishi qat'iy ta'qilanganadi.

Mamlakatga kirib kelayotgan barcha o'simlik namunalari va urug'lilik materiallar karantin postlarida zararkunandalar bilan zararlanmaganligi qat'iy nazoratdan o'tkaziladi. Bu materiallarning zararlanganlik darajasini aniqlash uchun introduksion karantin

pilomniklar tashkil qilingan bo‘lib, ular ekin maydonidan ajratilgan miyydonlarda kuzatishlar olib boradi. Introduksion karantin pitomniklar o‘z

i. ‘ih larini maxsus karantin sharoitida olib borib, zararkunandalarg Inrqalishining oldini oladigan tadbirlarni o‘tkazadi.

Respublikamizda 3 ta shunday pitomniklar mavjud bo‘lib, paxta lui'yicha Paxta seleksiyasi va urug‘chiligi institutida, don dukkakli ekinlar bo‘yicha o‘simlikshunoslik institutida, rezavor va mevali o’simliklar bo‘yicha Shreder nomidagi mevachilik, uzumchilik va l< artoshkacliilic ilmiy-tadqiqot insti tutida pitomniklar tashkil qilingan.

Bu maydonlarda 1 va 3 yil davomida namunalarning kasallik (lo‘/g‘atuvchilardan tozaligi aniqlangach, etishtirilgan o‘simliklar-dan nlingan birinchi reproduksiya urug‘lar ilmiy-tadqiqot institutlariga kclgusida kuzatish va o‘rganish uchun tarqatiladi. Urug‘lik materiallaming shunday tartibda mamlakat ichkarisiga olib kirilishi xavfli kasallik va begona oilar tarqalishining oldini oladigan tadbirlarni o‘tkazadi.

Karantin materiallarini mamlakat ichkarisiga olib kirish respublika O’simliklar karantini Bosh davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan maxsus sertifikat asosida amalga oshiriladi. Karantin sertifikatida xorijdan keltirilgan mahsulotlarni olib kirish karantin qoidalari asosida holishi ko‘rsatilgan. Respublikamiz chegarasida joylashgan karantin maskanlarida karantin materiallar birlamchi karantin nazoratidan o‘tkaziladi. Mamlakatga olib Idrilayotgan materiallar karantin ob’ektlar bilan zararlanganligi aniqiangan taqdirda mazkur materiallar partiyasi olib keltingan mamlakatga qaytariladi, yo‘q qilinadi yoki /iirarsizlantiriladi.

Termiz chegara rnaskanida xorijdan keltirilayogan materiallarni liimigatsiya qiladigan vakuum stansiya mavjud bo‘lib, keltirilayotgan materiallarga shu joyda ishlov beriladi.

Mamlakatga keltirilayotgan materiallarni qabul qilib olish rnaskanida o‘tkaziladigan ikkilamchi karantin tekshimvi ham asosiy ro! o‘ynaydi. Uarcha karantin qoidalari asosida tekshirishdan o‘tkazilgan materiallardan yukni qabul qilib oluvchiga undan foydalanish xuquqi

### **Nazorat uchun savoilar**

1. 0'simliklar karantinidagi sohasidagi asosiy tushunchalar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. 0'simliklar karantini deganda nimani tushunasiz?
3. 0'simliklar karantinining asosiy vazifalari nimadan iborat?
4. Respublika hududiga chet mamlakatlardan kirib kelib qolishi deganda nimani tushunasiz?

### **3- BOB. O ZBEKİSTONDA CHEGARALANGAN HOLDA TARQALGAN KARANTIN ORGANIZMLAR BILAN TANISHUV.**

Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish miqdorini orttirish uchun barcha iqtisodiy, agrotexnik va ma'naviy tadbirlami tez suratlar bilan amalga oshirmoqda. Bu vazifalarning muvafaqqiyatlari hal qilinishida o'simliklarning hosil sifati va miqdorini kamaytiruvchi kasallik, xasharot va begona o'tlardan ximoya qilish muxim ahamiyatga ega. 0'simliklarni samarali ximoya qilishda ekinzorlarda uchraydigan zararli organizmlarning paydo bo'lishi va tarqalishini muntazzam nazorat qilib borish, ularga qarshi agrotexnik, tashkiliy kurashning eng arzon va samarali usullarini qoilib, xo'jaliklarga iqtisodiy zarar etkazmasdan olini olish imkonini vujudga keladi.

Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi va maxsulotlami davlatlar orasida ayriboshlash ularda uchraydigan kasallik, xasharot va begona o'tlarning urugiarini xam bir davlat xududidan boshqalariga tarqalishiga, yangi xududlarda yangi turlarining paydo bo'lishiga sabab boimoqda. Bu jarayonlardagi tartibsizlikka barxam berish uchun davlatlar aro bojxona postlarida nazoratni kuchaytirish, mamlakat ichkarisidagi ekinzorlarni muntazam nazorat qilish asosida ekinzorlardagi fitosanitar xolatni baholab turishni taqoza qiladi.

Karantin ob'ektlarga qarshi kurashdan ko'ra uning oldini olish muximdir. Buning uchun davlatlar xududida uchraydigan begona o'tlarni tarqalish arealini bilish, ularga qarshi kurash choralarini to'g'ri belgilash, ularning ekinlarga keltiradigan zararini keskin kamaytiradi, ekinzorlarning fitosanitar xolatini yaxshilash imkonini beradi. Fitosanitar

nn/orat tufayli yangi kasalliklar, hasharotlar va begona o' tiarning turlari iiiiiqlangan taqdirda uni bartaraf qilish yo'llarini belgilash imkonini vujudga keladi.

Bkinzorlardagi begona o'tlarga qarshi agrotexnik, biologik, iizikaviyj kimyoviy, mexanik kurash choraiari keng qo'llanilmoqda. Bu k 11 rash choralarini to'g'ri belgilashda mutaxassislarining bilim saviyasi va ko'nikmalari asosiy rol o'ynaydi. Malakali mutaxassislarini Inyyorlashda ularni barcha davlatlarda uchraydigan karantin organizmlari !o"g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lishi, ulaming tarqalishini i licgaralashga, zararini oldindan aniqlashga, bartaraf qilishga qarshi kurash choralarini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

## Iboralar va aniqlagichlar


Davlat standartlari

### I

#### 0'simliklar karantini to'g'risidagi tushunchalar:

Mamlakatimiz o'simliklar dunyosini chet mamlakatlardan kirib kelib /nrarlovchi hasharotlar, begona o'tlar va kasalliklarni aniqlash, paydo bolgan taqdirda ularni yo'qotish

Ahamiyati:	Maqsadi:	Asosiy vazifasi:
<ul style="list-style-type: none"><li>• O'simliklar hosildorligini oshtrish</li><li>• Mahsulot silatini yaxshilash</li><li>• Kasai lik (o'zg'atuvchi!ami va hasharotlarni kirib kelishini oldini olish. * O'simlik xom nsliyolarini chorva inollari uchun em</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>» Karantin asoslari<ul style="list-style-type: none"><li>• O'zbekiston uchun karantin hisoblangan zararli organizmlami o'rGANISH 0'simlik mahsulotlarini tekshirish, ekspertiza va zararsizlantirish</li></ul></li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>«O'simiiklar dunyosini mamlakatimizda mavjud bo'lmagan zararli organizmlar bilan zararlanishini oldini olish.</li><li>®Mamlakatimiz ichkarisida karantin ob'ektlarini tarqalib ketishini oldini olish.</li><li>Ilmiy izlanishlami</li></ul>



**Karantin ob'ektlar va ularning tarqalish yo'llari: karantindagi ob'ektlar (karantindagi zararli organizmlar) -**

o'simliklar hamda o'simlik mahsulotlariga iqtisodiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan zararkunandalar, o'simlik kasalliklari, fitopatogen mikroorganizmlar va begona o'tlar;

Tarqalish yo'Hari (o'simliklar misolida):

- \* Faol (Avtoxoriya)
- Passiv (Alloxoriya)



#### **4- BOB. KARANTIN ORGANIZMLARNI KELIB QOLISH YO'LLARI VA NAZORAT USULLARI.**

0'simliklar karantinining asosiy vazifalari, o'simliklaming tashqi va ii'liki karantini bo'yicha davlat tadbirlari tizimini amalga oshirishdan iborat bn'lib, bu tadbirlar quyidagilarga qaratiladi:

respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelib, xalq xo'jaligiga Isiila iqtisodiy zarar etkazishi mumkin boigan karantindagi va boiqqa ЧНvHi zararkunandalardan, o'simlik kasalliklari va begona oilardan mnhofaza etish.

Karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalarni o'simlik kasalliklari MI begona oilarni vaqtida aniqiash, ulaming yoyilishiga yoi qo'ymaslik vti ulami yo'q qilish, shuningdek respublikaning bu zararkunandalar, Kasallik va begona oilardan holi mintaqalariga ular kirib borishining oldini olish;

qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa o'simlik mahsulotlamni i\*I ishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishslash, realizatsiya qilish va nlnrdan foydalanishda o'simliklar karantiniga oid qoidalar va tadbirlarga l ioya etilishi hamda ulaming amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratini olib borishdir.

Karantin zararkunandalar ekspertizasining maqsadi qishloq xo'jalik iiiaksulotlarining Respublikada uchramaydigan yoki karantin ob'ektlarni illoslanganlik darajasini aniqiash va ularga qarshi karantin tadbirlarini qoilashdir.

Bu boiim 0'zbekiston Respublikasi uchun karantin ob'ekti xisoblangan zararkunandalarni aniqiash va ularga qarshi karantin ladbirlarini oikazish masalasini tahlil qilishga bagishlangan.

0'simliklar karantiniga doir tadbirlarning maqsadi o'simliklar karantini ob'ektlarining xorijiy mamlakatlardan, shuningdek 0'zbekiston Kespublikasining o'simliklar karantini ob'ektlari tarqalgan hududidan ()'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ob'ektlaridan xoli boigan hududlariga kirib kelishi natijasida zarar etkazilishi xavfming oldini olish, uni cheklash va bartaraf etishdan iborat.

0'simliklar karantiniga doir tadbirlar:

tabiiy sharoitlardagi mavjud o'simlik dunyosiga, qishloq xo'jaligiga, o'rmonlarga, dorivor, manzarali o'simliklarga, shu jumladan ularning umg'lari, ko'chatlari va qismalariga (qalamchasi, piyozi, tugunagi, mevasiga va boshqalarga), shuningdek o'simliklar karantini ob'ektlarini tashuvchi bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa o'simlik mahsulotiga; -s

tirik zamburugiarga, bakteriyaia, viruslar, nematodalar, kanalar, hasharotlarga;

hasharotlaming, o'simliklar kasalliklarini qo'zg'atuvchilarning kolleksiyalariga va ular etkazadigan zararlaming namunalariga, shuningdek gerbariylargacha va urugviarning kolieksiyalariga;

xorijiy mamlakatlardan va O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududlaridan kirib kelayotgan o'simliklarga, qishloq xo'jaligi mashnalariga, erga ishlov berish quroliariga, idishlaming barcha turlariga, ayrim sanoat tovarlariga, qadoqlash vositalariga, shuningdek o'simlik materiallарidan tayyorlangan buyumlarga, yaxlit toshlarga, tuproq namunalariga, transport vositalariga hamda boshqa o'simliklar karantini ob'ektlarini tashuvchilarga;

O'simlik mahsulotini etishtiradigan, tayyorlaydigan, g'amlaydigan, qayta ishlaydigan hamda realizatsiya qiladigan korxonaiar va tashkilotlarning hududlari va binolariga, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarga va o'rmon fondi eriariga, yuridik va jismoniy shaxslarning er uchastkalariga, shuningdek qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanimaydigan erlarga (yo'llarga, elektr o'tkazgichlar atrofidagi erlarga va boshqalarga) hamda davlatning chegara oldi hududlariga nisbatan tatbiq etiladi.

#### **4.1. KaraBtin ob'ektlarni dalalarda tarqalishini aniqlash usullari.**

Qishloq xo'jalik ekinlari etishtiriladigan dalalarni (xovlilar, omborxonalar, tayyorlash punktlari, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishslash korxonalari, aeroport maydonlari, transport vositalarini) karantin ob'ektlar bilan zararlanganligini tekshirish ularning tarqalish xavfini oldini oladigan, ularning paydo bo'lgan maydonlarini o'z vaqtida aniqlab bartaraf qilish imkonini beradigan asosiy tadbir xisoblanadi.

Xo'jaliklaming ekin dalalarini karantin xolatini tekshirishdan nuu|Had mavjud maydoniaming xolatini va zararlanish darajasini niiit|lash imkonini beradi. Tekshirish ishlarini amalgal oshirish karantin In::|dksiyasi xodimlari raxbarligida, rayon agrosanoat tashkiloti xodimlari bilan birga olib boriladi.

Karantin tekshirishini olib borish usullari:

1.0°simlikning er usti va er osti qismini tekshirish;

2. Tuproqni kavlab tekshirish;

3.0°simliklarda tarqalgan zararkunanda va kasalliklami aniqlash.

Ekin dalalarida guman qilingan zararkunanda, lcasallik va begona o'liar namunasi aniqlangan taqdirda, ulardan gerbariy va hasharotlar l,i)lleksiyalari bo'yicha taqqoslanadi. Tayyorlangan gerbariy va kolleksiyalardan karantin ob'ektlarning turini aniqlashda foydalaniadi.

Zararkunanda, kasallik va begona o'tlarning tarqalishini aniqlash liciuin bedazorlar, kanop, g°o'za, sabzavot ekinzorlari, manzarali o'simliklar ekilgan dalalar shaxmat usulida ko'ndalangiga bo'ylab k'kshirib chiqiladi. Tekshiriladigan ekin maydoni 50-70 gani tashkil

•       lilishi va tekshirish kech kuzda, erta bahorda va mavsum davomida o'lkazilishi kerak.

Bir yillik begona o'tlarning tarqalishini aniqlash uchun H'allazorlar tekshirilganda 100-150 ga maydonni tekshiriladi. Har bir (gerbariy va kolleksiyalarga etiketka yozilib, unda zararkunanda, kasallik vn o'simlikning yig'ilgan joyi, tuman, termer xo'jaligi, yig'ilgan vaqt va islitirok etgan xodimning familiyasi ko'rsatiladi.

#### 4.2. Karantin oh'ekthiraing ekspertizasida qo'ilaniadijan jixozlar.

Begona o'tlarni ekinzoiarda tarqalishini va qishloq xo'jalik maxsulotlarida ucluashini tekshirish uchun binokulyar MBS 1, peshona binokulyari BL, termostat, quritish shkaflari, xolodilnik, probirkalai- urchun cielak, texnik tarozi, probirkalar uchun shtativlar, qumli soat zarur. liundan tashqari temirli va plasmassali shpatellar, qop shuplari, don clagich (0,1 dan 3 mm gacha), mayda jixozlardan britva, skalpel, pinset,

nina, mikrobiologik ilgak, qavchi, agar-agar, bakteriyalardan tayyorlangan doimiy preparatlar kabilar zarur.

Tadqiqotlami amalga oshirish uchun shisha Jaboratoriya jixozlaridan: probirkalar, Kox va Petri likopchalari, har hi I xajmdagi kolbaiar, buyum va qoplag'ich oyna, botiq oyna, kamyoviy stakanlar, o'lhash silindrleri, tomizg'ichlar, pipetkalar spirtovka, shtativlar, emalli kyuvetalar, paxta, doka, filtr qog'ozlari zarur. Begona o't urugMarini aniqlash uchun aniqlagichlar, ma'lumotnomalar, o'simlik gerbariyalar, urug'lar kolleksiyasi kerak.

Karantin begona o'tlarining urug'larini, mevalarini, vegetativ a'zolarini aniqash uchun quyidagi materiallar analiz qilinadi:

1. Barcha qishloq xo'jalik ekinlari, mevali daraxtlar, gul va manzarali o'simliklar, o'rmon va yovvoyi daraxtlar;
2. Texnik, oziq ovqat, urug'lik uchun moMjallangan bug'doy donlari;
- 3.11miy tadqiqot ishlari uchun va kolleksion material uchun kelgan urug' partiyalari (3 kg gacha);
4. Ko'chatlar;
5. Gerbariy va tuproq namunalari;
6. Jun, somon,xashak namunalari.

#### **Nazorat savollari:**

1. Karantin organizmlami kelib qolish yoilarini tushimtiring?
2. Karantin organizmlarni qanday nazorat usullarini bilasiz?
3. Begona o'tlarni ekinzorlarda tarqalishini oldini olish deganda nimanx tashunasiz?
4. O'simliklar karantiniga doir tadbirlar deganda nimani tashunasiz?

## **5- BOB. KARANTIN TO‘G‘RISIDAGI QONUN, QOIDALAR M TUZILISHI VA**

0‘zbekiston boshqa ko‘p mamlakatlar bilan ham savdo munosabatlarini tobora kengaytirmoqda. Bu mamlakatlardan bizga karantin obektlari kelib qolishi mumkin. Masalan 1930 yilda Misrdan olingan chigit bilan g‘o‘za kuyasi ilashib kelgan. Bu zararkunanda o‘sha vaqtdayoq vakuum kamerasida urugiarni fumigatsiya qilish yoilari bilan hutunlay tugatildi.

1939 yilda O‘zbekistonda Komstok qurti topildi. Maium boiishicha Ini qurt Yaponiyadan keltirilgan tut ko‘chatlariga ilashib kelgan.

1932 yilda batat o‘simligida qora rangli chirish kasalligi topildi. Bu o‘simlik ham o‘z vaqtida yo‘q qilindi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari saqlanadigan omborlar zararsizlantirildi. 1946 yilda Amerikadan keltirilgan urugiik (eryong‘oq) araxisda ekspertizadan o‘tkazilganda sklerkial chirish kasalligi aniqlandi.

Bir qancha boshqa jiddiy karantin obektlari ekspertiza yo‘li bilan lopilib, ular 0‘zbekistonga kiritilmagan. Ular orasida levkoy g‘alla nematodasi, Xitoy mum qurti, sitrus o‘simliklaridagi cho‘psimon qalqondor, kartoshka kuyasi va boshqalar bor.

SHuni ham esda tutish kerakki 0‘zbekistonga qo‘shti Tojikistondan Kalifomiya qalqondori o‘tib tarqaldi. Bu qalqondor Tojikistonning 0‘zbekiston chegarasiga juda yaqin joylashgan tumanlarida tarqalgan.

1995 yil 31 avgustda 0‘zbekiston Respublikasida o‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga 30.08.1996 yil va 25.04.1997 yillarda o‘zgartirishlar kiritildi.

Qonun 16 ta moddadan iborat bo‘lib, bu moddalarda o‘simliklar karantining asosiy vazifalari, karantin tadbirlar, o‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun xujjatlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlari va unga raxbarlik qilish organlari, Bosh davlat inspeksiyasining, viloyatlar. Toshkent shaxri, tuman va shaxar, o‘simliklar karantini davlat inspeksiyalarining vakolatlari va urug‘larni, o‘simliklarni va o‘simlik maxsulotlarini import va eksport qilish, xalqaro shartnomalar va bitimlar va boshqa moddalar kiritilgan. Qishloq xo‘jaligining hozirgi

zamon texnologiyasi bilan quollanganligi ko'chat va payvand material larini to'la zararsizlantirishga imkon berishi xukumatimizning "O'simliklar karantini" to'g'risidagi 1995 yil 30 avgustdagi qonunining ahamiyatini yana oshirdi.

O'zbekiston Respublikasning o'simliklar karantini to'g'risidagi qonun 2018 yil 28 iyirada senat tomonidan qayta tasdiqlangan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1- modda. Ushbu Qonunning maqsadi Ushbu Qonunning maqsadi o'simliklar karantini sohasidagi munosabatlami tartibga soiishdan iborat.

### **2-modda. O'simlik!ar karantini to'g'risidagi umum hnijatlar**

O'simliklar karantini to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun. hujjatlari dan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

### **3-modda. Asosly tushnnchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'mlaniladi: karantin ostidagi mabsulot- o'simlik!ar karantini ob'ektlarini tashuvchilar bo'Mishi mumkin bo'lgan o'simliklar, ularning qismlari, ekish ma terial lari , qayta ishlash mahsuloti , boshqa mahsulot va yuklar;

**karantin ruxsatnomasi** - karantin ostidagi mahsulotni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga yoki uning hildudidan tranzit tarzida olib o'tishga ruxsat berilganligini tasdiqlaydigan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan hujjat;

**karantin chekllovleri**- karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasiga olib kirishni, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishni, tashishni va ulardan foydalamshm o'simliklar karantini ob'ektlari

tarqalishining oldini olish maqsadida muayyan muddatga cheklovchi li.tosanitari.ya tadbirlari;

o'simliklar karantini - qishloq xo'jaligiga va boshqa o'simliklar dunyosiga zarar etkazishi mumkin bo'figan o'simliklar karantini ob'ektlari kirib keiishining, tarqalishining oldini olishga hamda bunday ob'ektlami bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui;

o'simliklar karantini ob'ekti - dunyoda karantin ahamiyatiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud boimagan yoki cheklangan tarzda tarqalgan zararli organizmlar;

o'simlidar karantini ob'ektlarini tashuvchilar -■ o'simliklar karantini ob'ektlarinmg tarqalishiga imkoniyat tug'dirishi mumkin boigan transport vositalari, qishloq xo'jaligi mashinalari, erga ishlov berish tjiro!ari, idishlamning barcha turlari, ayrim sanoat tovarlari, qadoqlash vositalari, shuningdek o'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar, yaxlit toshlar, tuproq namunalarini va (yoki) boshqa ob'ektiar;

' fitosanitariya sertifikati - karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini ob'ektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

fumigatsiya o'simliklar karantini ob'ektlarini va boshqa zararli organizmlami yo'q qilish maqsadida ularni kimyoviy vositalarning gazlari bilan zararsizlanirish.

4«modda. Fitosanitariya taiabiari Karantin ostidagi mahsulotga, uni olib kirishga, olib chiqishga, ishlab ohiqarishga, qayta ishlashga, saqlashga, tashishga, realizatsiya qilishga va yo'q qilishga doir talablami belgilaydigan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar fitosanitariya talablaridir.

Fitosanitariya talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi buzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi. (bundan buyon matnda O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi va agar hujjatlaming o'zida boshqa kechroq muddat ko'rsatilmagan boisa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

- 2- bob. 0°simliklar karantini sohasini tartibga solish
- 5- modda. 0°simliklar karantini sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo°na!ishSari 0°simliklar karantini sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo°nalishlari quyidagilardan iborat:
- o°simliklar karantini sohasidagi tadbirlami ishlab chiqish va amalga oshirish;
  - o°simliklar karantini bo°yieha davlat nazoratini amalga oshirish; tashqi va ichki o°simliklar karantini bo°yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish;
  - o°simliklar karantini sohasida fitosanitar xavfsizlikni ta°minlash; o°simiiklar karantini sohasida samarali monitoring olib borish tizimini ishlab chiqish;
  - o°simliklar karantini sohasida xalqaro hamkorUkni rivojiantirish.
- 6- modda. 0°zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o°simliklar karantini sohasidagi vakolatlari 0°zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: o°simlikiar karantini sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta°minlaydi;
- o°simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ulaming bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
  - davlat va xo°jalik boshqaruvi organlarining o°simliklar karantini sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
  - o°simliklar karantini sohasidagi hujjatlami, xususan, karantin ruxsatnomasini, transport birliklarini ochish to°g°risidagi dalolatnomani, karantin ko°rigi dalolatnomasini, fitosanitariya sertifikatini, ichki fitosanitariya sertifikatini va reeksport uchun fitosanitariya sertifikatini berish tartibini belgiiaydi;
  - o°simliklar karantini sohasida monitoringni amalga oshirish tartibini belgiiaydi;
  - 0°simliklar karantini bosh davlat. inspektorimng taqdimnomasiga ko°ra Qoraqalpog°iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar

Inidudlarini o'simliklar karantini ostida deb e'lon qiladi hamda zarur karantin cheklovlarini o'matadi.

0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjalariга muvofiq boshqa vakolatlami ham amalga oshirishi mumkin.

7- modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'stimliklar karantini sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishliron etadi;

o'simliklar karantini. sohasidagi hududiy dasturlami tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

o'simliklar karantini davlat inspektorlarining taqdimnomalariga ko'ra iDgishli. hududlami o'simliklar karantini ostida deb e'lon qiladi va zarur karantin cheklovlarini o'matadi;

. o'simliklar karantiniga doir tadbirlarni o'tkazishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'limlari faoliyatini i) l uvofiglashtiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati. organlari qonun hujjalariга muvofiq boshqa vakolatlami ham amalga oshirishi mumkin.

8- modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning o'simliklar

**karantiniga doir tadbirlarni o'tkazishdagi isfatiroM**

Fuqarolarning o'zim o'zi boshqarish organlari:

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlami amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda o'simliklar karantini sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

tegishli. hudud aholisini o'simliklar karantini ob'ektlari tarqalganligi lo'g'risida xabardor qilishda o'simliklar karantini davlat inspektorlariga ko'makiashadi.

Fuqarolarning o'zim o'zi boshqarish organlari qonun hujjalariга muvofiq boshqa tadbirlarni o'tkazishda ham ishtirok etishi mumkin.

NodavJat notijorat tashkilotlari va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududini. o'simliklar karantini ob'ektlarining kirib kelishidan yoki tarqalishidan himoya qilishda (fitosanitar xavfsizlik) davlat. organlariga va boshqa organlarga zarur yordam ko'rsatishi mumkin.

- 3- bob. 0'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi va unga rahbarlik qilish
- 9- modda. 0'simlik!ar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi  
O'simiikiar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimim:  
0'simlikiar karantini davlat inspeksiyasi;  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari;  
0'simliklar karantini ilmiy markazi;  
avtomobi I yo'lla.ridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlari va pochtamtdagi o'simiiklar karantini punkti tashkil etadi.  
0'simlikJar karantini davlat inspeksiyasi 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari 0'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga, shuningdek tegishligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Ken.gash.iga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bo'ysunadi.
- 0'simliklar karantini ilmiy markazi 0'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga bo'ysunadi.
- Tumanlar va shaharlarning o'simliklar karantini davlat inspektorlari, avtomobi!. yoilaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simlik!ar karantini chegara punktlari va pochtamtdagi o'simliklar karantini punkti tegishligiga yuqori turuvchi o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari ga bo'ysunadi.

M-modda. 0‘simliMar karantini bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlik qilish

0‘zbekiston Respublikasining o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat ,ii/inatiga rahbarlikrti 0‘simliklar karantini. davlat inspeksiyasi amalga osliiradi.

Qoraqalpog<sup>4</sup> iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida o‘simliklar karantini. bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlikrti tegishligiga (,)oruqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar kiirantini davlat mspeksiyaiari amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar offimliklar karantini davlat inspeksiyalarining boshliqlari 0‘simliklar k:irantini davlat inspeksiyasi tomonidan tegishligiga Qoraqalpog‘iston Kcspubiikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga bmoan iavo.zim.ga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi. Tumanlar va shaharlarning o‘simliklar kiirantini davlat inspektorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan Invozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi.

Avtomobil yoilaridagi, temir yo‘1 stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara punktlaridagi va pochtamtdagi o‘simliklar karantini punktidagi o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatiga o‘sim!ikiar karantini tegishii chegara pimktlarining 0‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan Invozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan mudirlari boshchiiik qiladi.

11- modda. 0‘simliklar karantini davlat  
inspeksiyasining vakolatiari

0‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi:

o‘simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga osh.iris.hda ishtirok etadi;

o‘simliklar karantini bo‘yicha dasturlar va tadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishi ustidan davlat nazoratmi amalga oshiradi, bu dasturlar va

tadbiriammg 0'zbekiston Respublikasi hududida o'z vaqtida bajarilishi uchun j avobgar bo ' lad i;

o'z vakolatlari doirasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'igan buyruqlar chiqaradi, yo'riqnomalami, o'simliklar karantini qoidalarini va fitosanitariya talablarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi hamda taslikilotlar va aholi e'tiboriga etkazadi;

karantin ostidagi mahsulotni olib kirish chog'idagi o'simliklar karantini qoidalarini belgilaydi, xalqaro savdo kontraktlariga (shartoomalariga) 0'zbekiston Respublikasining hududiga o'simliklar karantini ob'ektlari kirib keli shining va taiqalishimng oldini olishni ta'minlaydigan ta.labi.ar kiritilishini ko'rib chiqadi, shuningdek. xulosalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda 0'zbekiston Respublikasi uchun karantin. ahamiyatiga ega boigan zararli organizmlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari, karantin ostidagi mahsulotiar va ularning tarqalish hududlari ro'yxatini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotiar ro'yxa.tini tasdiqlaydi; fitosanitariya talablarini tasdiqlaydi;

avtomobil yo'llaridagi, temir yoi stansiyalaridagi aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlari va pochtamtdagi o'simliklar karantini punkti, shuningdek o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya boiinmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

karantin raxsatnomasini beradi;

o'simliklar karantini sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, xalqaro tashkilotlarda o'simliklar karantini bo'yicha 0'zbekiston Respublikasining manfaatlarmi himoya qiladi;

o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya boMinmalarini taslikil etadi, o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurash olib borishda shaxsiy tomorqa, termer va dehqon

x o - j a I! kiariga, o‘rmon xo‘jalikiariga, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko‘rsatadi;

eksportga jo‘natilayotgan va xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston Kcspublikasiga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotning hamda o‘simgiliar karantini ob‘ektlarini tashuvchilaming karantin tekshiruvini va laboratoriya ekspertizasini o‘tkazadi;

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini karantindagi hududlarga va iiiikrohududlarga bo‘lib chiqadi;

karantindagi zararkunandalarga, o‘simgiliar kasallildariga va begona o‘tlarga qarshi kurashish borasidagi ilm-fan yutuqlarini va ilg‘or tajribani, lunovatsion uslublar, vositalar va usullami targ‘ib qilish hamda ishlab t hlqarishga keng joriy etishga, aholi o‘ttasida o‘simgiliar karantini nb‘ektlari to‘g‘risidagi biiimlami tarqatishga doir ishlami tashkil etadi;

tegishli hududda karantinni joriy etish (bekor qilish) to‘g‘risida (Vzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdimnomalar kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda o‘simgiliar karantini, karantin cheklovlarini qo‘llash bo‘yicha har yilgi dasturlarni hamda tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxatini, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kii ilishi taqiqlangan ekish materiallari, karantin ostidagi mahsulotlar va ularning tarqalish hududlari ro‘yxatini, O‘zbekiston Respublikasi liududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar lo‘yxatini qayta ko‘rib chiqish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.

O‘simgiliar karantini davlat inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlami ham amalga oshirishi mumkin.

12- modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Tashkent shahar o‘simgiliar karantini davlat inspeksiyalarining vakolatlari Qoraqaipog\* iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simgiliar karantini davlat inspeksiyalari:

karantin ostidagi malisulotni saqlash, qayta ishslash, realizatsiya qilish, qabul qilish punktlari joylashgan erlarni va ularga tutash hududlami, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljaliangan erlami, o‘rmon fondining, niuhofaza etiladigan tabiiy hududlaming erlarini o‘simpliklar karantini ob’ektlarini o‘z vaqtida aniqiash maqsadida nazorat tekshiruviardan o‘tkazishni tashkil etadi;

aniqlangan zararlanish o‘choqlarinmg kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularni bartaraf etish, shuningdek o‘simpliklar karantini ob’ektlarini oiib kirish yoilarini aniqiash hamda to‘sish bo‘yicha shoshilinch choralar ,ko‘radi;

fitosanitariya sertifikatini, ichki fitosanitariya sertifikatini, reeksport uchun fitosanitariya sertifikatini, transport birliklarini ochish to‘g‘risidagi dalolatnomani va karantin ko‘rigi dalolatnomasini beradi;

0‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan keladigan karantin ostidagi mahsulotni sogiqlashtmsh va zararsizlantirish, shuningdek transport vositalarini zararsizlantirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududni o‘simpliklar karantini ostida deb e’lon qilish (karantinni bekor qilish), zarur karantin cheklarini qo‘llash to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdimnomalar yuboradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simpliklar karantini davlat inspeksiyalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13- modda. 0‘simpliklar karantini ilmiy markazi

0‘simpliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatining ilmiy ta’minotini 0‘simpliklar karantini ilmiy markazi amalga oshiradi.

0‘simpliklar karantini ilmiy markazi o‘simpliklar karantini ob’ektlarining bioekologik xususiyatlarini va ularga qarshi kurashish usullarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

0‘simpliklar karantini ilmiy markazi o‘simpliklar karantini ob’ektlariga qarshi kurashish sohasi xodimlarining kasbiy bilimlari va malakasi

oshirilishini, o'simliklar karantini ob'ektlari to'g'risidagi bilimiarning nholi o'rtasida tarqatilishini ta'minlaydi.

14- modda. O'zbekiston Respublikasi  
**Davlat chegarasidagi o'simliklar karantiBs punktlari**

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan karantin ostidagi mahsulotni (shu jumladan tranzit yuklarni) tekshirish o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan o'simliklar karantini i hagara punktlarida o'tkaziladi.

O'simliklar karantini chegara punkti O'zbekiston Respublikasi davlat dicgarasi punktida, ichki hududlararo chegara punktlarida tashkil qilinadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Konalar bilan, tekshiruvlar o'tkazish va namimaia olish, fitosanitariya rkspertizasini va fumigatsiya ishlarini amalga oshirish uchun vositalar, uloqa vositalari va Internet tarmog'i bilan ta'minlanadi.

O'simliklar karantini davlat inspektori fitosanitariya sertifikatining < I a I bakiligini, belgilangan talablarga muvofiq emasligini aniqlagan yoki karantin ostidagi mahsulotlarda o'simliklar karantini ob'ektlari mavjudligi lo'g'risida shubha bo'lgan taqdirda, ushbu karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini tegishli chegara punktida ushlab turiladi va bu haqda ()siniliklar karantini davlat inspeksiyasiga xabar beriladi.

15- modda, O'simSildar karaatiisi davlat mspektorlari  
O'simliklar karantini davlat inspeksiyaning boshlig'i O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektoridir, uning o'rinnbosarlari va O'simliklar karantini ilmiy markazining direktori ()'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining o'rinnbosarlaridir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O'simliklar karantini davlat inspeksiyanining boshliqlari Qoraqaipog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlaridir.

Tumanlar va shaharlar o'simliklar karantini davlat inspektorlari o'z faoliyatini tegishli hududda amalga oshiradi.

O'simlikiar karantini davlat inspeksiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simlikiar karantini davlat inspeksiyalarining agronomlari, avtomobil yo'llaridagi, temir yoi stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlarining, shuningdek pochtamtdagi o'simlikiar karantini punktining mudirlari va agronomlari, o'simlikiar karantini ob'ektlariga; qarshi kurashish bo'vicha maxsus fumigatsiya bo'lismalarinmg boshliqlari va mutaxassislari o'simliklar karantini davlat inspektorlaridir.

#### 16- **modda. O'simliklar karantini davlat inspektorlari amg huqnqlari**

O'simliklar karantini. davlat inspektorlari o'z vakolatlari doirasida quyidagilarga haqli:

karantin ostidagi mahsulotni etishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishslash hamda realizatsiya qilish bilan shug'iillanuvchi davlat va xo'jalik boshqaravi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslaming hududiga moneliksiz kirishga;

o'simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya talablarining buzilishlarini bartaraf etish hamda ularning oldini olish bo'yicha bajarilishi majburiv bo'lgan taqdimnomalar kmtishga;

laboratoriya tekshiruvlari va tegishli ekspertiza o'tkazish uchun karantin ostidagi mahsulotdan namunalar olishga;

o'simlikiar karantini ob'ektlari aniqianganda o'simlikiar karantini qoidalariiga muvofiq karantin cheklovleri o'matishga, olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotni ushlab turishga, olib qo'yishga yoki qaytarib yuborishga;

kirib kelayotgan va jo'natilayotgan, ushbu Qonunning 20-moddasiga muvofiq o'simlikiar karantiniga doir tadbirlar tatbiq etiladigan yuklar to'g'risida bojxona organlaridan, temir yo'l stansiyalarining, avtovokzallaming (avtostansiyalaming), aeroportlaming, daryo

pottlarning (pristanlarining), pochtamlaming, dehqon bozorlarining va boshqa tashkilotlaming ma'muriyatlaridan maiumotlar talab qilishga;

zarur boigan taqdirda karantin ostidagi mahsulotni ko'zdan kechirish va zararsizlantirish ishlarini amalga oshirish uchun yordamchi ishchilar, xizmat xonalari va yordamchi materiallar berilishini yuklaming egataridan I n lab qilishga.

O'simliklar karantini davlat inspektorlari qonun hujjalariiga muvofiq I )Oshqa huquqlarga ham. ega bo'lishi mumkin.

17- modda. O'simliklar karantini

davlat inspektorlarining majburiyatlari

O'simliklar karantini davlat inspektorlari:

o'simiiklar karantini ob'ektlarining o'simliklar karantini ob'ektlaridan 4«li boigan hududga kirib kelishining oldini olish bo'yicha zarur choralar koiishi;

o'simliklar karantini ob'ektlariga tashxis qo'yish maqsadida Inboratoriya tekshiruvlari va boshqa tekshiruvlar oikazilisbini tashkil clishi;

tegishli organlar va tashkilotlami chegaroиди hududlarda, qo'shni dnyvatlarda yuzaga kelgan karantin holati to^g'risida xabardor qilishi, o'simliklar karantiniga doir ta.dbird.arni amalga oshirishi hamda zarur I a vs iy alar berishi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organ lariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur fitosanitariya talablarini bajarish to^g'risida laqdimnomalar yuborishi;

o'simliklar karantini qoidalariga nomuvofiqlik va fitosanitariya talablari buzilganligi faktlari aniqlanganda temir yol vagonlaridan, kemalardan, samolyotlardan va boshqa transport vositalaridan I'oydaianishga doir taqiq oinatishi shart.

O'simliklar karantini davlat inspektorlarining zitnmasida qonun hujjalariiga muvofiq boshqa. majburiyatlар ham boiishi mumkin.

4- bob. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jisraoniy shaxslarning o‘simliklar karantini sohasidagi huquq va majburiyatlari

18- modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simlildar karantini sohasidagi huquqlari

Karantin ostidagi mahsulotni etishtmsh, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishslash hamda realizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

zami’ hollarda, o‘simliklar karantini. bo‘yicha davlat xizmati vakiliari bilan birgalikda o‘simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya talablad so‘zsiz bajarilishini ta’minlovchi tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

o‘simliklar karantini ob’ektlarini aniqlash uchun o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatidan karantin ostidagi mahsulotni saqlash, qayta ishslash, realizatsiya qilish va qabul qilish punktlari joylashgan erlami, ularga tutash hududlami, qishloq xo‘jahgiga mo‘ljallangan erlami, o‘rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hudud laming erlarini nazorat tekshiruvlaridan o‘tkazishni talab qilish;

o‘simliklar karantini ob’ektlari to‘liq yo‘q qilinganidan keyin o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga karantin cheklovlarini bekor qilish bo‘yicha takliflar kiritish.

Karantin ostidagi mahsulotni etishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishslash hamda realizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

19- modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simlikiar karantini sohasidagi majburiyatlari

Karantin ostidagi mahsulotni etishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishslash hamda realizatsiya qilish bilan shug‘ulanuvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar:

o'simlikiar karantini. bo'yicha daviat xizmati nazorati ostida lekshirishga (ko'zdan kechirishga) va o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashishga doir ishlarni, shuningdek ushbu karantin. ob'ektlari Uirqalishining oldini olishga doir tadbirlami anialga oshirishi;

belgilangan tartibda karantin ruxsatnomasi va (yoki) ichki fitosanitariya sertifikati olinmagan karantin ostidagi mahsulotni qabul qilmasligi;

xorijiy mamlakatlardan va O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududlaridan karantin ostidagi mahsulotni olib Jdrishda o'simliklar karantini qoidalariga rioya qilishi;

tegishli yuklar saqlanadigan omborxonalarda har yili kamida bir marta profilaktik fumigatsiya ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirishi Nhart.

Karantin ostidagi mahsulotni etishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, ijiiyta ishslash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin, Qishloq xo'jaligi o'simliklari, dorivor o'simlikiar, daraxt va butalar i lishtirish, o'simliklaming yangi navlari seleksiyasi bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar o'simlikiar karantini ob'ektlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida ekinlar va daraxtlami tizimli ravishda kuzatib borishni amalga oshirishi, ular aniqlangan taqdirda esa bu haqda mahalliy davlat hokimiyyati organlarini, o'simlikiar karantini bo'yicha davlat xizmatini darhol xabardor qilishi, shuningdek aniqlangan o'simliklar karantini ob'ektlarini bartaraf etish bo'yicha choraiar ko'rishi shart.

5- bob. O'simliklar karantiniga doir tadbirlar va ularni amalga  
oshirish

20- modda. O'simliklar karantiniga doir tadbirlar

O'simlikiar karantiniga doir tadbirlaming maqsadi o'simlikiar karantini ob'ektlarining xorijiy mamlakatlardan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining o'simlikiar karantini ob'ektlari tarqalgan hududidan O'zbekiston Respublikasining o'simlikiar karantini ob'ektlaridan xoli

boMgan hududlariga kirib kelishi natijasida rarat etkaziiishi xavfining oldini olish, uni cheklash va bartaraf etishdan iborat.

0'simHklar karantiniga doir tadbirlar:

tabiiy sharoitiardagi mavjud o'simlik dunyosiga, qishloq xo'jaligiga, o'mionlarga, dorivor, manzarali o'simliklarga, shu jumiadan ularning urug'lari, ko'chatlari va qismlariga (qalamchasi, piyozi, tugunagi, mevasiga va boshqalarga), shuningdek o'sim!iklar karantini ob'ektlarini tashuvchi bo'lishi mumkin bo'igan boshqa o'simlik mahsulotiga;

tirik zamburug'larga, bakteriyaiar, viruslar, nematodalar, kanalar, hasharotlarga;

hasharotlaming, o'simlikiar kasaffiklarini qo'zg'atuvchilarning kolleksiyalariga va ular etkazadigan zararlarning namunalariga, shuningdek gerbariyalarga va urug'laming kolleksiyalariga;

xorijiy mamlakatlardan va 0'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududlaridan kirib kelayotgan o'simliklarga, qishloq xo'jaligi mashinalariga, erga ishlov berish qurollariga, idishlamning barcha turlariga, ayrim sanoat tovarlariga, qadoqlash vositalariga, shuningdek o'simlik materiallаридан таъyorlangan buyumlarga, yaxlit toshlarga, tuproq namunalariga, transport vositalariga hamda boshqa o'simliklar karantini ob'ektlarini tashuvchilarga;

o'simlik mahsulotini etishtiradigan, tayyorlaydigan, g'amlaydigan qayta ishlaydigan hamda realizatsiya qiladigan korxonalar va tashkilotlaming hududlari va binolariga. qishloq xo'jaligiga moMjallangan erlarga va o'rmon fondi erlariga, yuridik va jismoniy shaxslarning er uchastkalariga, shuningdek qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalilmaydigan erlarga (yoilarga, elektr o'tkazgichlar atrofidagi erlarga va boshqalarga) hamda daviatning chegaraoldi hududlariga nisbatan tatbiq etiladi.

21- modda. Karantin o'rnatish va uni bekor qilish tartibi 0'simiiklar karantini ob'ektlari aniqlangan hollarda tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan fermer va dehqon xo'jaliklarining, o'rmon xo'jaliklarining hamda boshqa yuridik va

jismoniy shaxslaming er uchastkalari, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portlari, shaharchalar, posyolkaiar, qishloqlar, ovullar, shuningdek ularga tutash hududlar o'simliklar karantini ostida deh e'lon qilinadi yoki ularda zarur karantin chekloviari o'matiladi.

Tumaniar va shaharlarni o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilish yoki karantin cheklovlarini o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog\* iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlaming va Toshkent shahrining hududlarini o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilish yoki karantin cheklovini o'matish 0'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

O'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududda o'simliklar karantini o'chog'ining tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi, unga tutash hududlarda o'simliklar karantini ob'ektlari tarqalishining oldini olishga va nlarni yo'q qilishga qaratilgan o'simliklar karantiniga doir tadbirlar o'tkaziladi.

Karantin ostidagi mahsulotni karantin chekloviari o'matilgan hududlardan olib chiqish va ulardan foydalanish shartlari o'simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya. talablari asosida amalga oshiriladi, hundan zararlangan mahsulot mustasno.

Zararlangan mahsulotdan foydalanish shartlari o'simliklar karantini (.joidalariga muvofiq o'simliklax karantini davlat inspektorlari tomonidan belgilanadi.

Hududda o'matilgan karantin chekloviari o'simiiklar karantini bo'yicha zarur tadbirlar o'tkazilganidan va o'simiiklar karantini ob'ektlari loliq yo'q qilinganidan keyin, tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlarining taqdimnomalariga ko'ra cheklovlar o'rnatgan Qoraqalpog 'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan yoki 0'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorinmg

taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

22- raodda. Fitosanitar dak nazorati va uni tashkil etish  
Fitosanitar dala nazorati o'simliklaming va o'simlik mahsulotining fitosanitar tozaligini ta'minlash, ularda o'simliklar karantini ob'ektlarining mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash. maqsadida aoialga oshiriladi.

Fitosanitar dala nazorati o'simlikiar karantini davlat. inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Fitosanitar dala nazorati o'tkazilganidan keyin dalolatnama tuziladi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlar belgilanadi.

23- modda. O'simlikiar karantini sohasidagi laboratoriya  
**tekshiruvlari**

O'simlikiar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari karantin ostidagi mahsulotning qismiarini va (yoki) namunaSarini uiar zararlanganligini yoki zararlanmaganligini, ularda o'simlikiar karantini ob'ekttari mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadqiqotlardan iborat va bu tadqiqotlar qonun hujjatlariga muvofiq akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o'tkaziladi.

O'simlikiar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari:

karantin ostidagi mahsulotning o'simlikiar karantini qoidalariga hamda fitosanitariya talablariga muvofiqligini aniqlash;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'simlikiar karantini sobiasida monitoring olib borish;

fitosanitar xavfni tahlil qilish;

fitosanitariya sertifikatini berish;

karantin mxsatnomasini berish;

ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'simlikiar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

24- modda. Karantin ostidagi mahsulotning fumigatsiyasi Karantin ostidagi mahsulot olib kirilayotganda, O'zbekiston Respublikasi hududida tashilayotganda, olib chiqilayotganda transport vositalaridagi va bo'sh omborlardagi fumigatsiya ishlari faqat o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'lmalari tomonidan amalga oshirilib, ulaming yakuni bo'yicha zararsizlantirish to'g'risidagi dalolatnomalarasmiylashtiriadi.

#### **25-modda. O'simliklar karantini sohasida monitoring yuritish**

O'zbekiston Respublikasi hududida o'simliklar karantini sohasida monitoring yuritish o'simliklar karantini ob'ektlarini aniqliash, kuzatish, lahlil qilish. baholash va ulaming tarqalishini prognoz qilish tizimidan. iboratdir.

o'simliklar karantini sohasidagi monitoring:

o'simliklar karantini ob'ektlarimng 0'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishiga, tarqalishiga hamda bioekologik xususiyatlarga la'sir ko'rsatishiga ko'maklashuvchi omillami aniqliash va baholash;

o'simliklar karantini ob'ektlarining 0'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelish yo'llarini va tarqalgan hududlami aniqliash; o'simliklar karantini ob'ektlari o'choq!arini aniqliash; o'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashish uchun zarur chora- ladbirlami ishlab chiqish;

fitosanitar xavfhi aniqliash va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladi.

O'simliklar karantini sohasidagi monitoring 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

6- bob. 0'simliklar k&rants sohasidagi axborotning ocfaiqligi

**26-** modda. Axborotdan foydalanish O'simliklar karantini sohasidagi nomiativ-huquqiy hujjatlar, texnik jilmtdan tartibga solishga oid nonnativ hujjatlar, shu jumladan

fitosanitariya taiabiari, shuningdek karantin ostidagi hududiar, o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda o'simliklar karantini sohasidagi boshqa axborot ommaviy axborot vositalarida va ()'simliklar karantini davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qiiinadi.

**27-** modda. O'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruza

0'simliklar karantini davlat inspeksiyasi 0'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruzani tayyorlaydi va 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

0'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruza haqidagi axborot 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda 0'simliklar karantini davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

**28-** 7- bob. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish va olib chiqish modda. Olib kiriayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulotga nisbatan talablar

Olib kiriayotgan, olib chiqilayotgan va trailzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini ob'ektlaridan xoli bolishi hamda uning bar bir turkumi fitosanitariya sertifikatlarining asl nusxalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Karantin ostidagi mahsulot olib kirilayotganda, olib chiqilayotganda va tranzit tarzida olib o'ttiayotganda o'simlidar karantini qoidalari hamda fitosanitariya talablariga rioya qilinishi kerak.

**29-** modda. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish

Karantin ostidagi mahsulotni olib kirishga karantin ruxsatnomasi, eksport qiluvchi mamiyatning o'simliklar karantini va ulami himoya qilish bo'yicha davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikati yoki guvohnomasi mavjud bo'Mgan taqdirda yo'i qo'yiladi.

O'simliklar karantini va ulami himoya qilish bo'yicha davlat organlariga ega boimagan xorijiy mamlakatlardan karantin ostidagi mahsulotni olib kirishga O'simlikiar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan karantin ostidagi mahsulotning liar bir turkumiga alohida- alohida beriladigan karantin ruxsatnomasi mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Davlat va xo'jalik boshqamvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda:

karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berishga yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o'tishga doir savdo shartnomalariga (kontraktlariga) o'simliklar karantini ob'ektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishining oldini olishni ta'minlaydigan fitosanitariya talablarini kiritishi;

xorijiy mamlakatlardan karantin ostidagi mahsulotni xarid qilish chog'ida, zarur bo'lgan taqdirda, bu mamlakatlardagi karantin ostidagi mahsulotning fitosanitar holatini o'rganish uchun o'simlikiar karantini bo'yicha mutaxassislami yuborishni nazarda tutishi shart.

Olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini chegara punktlari da o'simlikiar karantini davlat inspektorlari tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish amalga oshiriladigan o'simlikiar karantini chegara punktlari O'simlikiar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shni davlatlardan o'simliklar karantini ob'ektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishi va tarqalishi tahlidi yuzaga kelgan taqdirda, vakolatli organlarning qaroriga ko'ra xavf tug'diruvchi uchastkalardagi chegara vaqtincha yopib qo'yiladi.

O'simlikiar karantini ob'ektlari aniqlangan karantin ostidagi mahsulotni olib kirish taqiqlanadi, bundan ulaming ilmiy maqsadlarda olib kirilayotgan namunalari mustasno.

Urug'liklami va ekish materiallarini xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolarga pochta jo'natmalarida yuborish, shuningdek yuk bilan olib o'tish taqiqlanadi. O'simlikiar karantini ob'ektlari bilan zararlanmagan ayrim mevalami, yangi hoi meva

va sabzavGtiami yolovchilarning qo'i yukida o'tkazishga o'simliklar karantini. davlat inspektori tomonidan ruxsat beriladi. Alovida qimmatga ega bo'lgan urug'lar, o'simliklar yoki ekish materiallari ilmiy-tadqiqot muassasalarining manziliga yo'llangan taqdirda, ular o'simliklar karantini davlat inspektorining xulosasiga ko'ra introduksiya karantin ko'chatxonasiga tekshirish uchun yuborilishi kerak.

0'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomaiik vakolatxonalar, konsuilik muassasaiari va savdo valcoi.atxonal.ari tomonidan karantin ostidagi mahsulotni xorijiy mamlakatlardan 0'zbekiston Respublikasiga yuk. bilan olib kirish va pochta orqaii jo'natish, mamlakat ichida tashish hamda undan foydalanish o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini ob'ektlari aniqlangan taqdirda, ular belgilangan tartibda bir sutka ichida majburiy fumigatsiya qilinadi yoki boshqa usullar bilan zararsizlantiriladi, begona o'tlardan tozalanadi, yashirin zararlanishlami anqliplash va sog'lomlashtirish maqsadida oranjereyalarga va karantin ko'chatxonalariga o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq ekiladi. Bu o'simlik materialiga texnik jihatdan ishlov beriladi yoki ulardan hududi o'simliklar karantini ob'ektlari tarqaishi xavfidan xoli bo'Mgan tumanlarda foydalaniladi. YAshirin zararlanishni aniqlash alohida hollarda laboratoriya tekshimvi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan ishchi kuchidan, transportdan, xonalardan va yordamchi materiallardan foydalanish tegishli yukni oluvchilar yoki karantin ostidagi mahsulotni jo'natuvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

Karantin ostidagi mahsulot mayjud bo'lgan tranzit yuklar o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. O'simliklar karantini ob'ektlari aniqlangan taqdirda, mazkur yuklar ushlab turilishi, zararsizlantiriishi yoki uni eksport qilgan mamlakatga qaytarib yuborilishi kerak.

**30-****modda. Karantin ostidagi mahsulotni olib chiqish**

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simUklar karantini qoidalariga, fitosanitariya talablariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini sohasidagi xalqaro shartnomalari qoidalariga muvofiq bo'lishi hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatiga kiritilagan bolishi kerak.

Karantin ostidagi mahsulotning har bir turkumiga belgilangan namunadagi fitosanitariya sertifikati ilova qilingan boiishi kerak.

Karantin ostidagi mahsulotni eksport qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, tegishli o'simliklar karantini davlat inspeksiyasmi karantin ostidagi mahsulotni yuklab jo'natish sanasi to'g'risida kamida o'n kun o'sdin xabardor qilisbi, mahsulotni yuklab jo'natish uchun maqbul bo'Mgan joyni ular bilan birgalikda belgilashi, yuklab jo'natish sanasidan uch kun oldin eksport qilinayotgan mahsulotni tekshirish uchun taqdim etishi shart.

8- bob. Yakunlovfei qoidalar 31-modda.

O'simliklar karantini sohasidagi xalqaro harafcorlik

O'simliklar karantini sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

32~modda. O'simlikiar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimini

molivalashtirish

O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida laqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan molivalashtiriladi.

O'simliklar karantini ob'ektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus lumigatsiya bo'linmalari zararsizlantirish bo'yicha bajarilgan ishlardan olingan tushumlar hisobidan to'liq o'zini o'zi molivalashtirish asosida o'z laoliyatini amalga oshiradi.

0‘simliklar karantini ob’ektlariga qarshi kurashish va fitosanitar xavfsizlikni ta’minlash uchun har yili 0‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan mablag‘lar ajratiladi.

0‘simliklar karantini sohasida ko‘rsatiladigan puliiq xizmatlarda olingen daromadlar o‘simlikiar karantini bo‘yicha davlat xizmati tizimi xodimlarini rag‘batlantirishga, o‘simliklar karantini davlat inspeksiyalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga hamda ularning taoliyati bilan bog‘liq boigan boshqa xarajatlamining o‘mini qoplashga sarflanadL

0‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatining olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o‘tilayotgan karantin ostidagi mahsulotni tekshirish hamda ko‘zdan kechirish, shuningdek zarur hujjatlami rasmiylashtirish bilan bogiiq barcha xarajatlarining o‘rni tegishli yuridik va jismoniy shaxslar mablagiari hisobidan qoplanadi.

### 33~modda. Nizolarni hal etish

0‘simliklar karantini sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hai etiladi.

34-modda. 0‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatiarini bnezganlik uchun javobgarlik 0‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatiarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

### Nazorat savollar:

1. 0‘zbekiston Respublikasining “0‘simliklar karantini” to‘g‘risidagi qonuni qachon qabul qilingan?
- 2.0‘zbekiston Respublikasining “0‘simliklar karantini” to‘g‘risidagi qonuni nechta moddadan iborat?
- 3.0‘zbekiston Respublikasining “0‘simliklar karantini” to‘g‘risidagi qonunining mazmun va mohiyati nimadan iborat?
4. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish va olib chiqish deganda nimani tushunasiz?

**6- BOB. 0'ZBEKIST0N RESPUBLIKASIGA CHETDAN  
KIRIB KELISH HAVFI BOLGAN KARANTIN  
ORGANIZMLAR BILAN TANISHUV**

**Armaniston - (*Erevan*)**

**Zararkunandalar:** kolorado qo'ng'izi, komstok qurti, filloksera, Sharq mevaxo'ri, Yaponiya mumsimon soxta qalqondori.

**0'siraiik kasallikkleri:**

*Bakteriyali:* mevali daraxtlar kuydirgisi.

*Zamburug'li:* g'o'za antraknozi, kartoshka raki, soya poyasi raki.

**Nematodalar:** kartoshka oltinrang neraatodasi.

**Begona o'tlar:** zarpechaklar, sudraluvchi kakra.

**Belorussiya - (*Minsk*)**

**Zararkunandalar:** g'arb makkajo'xori qo'ng'izi, kichik qora archa mo'ylovldori, kolorado qo'ng'izi.

**0'sintlik kasallildari:**

*Bakteriyali:* mevali daraxtlar kuydirgisi.

*Virusli:* olxo'lining cho'tir kasalligi.

*Zamburug'li:* zig'ir pasmosi, kartoshka raki.

**Nematodalar:** kartoshka oltinrang nematodasi.

**Begona o'tlar:** zarpechaklar, sudraluvchi kakra, ermonbargli ( ambroziya).

**Grnziya - (*Tbilisi*)**

**Zararkunandalar:** avstraliya tarnovsimon qurti, amerika oq kapalagi, kaliforniya qalqondori, kartoshka kuyasi, kolorado qo'ng'izi, komstok qurti, tut qalqondori, filloksera, sitrus inli kuyasi, sitms oqqanoti, sitrus unsimon qurti, Sharq mevaxo'ri, Yaponiya mumsimon soxta qalqondori, Yaponiya cho'psimon qalqondori.

**0'simlik kasallikkleri:**

*Virusli:* sitrus tristetsa kasalligi.

*Zamburug'li:* g'o'za antraknozi, kartoshka raki, soya poyasi raki. **Begona o'tlar:** zarpechaklar, sudraluvchi kakra, uchbo'lakli ambroziya. ermonbargli ambroziya.

**Qirg'iziston - (*Bishkek*)**

Zararkunandalar: amerika oq kapalagi, kalifomiya qalqondori, kolorado qo‘ng‘izi, komstok qurti, pomidor kuyasi, sharq mevaxo’ri.

0‘simlik kasalliklari:

**Bakteriyali:** mevali daraxtlar kuydirgisi.

Nematodalar: kartoshka oltinrang nematodasi.

Begona o‘tlar: zarpechaklar, sudraluvchi kakra.

Qozog‘iston - (*Ostona*)

Zararkunandalar: amerika oq kapalagi, sharq mevaxo’ri, kalifomiya qalqondori, kapr qo‘ng‘izi, kolorado qo‘ng‘izi, komstok qurti. 0‘simlik kasalliklari:

Begona o‘tlar: zarpechaklar, ko‘p yillik ambroziya, sudraluvchi kakra, tikanli ituzum, ermonbargli ambroziya.

**Latviya - (Riga)**

Zararkunandalar: g‘arb gul tripsi, kichik qora archa mo‘ylovdori, kolorado qo‘ng‘izi.

0‘simlik kasalliklari:

**Bakteriyali:** mevali daraxtlar kuydirgisi.

**VirusU:** olxo‘rining cho‘tir kasalligi.

**Zamburug‘li:** kartoshka raki, xrizantema oqrang kasalligi. Nematodalar.- kartoshka oltinrang nematodasi.

Begona o‘ttar: zarpechaklar.

**Litva - (Vilnyus)**

Zararkunandalar: kolorado qo‘ng‘izi, qora barxat-dog‘li mo‘ylovdor, pomidor kuyasi.

0‘simlik kasalliklari:

**Bakteriyali:** mevali daraxtlar kuydirgisi.

**VirusU:** olxo‘rining cho‘tir kasalligi.

**Zamburug‘U:** zig‘ir pasmosi.

Nematodalar: kartoshka oltinrang nematodasi.

Begona o‘tlar: zarpechaklar, ermonbargli ambroziya.

**Moldaviya - (Kishinyov)**

Z<sub>a</sub>r<sub>a</sub>kunandalar: kalifomiya qalqondori, komstok qurti, sharq mevaxo’ri.

0‘simlik kasalliklari:

**Bakteriyali:** mevali daraxtlar kuydirgisi.

Begona o'tlar: zarpechaklar, karolina ituzumi, uchboiakli arabroziya.

#### Ozarbayjon - (*Baku*)

Zararkunandalar: avstraiiya tarnovsimon qurti, amerika oq kapalagi, kaliforniya qalqondori, kolorado qo'ngizi, komstok qurti, tut qalqondori, to'rt xolli donxo'r, filloksera, sitrus inli kuyasi, sitrus oqqanoti, sharq mevaxo'ri, Yaponiya mumsimon soxta qalqondori, Yaponiya cho'psimon qalqondori.

Begona o'tlar: angustifolium ituzumi, zarpechaklar, sudraluvchi kakra, ermonbargli ambroziya.

#### Rossiya Federatsiyasi - (*Moskva*)

Zararkimandalar: amerika oq kapalagi, g'arb gui tripsi, g'arb inak- kajo'xori qo'ng'izi, kaliforniya qalqondori, kartoshka kuyasi, katta qora archa, mo'ylovdori, kichkina qora archa mo'ylovdori, qora barxat-dog'li mo'ylovdor, qora qarag'ay mo'ylovdor. qora xol-xol dogii mo'ylovdor, qora yaltiroq mo'ylovdor, osiyo toq ipak qurti, sibir ipak qurti, tamaki oqqanoti, filloksera, sharq mevaxo'ri, shaftoli mevaxo'ri, Yaponiya cho'psimon qalqondori.

0'siinlik kasalliklari:

**Bakteriyali:** mevali daraxtlar kuydirgisi .

**Virusli:** benivirus nekrotli lavlagi. barg tomirlarining sarg'ayishi, kartoshka tuganagini urchuqsimon viroidi, nepovirus tamakining halqali dogianishi, olxo'rining cho'tir kasalligi, tospovirus nekrotli balzam dog'lanishi.

**Zamburug'li:** kartoshl-ca raki, kungaboqar poyasining kulrang dogii kasalligi, qulupnay va malinaning ildiz chirish kasalligi.

Nematodalar: kartoshka oltinrang nematodasi.

Begona o'tlar: zarpechaklar, ko'p yillik ambroziya, sudraluvchi kakra, tikanli ituzum, uchboiakli ambroziya, uchgulli ituzum, uzuntikanli senxrus, ermonbargli ambroziya.

#### Tajikistan - (*Dushanbe*)

Zararkunandalar: kaliforniya qalqondoii, kapr qo'ng'izi, kolorado qo'ng'izi, komstok qurti, pomidor kuyasi, sitrus oqqanoti.

INI iiuiloiliilii I.iirli>n!)lui olliiraiig nematodasi. ii< )'<11111 o ilm ,MUjK~~4~~'hak,lar, sudraluvchi kakra.

I Mibn iiiuii.rulclu oslatilganidek qon biti (*Eriosoma lanigerum*

11, in .in i kjiliI'orniya qalqondori (*Diaspidiotus perniciosus* Comst) va Ivoiin.ilok qurli (*Pseudococcus comstocki* Kuw.) o'simliklarning ichki karanlin ob'ektlari hisoblanadi. Markaziy Osiyoning urugii meva daraxtlarida komstok qurti oz bo'lsada ba'zan uchrab turadi, Markaziy Osiyoda uchramaydigan tut qalqondori (*Pseudaula caspis pentagona* Tagr.), zaytun soxta qalqondori (*Saissetia oleae* Bern.), yapon buzoqboshi qo'ng'izi (*Aserica japonica* Motsch.), yapon qo'ng'izi (*Popillia japonica* New.) va 0'rtal dengiz meva pashshasi (*Ceratitis capitata* Wied.) urug'li, mevali bog'lar uchun xavfli zararkunandalardir. Tut qalqondori, zaytun soxta qalqondori va yapon buzoqboshi qo'ng'izi, yapon tayoqchasimon qalqondori, yapon kamfora qalqondori, olma pashshasi, Sharq olma qurti, amerika oq kapalagi haqidagi materiallar shu erda bayon etiladi

#### YAPON TAYOQCHASIMON QALQONDORI


(*Leucaspis japonica* Ckll).

Tur — Yapon tayoqchasimon qalqondori - *Leucaspis japonica* Ckll Oila - Qalqondoriar - *Diaspididae* Tnrkum - tengqanotliar - *Homoptera* Tarqalishi. Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Braziiya, Kaliforniyada uchraydi. Vladivostokda, Kavkazning qopa. dengiz sohilidagi Batumi, Kobuleti va Poti tumanlarida tarqalgan joy lari bor.

Zarari. Bu hasharot ko'pgina meva daraxtlariga (olma, behi, nok, danaklı meva daraxtlari, sitrus o'simliklari, xurmo, anjur va boshqalar) hamda manzarali daraxtlar va butalar (magnoliya, siren, atirgul, zarang daraxti, terak va hokazo)ga zarar etkazadi. Yapon tayoqchasimon qalqondori barglarni so'litib to'kib yuboradi, novdaicherni va shoxlarni quritadi, ba'zan esa butun-butun daraxt va butalarni nobud qiladi. Qalqondor tushgan mevalar dog'lari borligi uchun brakka chiqariladi.

Morfalogik beigilari. Urg'ochisining qalqoni cho'ziq bo'lib, bosh tomonidan orqa. tomoniga. qarab sekin-asta kengaya boradi, uzunasiga. ketgan va. och kul rangoq tusli qirrasi bor. Qalqonning uzunligi 1,5-2 mm.

Erkagi maydarоq boiib, bir juft qanoti bor, qornining uchi oikirlangan. Tuxumi juda mayda, och gunafsha tusli.



1-rasm. Yapon tayoqchasimon qalqondori (internet ma'lumoti)

Biologik xususiyatlari. Bu zararkunanda bir joy dan ikkinchi joyga asosan ko'chat bilan, shuningdek meva va xazon bilan tarqaladi. Qalqondor daraxt va butalaming tana va shoxlarida ikki yoshdagi I ichinkalik stadiyasida qishlaydi; sovuqqa juda chidamli. Ko'klamda lichinkalar juda sekin o'sadi, voyaga etgan dastlabki hasharotlar may oxirida chiqadi.

Qalqondoming erkagi urg'ochisidan ikki marta kamroq bo'ladi. Hasharot juftlashraasdan, partenogenez yo'li bilan ko'paya oladi. May oxirida tuxum qo'ya boshlaydi; tuxum qo'yishi deyarli ikki oyga cho'ziladi. Urg'ochi qalqondor umrida 50 tacha tuxum qo'yadi: Bir yoshdagi lichinkalar (brodyajkalar) urg'ochilarining qalqonlari tagidan o'rmalab chiqadi va paydo boigan kunlariyoq barglarga, shoxlarga, daraxt tanasiga va mevalarga yopishib oladi.

Qalqondoriar daraxtlarda zikh koloniylar hosil qiladi. Iyun-avgustda Kavkazning dengiz sohilidan Markaziy Osiyoga zararkunanda o'tish xavfi kattaroq boiib, qalqondoming ikkinchi nasli shu davrda etiladi. Qalqondor yiliga ikki nasi beradi.


. .... inn ... .....lnil < tnlqiiiuloi liuqalgan joylardan daraxt va buta  
I 11 i 11 iii uil > hull] hi iiiqilinhi ulii inetil bromid yoki sianid kislota bilan \ nqiim  
11 / Ini i( Irl 1111 il lo/Jiu,

#### **YAPON KAMFORA QALQONDORI** (*Pseiidcionidia duplex SMI*).

**Tur — yapon kamfora qalqondori - *Leucaspis japonica Ckll Oila -***  
**Qalqondorlar - *Diaspididae Turkum - tengqanotlikr - Homoptera***

Tarqalishi. Hind iston. Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlarining janubiy qismlarida va Gavayya orollarida uchraydi.

**Zarari.** Ko'pgina daraxt va butalarga, jumladan olma, nok, sitrus o'simliklari, yong'oq, yapon xiu'mosi, anjir, kamfora va zaytun daraxtlariga, choy tupi, shuningdek tokka zarar etkazadi. Qalqondorlar daraxtlaraing shirasini soiib, quvvatdan ketkizadi, ularni tuzuk o'stirmay, shoxlarini quritib qo'yadi, ba'zan esa butun-butun daraxt va butalami nobud qiladi.



**2-rasm.** Yapon kamfora qalqondori(internet ma'lumoti)

Morfalogik belgilari. Qalqoni yumaloq, to'q qo'ng'ir yoki har xil rangda tovlanuvchi jigar rang tusda bo'ladi. Pigidiysi to'rt juft bo'lakchali,

shu jumladan so'nggi jufti avvalgi juftlariga qaraganda kaltaroq bo'ladi. Voyaga etgan urg'ochi hasharotlarning qalqoni 2,7 mm gacha boradi,

**Biologik xususiyatlari.** Zararkunanda yangi joylarga asosan daraxt. va butalaming ko'chatlari orqali o'tadi. Qalqondor o'simliklarning shoxlarida, tanalarida, barg va mevalarida koloniyalar hosil qiladi; bu hasharotning rivojlanishi uchun eng qulay harorat 27-300. Urg'ochi hasharot qalqonlari ostiga kamida 125 ta tuxum qo'yadi.

Tuxumdan lichinka chiqadi. Ular qalqonlar ostidan o'rmalab ciliqib. daraxtlaming shoxlariga tarqaladi, tez orada substratga yopishib oladi va harakatlanmaydigan bo'mib qoladi. Zararkunanda hozir tarqalgan joyiaiida yiliga ikkitadan to'rttagacha nasi beradi. Kurash choralar. Asosiy kurash chorasi shuki, erta ko'klamda (kurtaklar bo'rtguncha) daraxt va butalarga

10 % li mineral moy emulsiyasi purkaladi. Bu dori mahalliy qalqondorlarni ham o'ldiradi. Asosiy kai'antin chorasi ko'chatlami metil bromid yoki sianid kislota. bilan yuqumsizlantirishdir.

#### **OLMA PASHSHASI (*Rhagoletis pomonella walsh*).**


**Tur — Olma Pashshasi - *Rhagoletis pomonella walsh* Oila -**

**Chipor qanotlilar -*Tephritidae* Turkum - ikki qanotlilar ~**

***Diptera* Tarqalishi.** Kanadada va AQSH da uchraydi.

**Zarari.** Pashsha lichinkalari mevaga zarar etkazib, uning sirtida po'stloqsimon qo'ng'ir yo'l va dog'chalami hosil qiladi. Zararkunanda tushgan olma aksari pishmasdan to'ldilib ketadi yoki pishgan taqdirda chirib ketadi. Bu hasharot olmadan tashqari do'lanaga ham zarar etkazadi.

**Morfaiogik belgilari.** Pashshaning uzunligi 5 mm, tanasi qomining 2- 5 tergitlarida oq, jiyagi bor, qalqoni oq, asosi va chetlari qopa, orqasining chetlarida elka do'mboqchalaridan tortib qanotlarining asosigacha oq chiziqlar bor, mo'ylovlar sariq, oyoq boldirlari och sariq, sonlari o'tib, uchi oqimtir bo'ladi. Urg'ochilarining qorin uchida xitinli tuxumdoni bor. Qanotlarda noto'g'ri shaklli to'rtta qoramtil yo'llari bor.



3-rasm. Olma pashshasi va olmadagi zarari (internet ma'lumoti)

Tuxumi oval shaklda, bandli, och sargish boiib, uzunligi taxminan

0, 8 mm. Lichinkasining uzunligi 10 mm gacha boradi, oldingi uchi oikirlangan va orqaga qarab sekin-asta qalin tortadi. T'anasing orqa uchi kesilganday tik tushgan, chetlarida etli doinboqchalari bor. Orqadagi stigmalarida uchtdan nafas teshigi bor, shu jumladan ikkitasi birbiriga deyarli parallel holatda joylashgan. Oldingi stigmalari 13 boiakchali boiadi. Soxta pillasining old va orqa uchlari oitasiga nisbatan torroq, tusi jigar rang boiadi.

**Biologik xususiyatlari.** Pashsha o'zi yashaydigan mamlakatlardan yangi joylarga asosan meva va ildiz oldidagi tuproq bilan oiadi. Zararkunanda olma daraxtlari ostidagi tuproqning yuza qavatlarida g'umbaklik stadiyasida. qishlaydi. Voyaga etgan pashshalar yoz boshlarida paydo boiadi, tuxum qo'yish davri 2-3 haftaga clio'zilib ketadi. Tuxumini meva po'stining ostiga. kittadan qo'yadi, shu bilan birga urg'ochi pashsha mevaning soya tomonini tanlab oladi. Urg'ochi pashsha o'rta hisob bilan 400 ta tuxum qo'yadi.

Tuxumdan 3-10 kunda lichinka chiqadi. T'uxumdan chiqqan lichinkalar mevani eb yoi ochadi, lichinkalaming rivojlanishi 12-30 kun davom etadi. Oziqlanishini tamomlagan lichinkalar mevadan chiqib erga tushadi va tuproqning yuza qatlamiga kirib, soxta pillaga aylanadi. Olma pashshasi janubroqdagi joylarda. yiliga ikki nasi beradi: birinchi nasli

ertagi olma navlariga, ikkinchi nasi kech'ki olma navlariga zarar etkazadi. Kanadada olma pashshasi yiliga faqat bitta nasi beradi. Olma pashshasining ba'zi g'umbaklari 300 kungacha davom etadigan diapauzaga kiradi.

#### TUT QALQONDORI


*Rseundavlacaspis pentadona* Targ

Turkura - tengqanotilar - **Hemoptera** OiSa -Qalqondorlar -

**Diaspididae**

Tur- Tut qalqondori - **Rseunda idacaspis pentadona** Targ. Tarqalishi. Tut qalqondori dimyoning hamma joylarida uchraydi. MDH da .1933 yiida Suxumi shahrida yapon olxo'risida hisobga olingan.

Zarari. tut qalqondori, tut, shaftoli, gilos va boshqa mevalami zararlaydi.Tut va mevali daraxtlarni toiiq qurib qolishiga olib keladi



5-rasin. Tut qalqondori, tutdagi qalqon.lar(internet ma'lumoti)

Morfologik belgilari. Qalqoni dumaloq formada, oq yoki sargish rangda, uzunligi 1,5-2 mm. Urg'oc,hilar tanasi qisqa, ovalsimon, sargish pushti rangda. Erkagini qalqoni uzunlashgan, oq, egatchalari bor.

Lichinkalari och pushti rangda, novdalar, shoxchalarda oq koloniyalami hosil qiladi. Keyinroq qanoti erkak imagolar paydo bo‘ladi.

**Biologik xususiyatlari.** Tut qalqondorining jinsiy etilmagan urg‘ochilar, nimfa davridagi erkaklari qishlab chiqadi. bnagolarni uchishi va otalanishi mart o‘rtasida boshlanadi. Mart oxiri va aprel boshlarida koloniyalarda etuk urg‘ochilar paydo bo‘ladi. Aprel oyи o‘rtalarida tuxum qo‘yishni boshlaydi.

Tut qalqondori ekish materiallari orqali tarqaladi.

Karantin ostidagi materiallarni tekshirish va ekspertiza qilish; zararsizlantirish, zararkunanda o‘choqlarini yo‘q qilish va boshqa tadbirlar.

Kurash choralar. Tut qalqondoriga qarshi biologik kurash samaraliroq bo‘lib hisoblanadi.

MDH ga birinchi marta Italiyadan 1947 yilda tut qalqondorini ixtisoslashgan paraziti — Prospalyella herleseihow(Aphelinidae, Chalcidodea) keltirilgan. Batumida bu parazit ko‘paytirilgan va muvaffaqiyatli qo’llanilgan.

Parazit ikki mavsiun davomida 90-98 % gacha zararkunandani zararlagan. Ikkinci marta bu parazit Suxumida qo‘llanilgan. Parazit orqali zararkunanda o‘choqlari yo‘qotilgan. Shundan keyin bu zararkunanda xo‘jalik ahamiyatini yo‘qotgan.

#### **YAPON MUM SOXTA QALQONDORI**

*Ceroplastes japonicas* Green

**Tur - Yapon mum soxta qalqondori - *Ceroplastes japonicas* Creen.**


**Oila - soxta qalqondorlar - *Cocchlae***

**T urkum - tengqanotlilar - *Homoptera***

**Tarqalishi.** Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. MDHda zararkunanda o‘choqlari onda-sonda aniqlangan.

**Zararli.** sitrus ekinlari, lavr, olma va boshqa o’simliklami. Zararkunanda tarqalgan areallarda chegaralovchi faktorlar ta’sir

qilmasdati, ularning soni juda oshib ketadi. Katta koloniya hosil qilib novdalarni, barglami zararlaydi, natijada o'simlik kuchsiz bo'lib qolib va zararlangan joylar quriydi. Zararlangan joylarda soxta qalqondorlar chiqargan chiqindilarda qora dog'lar chiqargan chiqindilarda qora g'ubor qoplanadi, bular kannodium (Sannodium) zamburug'larining mitseliylaridir.



**rasm-6.** Yapon mum soxta qalqondori — *Ceroplastes japonicus* Creen. (internetama'Lumoti)

Morfologik **belgilari.** Etulc urg'ochilar 1,75-4,2 mm uzunlikda, ovalsimon formada, belining ustki tomoni do'mboq. Tanasini ustki qoplami bu turning boshqa avlodlariga o'xshab, qalin mum qavat bilan qoplangan.

Kichik urg'ochilar tanasi mum qoplami 8 ta o'tkir tugallangan plastinkalardan iborat.

Tirik urg'ochilardagi mum qatlaming rangi nim pushti rangda, och pushti rangda.

Qorin qoplami pastida oyoqlari va 7 bo'g'imli mo'yovlari bor.

Biologik **xususiyatlari.** Yapon soxta mum qalqondorining urugMangan urg'ochilari qishlab chiqadi. May o'rtala.rida urg'ochilar tuxum qo'yishni boshlaydi. Yoz o'rtalarida lichinkalar paydo bo'ladi. Ular 3 marta po'st tashlaydi, asta-sekin katgalashadi va etuk hasharotga aylanadi.

Urg‘ochilar 2500 tagacha tuxum qo‘yadi, (0.5 mm gacha). CHiqqan lichinka daydilari oyoqli va mo‘ylovli boiadi. O‘simlikka yopishgan lichinkalar harakatsiz va oq yulduzchaga o‘xshaydi. Lichinka tanasi qzil, 8-10 ta oq konussimon mumsimon plastinkali.

Yapon soxta mum qalqondori yiliga 1 ta avlod beradi.

Zararkunanda ko‘chatlar, qalamchalar va boshqa organlari orqali tarqaladi.

**Karantin tadbirlar.** Karantin ostidagi materiallami tekshirish va ekspertiza qilish.

Zararkunanda o‘choqlarini yo‘q qilish. Ekish materiallari keltirilayotganda zararsizlantirish. Introduksion-karantin pitomniklarda ekish materiallarini tekshirish,

**Kurash choraları.** Ularga qarshi preparat №30, №30s preparatlarini ishlatish. Paydo boigan lichinkalarga qarshi iyul boshidan oxirigacha preparatlami qoilash.

Biologik kurashda unyng samarapi paraziti *Scutillista cyanea* Motsch ni qoilash yaxshi samara berishi oiganilgan.

#### **ANJIR SOXTA MUM QALQONDORI *Ceroplastes rusci* L**

**Tur - Anjir soxta mum qalqondori - *Ceroplastes rusci* L.**

**Oila - Soxta qalqondorlar - *CoccMae***

**Turkum - tengqanoffilar - *Homoptera***


**Taqaiishi.** Bu qalqondor Albaniya, Gretsya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Fransiya, Yugoslaviya, Isroil, lordaniya, Iraq, Eron, Livan, Suriya, Turkiya, Yaponiya, Jazoir, Misr, Marokash, Argentina, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlarda tarqalgan.

MDH da ro‘yxatga olinmagan. Lekin subtropik ekinlar ekiladigan rayonlarda-Kavkaz orti, Qora dengiz sohillarida, Ozarbayjon, O‘rta Osiyo muhitiga moslashib (akklimatizatsiya) zarar etkazishi mumkin.

**Zararli.** Anjir, uzum, tut, mandarin, apelsin, behi, shaftoli va boshqalar. Lichinlculari va etuklari katta-katta koloniyalarni hosil qilib, o‘simlikni so‘riydi va natijada uning qurishiga sabab boiadi.

**Morfologik beigilari.** Bu qalqondor urg'ochisi yapon soxta mum qalqondori urg'ochisiga o'xshaydi. Bu urg'ochilar mum qatlamini yuqoridagi katga plastinkasidan farqlanadi.

Tuxumi qizil rangda, uzunligi 0,5-0,6 mm. Lichinkaiar oq yulduzchalamini eslatadi. Yapon soxta mum qalqondori lichinkasidan bu zararkunanda lichinkasi, mum qatلامи о'рта plastinkasida 2 ta ko'ndalang izi bilan farq qiladi.



rasm-7. Anjir soxta mum qalqondori - Ceroplasma rusci L.

(internet ma'lumoti)

Anjir soxta mum qalqondorining etuk urg'ochilar qishlab chiqadi. Italiyada, Suriyada 1 yilda 2 ta avlod beradi. Urg'ochilar 1000-1500 ta.tuxum qo'yadi. Aprel oxiri may boshlarida. lichinkaiar chiqadi, lichinkaiar o'simlikdan oziqlanishni boshlagandan keyin 2-3 oy rivojlanadi. Ular tuxumdan chiqqandan keyin shoxlardan yopishishga joy qoldiradi, ular odatda barglarni ustki qismiga va tomirlariga yopishadi. Qishlovga ketgan urg'ochilar noldan past haroratga ham chidamli bo'ladi.

Anjir soxta mum qalqondori rivojlanishining hamma bosqichlarida ko'chatlar, qalanlchalar orqali tarqaladi.

**Karantin tadbirlari.** Ko'chatlar va ekish materiallarini (qalamchalar va boshqalar) tekshirish hamda ekspertiza qilish; zararkunanda tarqalgan joylardan ekish materialari keltirish taqiqulanadi; Brommetil bilan zararsizlantirish va introduksion-karantin pitomniklarda tekshirish.

## YAPON QO'NG'IZI

*Popilliajaponica* Newn Tur - Yapon qo'ng'izi—


*Popilliajaponica* Newn Oiia - Plastinka mo<sup>4</sup>y!ovli

qoigizlar - *Scarabeidae* Turkum - qattiqqanotlilar -

*Coleoptera*

**Tarqalishi** Yapon qo'ng'izi Xitoy, Koreya yarim oroli, Yaponiya, Kanada, AQSH da tarqalgan.AQSH da karantin ob'ekt hisoblanadi. MDH da yagona Kunashir orolida uchraydi.Boshqa davlatlardan yoki Kunashir orolidan o'tib, MDH ning Kavkaz, O'rta Osiyo, Primore o'lkasiga. Ukrainaga va Evropaning janubiy rayonlari iqlimiga moslashish va zarar etkazishi mumkin.

**Zarari.** 300 turdan ortiq mevali, sabzavot va poliz, o'ixnon va dekorativ daraxt va butalarini, gazon o'tlarini zararlaydi.Etuk qo'ng'izlar mevalami, gullami, barglamni zararlaydi; lichinkalari ildizni kemiradi.



**8-rasni.** Yapon qo'ng'izi—*Popilliajaponica* Newn  
(internet ma'lumoti)

**Morfologik belgi!ari.Imagosи** tanasining uzunligi **7-11** mm, eni **4-7** mm, qanot usti missimon jigar rangda. Qanotining chetlari va o'rtasi

yashil. Qornining qanot ustligi bilan yopilmagan qismida 5 tadan yonidagi va 2 ta ortki oq tuk bilan qoplangan dogiari bor. Mo'ylovleri 9 bo'g'imli, oyoqlari yashil. Erkapslarining bilagidagi 2 ta tishchasi o'tkirlashgan va qisqargan holda. Panjalaridagi 4 ta barmog'i bir xil. Urg'ochilarini panjalaridagi tishchalari orqaga kuchli egilgan. Panjasining birincli bo'g'ini qolgan 3 ta bo'g'inlaridan uzunroq.

Tuxumi ellipssimon formada, qalaysimon tovlanuvchi, 1 mm diametrda.

Lichinkasi. YAngi paydo boigan lichinkaning uzunligi 1,5 mm bo'lsa, katta yoshdagilari 25 mm gacha etadi. Lichinkaning sistematik belgisi-qornining anal segmenti tomonida V raqamiga o'xshagan belgisi bor.

G'umbagi och-jigar rangda, uzunligi 14 mm gacha, beshikchada boiadi.

Biologik xususiyatiari. 2-3 yoshli lichinkalar tuproqning ichki qatlamida qishlab chiqadi. Kuzda ular erving 20-40 sm chuqurligga kirib oziqlanishdan to'xtaydi, bahorda tuproqning yuza qismiga koiarilib o'siniliklarni ildizi bilan oziqlanishini davom ettiradi. Oziqlanib boigandan so'ng lichinkalar «beshikchalar» yasaydi va uning ichida g'umbakka aylanadi. 10-20 kundan keyin giimbagini rivojlanishi to'xtaydi, g'umbak qobig'i yorilib qo'ng'iz paydo boiadi, lekin ko'ng'iz bir necha kun beshikchaning ichida qoladi.

Kunashir orolida qo'ng'izlarning uchishi iyul oyining oxirida boshlanadi. AQSH da avgust-sentyabr oylarida uchadi. Kunashir oroli va AQSH da 1 yilda bitta avlod beradi, Yaponianing Xokkaydo oroiida yapon qo'ngizining toiiq rivojlanishi uchun 2 yil vaqt o'tadi.

Karantnn tadbirlar. Zararkunanda tarqalgan mamlakatlardan ildizli meva o'simliklarini tuproqi bilan keltirish taqiqlanadi. Karantin ostidagi tekshirish va ekspertiza qilish; Respublikamizga ko'chatlarni ildiz tuproqlarisiz, ilmiy maqsadlarda keltirish mumkin.

## NOK PARV ONASI

*Numonia pyrivorella*

**Tur-** Nok parvonasi —*Numonia pyrivorella*

**Oila - Parvonalar - Pyralidae**

**Turkum - tanga qanotlilar - Lepidoptera**

**Tarqalishi.** Xitoy, Yaponiya, Koreya yarim oroli, MDH da chegaralangan holda tarqalgan.

**Zarari.** Nok o'simligini zararlaydi. Qurtlari kurtaklarni, gullari, tuguncha va mevasini zararlaydi. Koreya yarim oroli va Xitoyda nok parvonasi 90 % gacha nok hosiliga zarar etkazgan.

**Morfologik belgilari.** Kapalagi kulrang, binafsharang nuqqalari bor, qanotlarini yozganda 14,5-21,5 mm gacha. Tanasining uzunligi 12 mm, Old qanotlaryda ikkita ko'ndalang chizig'i bor. Qanot asosidagi chiziq sezilmas, deyarii qora rangda. Buyraksimon qora dog'i qanot asosiga egilib joylashgan. Orqa qanotlari sarg'ish kulrang. Qornining oxirgi qismida popuksimon tukchalar bor. Erkaklarida yaxshi bilimb turaai. Urg'ochilarida esa kuchsiz. Oyoqlari tangachalar va uzunchoq tukchalar bilan qoplangan.

**Tuxumi** ellipssimon tuzilishda. Yangi qo'yilgan tuxumlar sariq rangda, keyinchalik qizil ranggakiradi.

**Qurti:** tuxumdan chiqqanlari nimpushti rangda, boshi qora, belining oldingi qismi qoramtil-qo'ng'ir rangda. Katta yoshdagi qurtlarning bel tomoni to'q yashil rangda, qorin qismi sarg'ish, oyoqlari jigar rangda. Katta yoshdagi qurtning uzunligi 12 mm gacha.


**G'umbagi** oxiriga qarab qisqargan, sarg'ish-jigarrangda, kremastelarida oltita ingichka ilgakchaları bor.

**Biologik xususiyatlari.** Ikkinci yoshdagi lichinkaiar gul kurtaklarida engil oq pillada qishlab chiqadi.

Bahorda qurtlar shonalar, gullar, novdalar va mevalarga o'gadi. Mevani o'rtasigacha eb boradi. Zararlangan mevalar qorayadi, so'liydi, lekin to'kilmaydi. Kelasi yilgacha daraxtda saqlanib qoladi. Qurtlar mebalarda rivojlanishini tugatib, g'umbaklanadi. Tezda imagolar paydo bo'ladi, bu payt avgust sentyabr oylariga to'g'ri keladi.

Birinchi avlod kapalaklari kurtaklarga tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar lcurtaklar ichiga kiradi va shu erda qishlaydi. Qishga tayyorlanmagan lichinkalar o'lib ketadi.

Zararlangan mevalar, ko'chatlar, qishlovchi lichinkalar qamda kapaiaklarini uchishi orqali tarqalady.



9-rasm. Nok parvonasi — Numonia pyrivorella (internet ma'lumoti)

**Karantin tadbirlar.** Karantin ostidagi materiallami tekshirish va ekspertiza qilish; Zararkunanda tarqalib zarar etkazgan joylardan tarqalmagan joylarga nok ko'chatlari va qalamchalarini keltirish taqiqilanadi. Ilmiy maqsadlarda keltirilgan ko'chatlar rengenoekspertizadan o'tkazilib, zararsizlantirilib introduksion-karantin pitomniklarda tekshirish. Zararsizlantirish va boshqalar Sharq meva qurtiga qarshi o'tkaziladigan tadbirlarga o'xshash bo'ladi.

**7- BOB. O'SIMLIKlar KARANTINI BO'YICHA DAVLAT  
XIZMATINI O'Rnatish VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI.  
KARANTIN OSTIDAGI MATERIALLAR VA OZBEKISTON  
RESPUBLIKASIGA KIRIB KELAYOTGAN TRANSPORT  
VOSITALARINING FITOSANITAR NAZORATIDAN O'TKAZISH  
TARTIBI, TRANZIT TARTIBI.**

Tumanlar, shaharlar, viloyatlami o'simliklar karantini bo'yicha nosog Mom deb e'lon qilish va ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlari tavsyanomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsyanomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Karantin o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng karantin e'lon qilingan xo'jaliklardan urug' va ko'chatlami karantin sertifikatlarisiz karantindagi zararkunandalardan, o'simlik kasalliklaridan va begona o'tlardan xoli bo'lgan boshqa xo'jaliklarga sepish va ekish maqsadida olib ehiqish man etiladi.

Karantin o'matilgan hududlardan karantin sertifikatlarisiz olib chiqib ketilgan urug'lар, o'simliklar va o'simlik mahsulotlari olib qo'yiladi hamda texnikaviy (sanoat yo'li bilan) qayta ishslash yoki umumiy ovqatlanish korxonalarida foydalanish uchun tayyorlov tashkilotlariga beriladi, zarur hollarda esa zararsizlantiriladi, jo'natuvchiga qaytarib yuboriladi yoki yo'q qilib tashlanadi.

Karantin o'matilgan hududdagi (aholi punkti, turn an, viloyat) tomorqa uchastkalaridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari orqaligina olib chiqib ketishga yo'l qo'yiladi, zararlangan mahsulotlar bundan mustasno (ulardan qay tarzda va qanday shartlarda foydalanishni o'simliklar karantini davlat inspektori karantin qoidalariga muvofiq belgilaydi).

Hududda o'matilgan karantin yoki cheklash belgilangan karantin tadbirdari o'tkazib boiunganidan hamda karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar o'choqlari batamom yo'q qilinganidan keyingina o'simliklar karantini bo'yicha tegishli bosh davlat inspektorlarining tavsyanomasiga binoan karantin yoki cheklashlarni

o‘matgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahar hokimlari qarori bilan yoki O‘zbekiston Respublikasi O‘simgiliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

#### **7.1. O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan karantin nazoratidagi materiallar va transport vositalarini fitosanitar nazoratidan o‘tkazish tartibi.**

Respublika hududiga olib kirilayotgan karantin nazoratidagi materiallar va transport vositalarini fitosanitar nazoratidan oikazish chegaradan o‘tish joylarida tashkil etilgan o‘simgiliklar karantini chegara punktlari tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika hududiga olib kirilayotgan karantin nazoratidagi materiallami fitosanitar nazoratidan o‘tkazish o‘simgiliklar karantini chegara punktlari tomonidan yuklarini tushirishga qadar shuningdek, tushirish va ortish jarayonida amalga oshiriladi.

O‘simgiliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati inspektorlari boshqa mamlakatlardan respublikamizga kemalar, poezdlar, samolyotlar va avtotransportlari orqali olib kirilayotgan karantin nazoratidagi materiallami hamda pochta jo‘natmalarini qabul qilib olishda bevosita ishtirok etadilar.

Transport yoki yukning yuzasida karantin ostidagi materiallar yo‘q bois, o‘simgilik materiallarining fitosanitar holatini aniqlash uchun o‘simgiliklar karantini chegara punkti davlat inspektori yuk partiyalaridan belgilangan tartibda namunalarni tanlab oladi va ekspertizadan o‘tkaziladi.

Yuk va transport vositalarida karantin ostidagi materiallar borligi aniqlansa, tasdiqlash uchun karantin laboratoriyasiga yuboriladi. Aniqlangan karantin ostidagi materiallar belgilangan tartibda zararsizlantirilishi yoki yuk jo‘natuvchiga qaytarib yuborilishi lozim.

O‘zbekistonning chegara punktiga etib kelgan yoiovchilar, kema komandalarining a’zolari, samolyot, poezd brigadalari va avtotransport ekipajlari bojxona deklaratsiyasini todirish vaqtida qo‘l yuki yoki bagaj(yuk xona)da urugTiklar, o‘simgiliklar, o‘simgilik mahsulotlari va boshqa o‘simgilik materiallari boryo‘qligini ko‘rsatishlari va agar mavjud bois, ulami fitosanitar nazoratidan oikazishlari shart.

Vagonlar, tryumlar, avtomashinalar, konteynerlar va yuk qo'yiladigan ayrim joylarni (yuk xonani) olib ko'rish o'simliklar karantini chegara punkti davlat inspektori talabiga binoan transport tashkilotlarining vakillari, haydovchilar yoki bagaj(yuk xona) egalari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Boshqa mamlakatlardan kelgan transport vositalari yuk va bagajdan bo'shatilganidan keyin chegara punktlari transport tashkilotlari tomonidan, yuk olib borish mo'ljal qilingan joyda esa yukni qabul qilib oluvchi tomonidan orasta qilib tozalanishi lozim.

Karantin ob'ekti borligi aniqlansa yoki borligi gumon qilinsa o'simliklar karantini davlat inspektori kemalarni fumigatsiyaga, vagonlar va transport vositalarini esa, yuvish dezinfeksiya stansiyalariga jo'natish to'g'risida ko'rsatma beradi.

O'zbekiston va chet el transport vositalaridagi karantin ob'ekti yoki boshqa xavfli zararkunandalar bilan zararlangan oziq-ovqat zahiralari davlat inspektorining ko'rsatmalariga binoan zararsizlantirilishi yoki transport vositalari to'liq zararsizlantirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'llishi vaqtida omborxonalarda so'rg'ichlab tamg'a bosib qo'yilishi lozim.

Ikkinchisi marta fitosanitar nazoratidan o'tkazilganidan keyin va laboratoriya ekspertizasi uchun zaruriyat bo'lmasa karantin nazoratidagi materiallar kelib tushgan joydagi o'simliklar karantini mahalliy davlat inspeksiyasi tomonidan mazkur mahsulotdan foydalanish shartlari to'g'risida xulosa chiqariladi va ijro etilishi zarur bo'lgan fitosanitar tadbirlar belgilanadi.

Karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar bilan zararlangan karantin ostidagi materiallarga nisbatan zararsizlantirish va tozalashning samarali tadbirlarini qo'llashning imkonini bo'lmasa ular belgilangan tartibda ekspoityorga qaytarilishi yoki yo'q qilinishi lozim.

Urag'liklar va ko'chatlar solingen posilkalar va banderollar O'zbekistonga etib kelganidan keyin fitosanitar nazorati va ekspertizasidan o'tkazilishi lozim. Chegara punktining inspektori tomonidan posilkalar va banderollar ko'zdan kechirilganida ularda karantin ob'ekti borligi gumon qilinsa ular ekspertizadan o'tkazish uchun karantin laboratoriyasiga topshiriladi.

Diplomatik va tashqi savdo tashkilotlarinig nomiga kelib tushgan karantin nazoratidagi materiallarning tovar namunalari umumiy asoslarda fitosanitar nazorati va ekspertizadan o'tkazilishi lozim.

## **7.2. Diplomatik, konsullik, savdo vakolatxonalari va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar tomonidan karantin nazoratidagi materiallarui olib kirishning karantin tartibi**

Diplomatik, konsullik, davlat savdo vakillari hamda O'zbekiston hududida joylashgan xalqaro tashkilotlaming vakillari shuningdek, imtiyozlar va imunitetlardan foydalanuvchi shaxslar davlat chegarasidan o'tish vaqtida o'simliklar karantini chegara punktining davlat inspektori ularga O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lган o'simliklar karantiniga doir qonun hujjatiarini hamda karantin nazoratidagi materialami fitosanitar nazoratidan o'tkazilishini tushuntiradi.

Diplomatik, konsullik, savdo vakolatxonalari va O'zbekiston hududida joylashgan xalqaro hukumatlararo tashkilotlari uchun yuborilgan karantin nazoratidagi yuklar, yuk egasi yoki uning vakili va yuk kelib tushgan joydagи bojxona organi xodimi nazoratida ekspertiza uchun namunalar olgan holda, fitosanitar nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur yuklarga ularni jooiatgan mamlakatning karantin xizmati tomonidan berilgan fitosanitar sertifikati ilova qilingan bo'lishi lozim.

Karantin ob'ektlari mavjud degan shubha tug'ilsa, yuk ekspertiza uchun karantin laboratoriyasiga topshiriladi, basharti, karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar mavjudligi aniqlansa, ularni zararsizlantirish yoki yuk jo'natuvchiga qaytarib yuborilishi lozim.

Bu haqida alohida dalolatnoma tuzilib, o'simliklar karantini bo'yicha davlat isnpektori manfaatdor taraflarga maium qiladi.

Chet davlatlaming elchixonalari, missiyalari yoki ayrim diplomatik va savdo vakolatxonalari nomiga kelib tushgan urugii, dukkanakli va sitrus o'simlidamni fitosanitar nazoratidan o'tkazilib, donalab tozalangan, shuningdek laboratoriya ekspertizasidan o'tkazilgandan keyin sof mevalari, basharti, karantin ostidagi materiallar mavjud boimasa, zararsizlantirilmagan holda olib kirilishi va ulardan oziq-ovqat sifatida foydalanishga yoi qo'yish mumkin.

### **7.3. Karantin nazoratidagi materiallar tranzitining karantin tartibi**

Karantin nazoratidagi materiallar O‘zbekiston Respublikasi hududidan yopiq yoki izotermik, tashishga yaroqli va plombalangan vagonlarda, avtofurgonlarda, avtorefrejerator yoki konteynerlarda hamda “Bojxona tranzit rejimi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 23 dekabrda 577-raqam bilan ro‘yxatga olingan) talablarini inobatga olgan holda tranzit tarzida tashib o‘tiladi.

Ushbu qoidalar buzilgan taqdirda tranzit tarzida o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston hududida tranzit tarzda olib o‘tiladigan karantin nazoratidagi materiallar O‘zbekiston chegara punktlarida fitosanitar nazoratidan o‘tkazilishi lozim.

Karantin nazoratidagi materiallarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan tranzit tarzida olib o‘tish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

urug‘liklar, ko‘chatlar, mevalar, sabzavotlar, vog‘oeh materiallari karantin nazoratidagi boshqa mahsulotlarning tovar partiyalari Inspeksiya tomonidan tranzit uchun beriladigan ruxsatnomalarda belgilanadigan shartlar asosida;

(tranzit yuklariga eksportyor mamlakatning fitosanitar sertifikati ilova qilingan bo‘ishi lozim);

Pochta orqali, yo‘lovchilarning bagaj(yuk xona) va qo‘l yuk ichida keltirilgan umgliklar, yangi mevalar, sabzavotlar va karantin nazoratidagi boshqa mahsulotlar-o‘simliklar karantini bo‘yicha chegara punkti davlat inspektorinlnq fitosanitar nazoratidan o‘tkazilganidan keyin olib kirishga ruxsat etiladi.

### **7.4. Karantin ostidagi materiallar va ular bilan zararlangan transport vositalarni zararsizlantirish va tozalash tartibi**

Karantin ostidagi materiallar va boshqa xavfli o‘simgilic zararkunandalari bilan zararlangan barcha import yuklar O‘zelciston Respublikasiga olib kirilishi vaqtida chegara punktlarida zararsizlantirilishi, qaytarib yuborilishi yoxud yo‘q qilinishi va bu haqda alohida dalolatnomalar rasmiylashtirilib, manfaatdor taraflarga ma’lum qilinishi lozim.

Karantin ostidagi materiallar tashib bo‘linganidan keyin barcha turdag'i transport vositalari albatta tozalanishi hamda belgilangan tartibda zararsizlantirilishi lozim.

Transport vositalarini chegara punktida yoki realizatsiya punktida karantin ostidagi materillardan zararsizlantirish zaniriyati o‘simgliklar karantini davlat inspektori tomonidan aniqlanadi. YUK qabul qilib oluvchilar yoki transport tashkilotlari inspektoming ko‘rsatmasi asosida o‘simgliklar karantini bo‘yicha tegishli davlat mspekiyalarining maxsus fumigatsiya otryadlariga zararsizlantirish tadbirlari o‘tkazish to‘g‘risida talabnomha beradilar.

Fumigatsiya kameralari, shtabellar, kemalarning tryumlari va bagaj(yuk xona)larida, vagonlar va konteynerlarda hamda traosportning boshqa turlarida karantin ostidagi materiallar va o‘ta xavfli zararkunandalar bilan zararlangan material (tovar yuk)larni zararsizlantirish bo‘yicha ishlar chegara punktlarida o‘simgliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatining maxsus fumigatsiya otryadlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kemalar va barjalar, vagonlar, konteynerlar, avtotransport va yuklarmi zararsizlantirish bo‘yicha ishlami olib borish uchun transport tashkilotlari va yuk qabul qilib oluvchilar tomonidan zararsizlantirish texnologiyasi va texnika xavfsizligi talablariga javob beradigan maxsus jihozlangan bandargoxlar, maydonlar va binolar ajratiladi. Transport vositalari va yuklarmi fumigatsiya, hamda degazatsiyaga tayyorlash bo‘yicha ishlar fumigatsiya otryadlari mutaxassislarining rahbarligi ostida transport tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Karantin nazoratidagi materiallar chet ellardan zararsizlantirilgan holda jo‘natilganda ular O‘zbekiston Respublikasi chegara punktlarida fumigatsiya otryadlari tomonidan to‘g‘ri degazatsiya qilinganligi tekshiriladi.

Sitrus o‘simgliklari mevalarini refrejeratsiya qilish va ulami muzlatgich kameralarda zararsizlantirish o‘simlidar karantini davlat inspektori nazorati ostida yukni qabul qilib oluvchilar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Zararlangan karantin ostidagi materiallami degazatsiya, fumigatsiya, refrejeratsiya qilish yoki boshqa usullarda zararsizlantish (tozalash, qaytarib yuborish yoki boshqa manzilga jo‘natish, yo‘q qilib yuborish),

yuklarni, bagaj(yuk xona)larni posikalarni ochish yoki o'ramlash, ularni zararsizlantirish joylarga olib borish va u erdan qaytarib olib kelish bilan bog'liq xarajatlar yukni qabul qilib oluvchi hisobidan qoplanadi.

#### **7.5. Karantin nazoratidagi import va tranzit materiallarga doir hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi**

Import materiallarga karantin ruxsatnomasini olish uchun import qilayotgan tashkilotlar kontrdalolatnama tuzishga kamida 30 kun qolganida O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantin bosh davlat inspeksiyasiga ariza berishlari lozim.

Arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

O'zbekiston Respublikasiga olib kirish yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o'tish mo'ljalangan karantin nazoratidagi materiallarning nomi va miqdori (har biri turi bo'yicha alohida);

materiallar jo'natiladigan va ulardan foydalaniladigan joy (manzil, tranzit tarzidagi yuklar uchun esa yo'nalish va jo'natilayotgan mamlakat);

tranzit tarzidagi karantin nazoratidagi import materiallarni olish mojal qilinayotgan mamlakat, shuningdek mazkur materiallar etishtirilgan mamlakat nomi;

karantin nazoratidagi materiallar etib kelishining yoki tranzit tarzida tashib o'tilishi mo'ljal qilinayotgan muddatlari;

mazkur yuklar olib kiriladigan va chiqib ketiladigan O'zbekiston Respublikasidagi chegara punktining (port, bandargoh, temir yo'l stansiyasi, aeroprot, avtostansiya va shu kabilar) nomi.

Karantin nazoratidagi import materiallar uchun ruxsatnomalar berish so'rallagan arizada importyor o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspeksiysi tomonidan belgilangan karantin shartlari va tadbiriarini o'z hisobidan va o'z kuchi bilan bajarishini ta'minlash kafolatini zimmasiga olishi shart.

Karantin nazoratidagi materiallarni olib kelish to'g'risida birinchi marotaba ariza berilganda arizaga faoliyatining ushbu turi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat ko'rsatilgan holda ro'yxatga olinganlik haqidagi guvohnoma nusxasi ilova qilinadi.

Pochta jo'natmalarida yo'lovchilarining yoki kemalar, samolyotlar ekipajlarining a'zolari yoxud poezd brigadasi a'zolarining bagajda, qo'l yukida O'zbekistonga olib kirish taqiqlangan karantin ostidagi materiallar

mavjud ekanligi ma'lum boiib qolsa, o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspektori tomonidan unday mahsulotlar olib qo'yiladi va yule egalari ishtirokida yo'q qilib yuborilishi yoki zararsizlantirilishi lozim.

Ilmiy ahamiyatga ega boigan urugiiklar va ko'chatlar ulaming egalari roziligi bilan introduksion-karantin pitomniklariga topshirilishi mumkin.

Yoiovchilardan karantin ostidagi materiallar (qo'l yuki va bagaj) olib materiallar chegara punktlaridan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarga transportirovka qilinganida yoki yukni qabul qilib oluvchilar turlicha boiganida o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspektori har bir holda alohida belgilangan shakldagi fitosanitar sertifikati (namunasi Nizomning 4-ilovasida keltirilgan) beradi. Sertifikatning birinchi va ikkinchi nusxalari transport hujjatlariga ilova qilinadi.

Karantin fitosanitar sertifikat har bir transport birligi uchun alohida beriladi.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan karantin nazoratidagi materiallar o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspektori tomonidan fitosanitar sertifikati bor-yo'qligi tekshirilgan holda karantin nazoratidan o'tkaziladi va foydalanish (uni qayta ishslash) uchun har bir birlik (partiya) uchun fitosanitar sertifikat beradi.

Zararsizlantirilgan karantin ostidagi materiallarga berilgan karantin sertifikatida zararsizlantirish o'tkazilgan joy, soat, mahsulot qanday usul bilan zararsizlantirilganligi, uning miqdori, ekspozitsiyasi, gramm normasi va zararsizlantirish o'tkazilgan kun ko'rsatilishi lozim.

Karantin nazoratidagi materiallami daryo portlari, aeroportlar, temir yo'i va avtomobil stansiyalari, aloqa korxonalari va boshqa chegara punktlari hududidan, mamlakat ichkarisiga olib kirilishiga faqatgina fitosanitar sertifikati mavjud boisya yoki ilova qilingan hujjatlarda o'simliklar karantini bo'yicha chegara punktining O'zbekistonga olib kirishga ruxsat etadigan belgilangan namunadagi shtampi tushirilgan boisya yoi qo'yiladi.

Basharti, chet mamlakatlardan karantin ostidagi yuklar va materiallar kelgan boiib, ulai'ni karantin shartlariga binoan boshqa rnuassasa, tashkilot yoki mintaqaga jo'natib yuborish lozim boisya, mazkur materiallami boshqa manzilga jo'natish, Inspeksiya ruxsati bilan tegishli

o'simliklar karantini davlat inspeksiyasi ko'rsatmasiga binoan aloqa korxonalarining, aeroportlar, temir yo'llar va avtostansiyalar hamda boshqa transport tashkilotlarining ma'muriyati tomonidan yuklar va materiallarni qabul qilib oiuvchi hisobidan amalga oshiriladi.

#### **7.6. O'zbekiston Respublikasidan karantin nazoratidagi**

##### **materiallarni olib chiqish bo'yicha karantin talabiari**

O'zbekistondan chet mamlakatlarga olib chiqiladigan karantin nazoratidagi materiallar O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida o'simliklar karantini bo'yicha tuzilgan konvensiyalar va halqaro bitimlarda shuningdek savdo shartnomalarida, kontraktlarda va import qilayotgan mamlakatning qo'shimcha talablarida nazarda tutilgan fitosanitar shartlarga javob beradigan boiishi lozim.

Ilmiy tadqiqot muassasalari va qishloq xo'jaligi ekinlarining navlarini sinash davlat komissiyasi tomonidan chet mamlakatlarga yuboriladigan urugiiklar va ko'chatlar ular etishtirilgan joyiarda karantin ekspertizasidan o'tkazilib, ularga fitosanitar sertifikati ilova qilinadi.

Fitosanitar sertifikati importyor mamlakatlar bilan o'simliklar karantini bo'yicha tuzilgan bitimlar va xalqaro konvensiyalarda nazarda tutilgan, shuningdek importyrlaming qo'shimcha ravishdagi fitosanitar talablarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq, karantin nazoratidagi materialda zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar yo'q ekanligini tasdiqlash lozim.

Fitosanitar sertifikatida yukni zararsizlantirish to'g'risida ma'lumotlar, bunday materiallarni etkazib berish bo'yicha boshqa qo'shimcha fitosanitar talablar bajarilganligi to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatiladi, basharti, bu narsa importyor tomonidan yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, o'simliklarni botanik nomi lotincha yoziladi.

Fitosanitar sertifikati yuk olib chiqib ketayotgan har bir transport birligiga (vagon, avtomashina, kema, barja va boshqalar) yoki har bir partiyaga yukni jo'natishga ko'pi bilan o'n besh kun qolganida beriladi va boshqa hujjatlar bilan birgalikda yukni qabul qilib oiuvchi nomiga jo'natiladi. Fitosanitar sertifikati muhr bilan tasdiqlanadi.

Eksport yoki qaj'ta eksport uchun fitosanitar sertifikati olish maqsadida yuk jo'natuvchi importyorning talablariga muvofiq holda yuk partiyasini tayyorlab qo'yish va karantin nazoratidagi materiallarni

jo‘natishdan kamida 30 kun oldin Respublika, viloyat, shahar o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat inspeksiysi yoki uning punktlariga fitosanitar sertifikati berilishi uchun ariza taqdim etishi lozim.

Eksport qilinayotgan yuklar dastlab jo‘natilayotgan joylarda fitosanitar nazoratidan o‘tkaziladi, ikkinchi marta esa, qayta yuklash (eksport partiyasining shakllantirish) vaqtida daiyo portlari, temir yo‘I stansiyalari va boshqa chegara punktlarida o‘tkaziladi. Chegara punktida qayta yuklanmagan holda eksport qilinganida yuk jo‘nati. Igan joydan berilgan fitosanitar sertifikati qay darajada to‘gii rasmiylashtirilganligini tekshirish bilangina kifoyalanish mumkin.

Olis xorij mamlakatlari uchun fitosanitar sertifikati arizaga muvofiq har bir vagon, kema, barja, avtomashina yoki boshqa transport birligi, yohud eksportga jo‘natiayotgan karantin nazoratidagi materiallar partiyasi uchun beriladi. Fitosanitar sertifikati uch nusxada tuzilib, birinchi va ikkinchi nusxalari yuk jo‘natuvchiga beriladi, uchinchi nusxa esa, chegara punkti yoki davlat inspeksiysi da qoldiriladi.

Karantin nazoratidagi materiallar qayta eksport qilinayotganda ularga nisbatan ushbu Nizomda ko‘rsatilgan barcha karantin talablari tadbiq etiladi.

Karantin nazoratidagi materiallami Respublikadan chiqib ketishiga uiar tayyorlangan joydagi tegishli o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat inspeksiysi tomonidan berilgan karantin fitosanitar sertifikati mavjud bo‘lgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Karantin nazoratidagi materiallar va transport vositalarini fitosanitar nazoratidan o‘tkazish tartibini gapirib bering?
2. Karantin fitosanitar sertifikati nima?
3. Import materiallarga karantin ruxsatnomasini olish uchun nimalar qilish kerak?
4. Karantin ostidagi materiallami zararsizlantirish to‘g‘risidagi tushunchangiz?


## **8- BOB. KARANTIN ORGANIZMLARGA QARSHI QO'LLANILADIGAN VOSITALAR BILAN TANISHUV.**

Karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish otryadlari “O‘zboshdavkarantin” inspeksiyasining viloyat va shahar inspeksiyalari tarkibida “0‘simliklar karantini” to‘g‘risidagi qonun asosida tashkillashtirilgan bo‘lib, ulaming zimmasiga karantin ostidagi va boshqa mahsulotlarni zararlantirish vazifasi yuklatilgan.

**Birinchidan:** Zararsizlantirish otryadlari o’simlik kasalliklari va boshqa xavflি zararkunandalar bilan zararlangan import va boshqa karantin ostidagi mahsulotlarni, omborxonalarni, transport vositalarini va yuk ortish maydonlarini zararsizlantiradi.

**Ikkinchidan:** zararsizlantirish vositalarining eng oxirgi turlari va usullarini amaliyotga joriy etish, takomillashtirish, ularni ishlab chiqarishdagи sinov tajribalarini o’tkazadi.

Zararsizlantirish otryadlari tomonidan, portlami, tryumlamli, yuklarni, temir yo‘l vagonlarini, avtomashinalarni, gaz o‘tkazmaydigan materiallardan qilingan plastinkalar, germetik, texnika xafsizligi sharoitlarini ta’minlaydigan vakuumli va vakuumsiz stansionar va harakatlanuvchi qurilmalar qo’llaniladi.



14-rasm. Suyuq Metil-bromid va don saqlanadigan omborlarni fumigatsiyalash(internet ma’ lumoti)

Karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish mahalliy o’simliklar karantin davlat inspektori xulosasi va yuk egasining yozma talabnomasi asosida amalga oshiriladi.

Zararsizlantirish ishlari tugagandan so'ng bajarilgan ishning samaradorligi aniqlanadi.

Eksportga mo'ljallangan mahsulot karantin bo'lмаган zararkunandalar bilan zararlangan hollarda otryad mutaxassislari va yuk egasi mahsulotni ro'yxatdan chiqarish uchun samaradorligini tekshiruvchi shaxslar tomonidan tekshiruvdan o'tkaziladi.

Zararsizlantirish o'tkazilganligi to'g'risida dalolatnomaga tuziladi.

Metil bromid birinchi marta 1884-yil Perkinsoy tomonidan sintez qilingan. 1932-yilda ombor zararkunandalariga qarshi kurashda fumigant sifatida ishlatilgan. 0'sha vaqtdan boshlab, karantinda dizinfeksiya uun keng tarqalgan bo'lib foydalanimoqda chunki o'simliklarning katta qismi meva sabzavotlar va hasharotlarga qarshi samarali ekanligini ko'rsatdi.

Sinonimlari: metil bromid, monobrometil, brometil.

Tovar belgilari masalan, terabol bor (germaniya)-metil bromid, metal qutilarga qadoqlangan (odatda 0,5 kg) va asosan tuproqning fumigatsiyasi uchun ishlatiladi.

Kimyoviy sof metil bromid (SN3Vg) rangsiz xidsiz gaz. Molyukulyar massasi 94,94. Suyuqlanish temperaturasi 3,6-4 s, suyuq holda 1,732 gm OS .1 litr gaz massasi 3,742250S da. Gazsimon metil bromid havodan 3 barobar ko'proq og'irroq bo'ladi.

Metil bromidning bug'lanish bosimi 00S dan 690 mingacha haroratga

I OOSda -1006, 200Sda -130, 250S-1610mm.

Metil bromid suvda yaxshi erimaydi (1002250Sda 1,342), lekin spirt, efir, benzol, benzin, dixloretan, moylarda yaxshi eriydi. Qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlarni dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi. Sifatli tegishli shartlar bilan aniqlanadi. Suyuq xolatda metil bromid rangsiz yoki bir oz sarg'itmirdir. Metil bromid - uning zichligi 1,710-1,735 oralig'ida o'zgarib turadi, bu asosan kam miqdordagi metilxlor borligiga bog'liq. metilxlorid (SN2SL) hisobiga 2,82% dan 1,710 ga kamaytiradi. Uchuvchan bo'lмаган qoldiq miqdori 0,2% dan ortiq bo'lмаган miqdorda asosiy nafardan (metil bromid) 0,1% kislota (vodorod bromid kislotosi) kamiaa 98,5% metil bromidning uchuvchan bo'lмаган qoldig'i asosan qora rangini aniqlaydigan temir bromiddan iborat.

Uchuvchan bo'limgan qoldiq miqdori 0,2% dan ortiq bo'limgan miqdorda asosiy moddadan (metil bromid) 0,1% kislota (vodorod bromid kislotasi) kamida 98,55%.

Texnik metil bromid ba'zan bir necha kun davomida gazga ta'sir qiladigan xonalarda havo va uning bug'lari to'iiq chiqarilgandan keyin saqlanishi mumkin bo'lgan mercontonning (zararli moddalarning parchalashi yoqimsiz xidga ega. Biroq, bu hid gazlangan maxsulotlarga o'tkazilmaydi. Metil bromid moyoridan rtiq qizdirilganda ortiqcha namlik ham mayjud bo'lsa, unga metil bromidning giderati ham hosil bo'lishi mumkin oq kristal).

Metil bromid giderati 100S dan yuqori haroratda gazni asta sekin chiqaradi (gaz va suvg'a aylanadi).

Maxsulotlami suyuq metil bromid bilan buzilishini oldini olish uchun fumigant tonkga gazi bux ichiga kiradigan gaz evaporatori orqali kiritilishi kerak. Metil bromid hasharotlar va o'simliklar uchun har qanday bosqichda zaxardir. Mahsulotlarni gazlashtirish va degazatsiyalashga tayyorlashdan lodin metil bromidning fizikaviyliy va taksik xususiyatlarini bilish zarur. Karbonat angidrid (karbonat kislota uglerod angidrid), S02 - rangsiz hidi gaz, nordontamli, havodan 1,5 marta og' irroq. Malekulyar massasi 44,01, zichligi 1,53, 00S dagi/2gaz miqdori 505 ml, 1 1 00S da 100 k Pa bosimidagi massasi 1,98g.

ZararL Osiyo g'o'za tunlami g'o'za, makkajo'xori, pomidor, baqlajon, sabzi, karam, kartoshka, no'xat<sub>s</sub> beda, bug'doy, atirgul, xrizantema va boshqa o'simliklarni zararlaydi.

Qurtlar g'o'za barglari va ko'saklariga kuchli zarar etkazadi. Hindistonda tamaki hosilini 25-50 % gacha pasaytirgan (1967-1970).


Malayziyada batat o'simligini 75 % gacha zarari agan, bunda 1 ga erdag'i Osiyo g'o'za tunlami qurtlari soni 1,5-28 mingtagacha boigan.

**Morfologik belgilari.** Imagosi qanotlaryni yozganda 35-40 mm. Oldingi qanotlari cho'ziq-to'q kulrang rangda, ochiq rangdagi yoi-yoi va kattaroq buyraksimon dog'lari bor. Old qanoti uchlarida qora nuqtalar bor. Orqa qanotlari oq, yaltiroq.

Tuxumi och sarg'ish rangda, dumaloq, ustki qismi sadafday. Tuxumini 2-3 tadan qilib, bir-biriga tegib turgan holda qo'yadi.

Qurti 6 yoshni o'taydi, yangi chiqqan qurtlar och yashil rangda. Ko'krak va soxta oyoqlari to'q jigarrang, uzunligi 1,3 mm, oxirgi yoshdag'i qurtlar och jigarrang. Qorin segmentlarini 1 va 8-chisi qora dogii boshqa segmentlarga nisbatan uzunroq. Dogiar tartibsiz formada. Boshi to'q jigarrang boiib oq choksimon chiziq oigan. Old koicrak qalqonchasi to'q oq nuqgalari bor. Ko'krak oyoqlari qorin oyoqchalariga nisbatan to'qroq.

G'umbagi yong'oq po'stiga o'xshash rang uzunligi 19 mm gacha. Segmentlarida 6 juft nafas teshikchalari bor.



**21-rasm. 1- Osiyo g'o'za tunlami lichinkasi 2- kapalagi (internet ma'lumoti)**

**Biologik xususiyatlari.** Yozda butun rivojlanishi uchun 33-35 kun oidi, lichinkalar 6 yoshni oiaydi. Bir mavsumda 4 avlod beradi. Urugiangan urg'ochilar 2500 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumlarini 200- 600 tadan qilib barglarga qo'yadi.

Kapalaklar uchib uzoq masofaga migratsiya qiladi. Ko'chatlar, sabzavot mevalari, g'o'za ko'saldari orqali tarqaladi.

#### **Karantin tadbirlari.**

Keltirilayotgan pomidorlami, baqlajon, dukkaklilar, kungaboqr savatchalarini g'o'za ko'saklarini, atirgul, xrizantema va boshqalarni tekshirish. Zararlangan mahsulotlami zararsizlantrish topshirish punktlarida qaytadan tekshirish. Dalalarda ishlab chiqarishda foydalaniladigan uslublardan foydalanib tekshirishlar olib borish.

#### **Nazorat savollari:**

1. G'o'za kuyasini 0'ebekistonda qaysi yo'l bilan kirib kelishi mumkin?
2. G'o'za kuyasi nechta avlod beradi?
3. Osiyo go'za tunlamiga qanday karantin kurash choralar o'tkaziladi?
4. Misr g'o'za tunlami qaysi davlatlarda eng ko'p uchraydi ?

### **12.2. KO'CHATLARDA UCHRAYDIGAN ZARARKUNANDALAR KOMSTOK QURTI VA KALIFORNIYA QALQONDORI BIOEKOLOGIYASINI 0'RGANISH.**


#### **KALIFORNIYA QALQONDORI**

*Diaspidiotus perniciosus* Comst Tur - Kaliforniya  
qalqondori - *Diaspidiotus perniciosus* Corast. Oila - Qalqondorlar -  
*Diaspididae* Turkum - tengqanotlilar - *Nomoptera*

**Tarqalishi.** Kaliforniya qalqondorining vatani shimoliy-Sharqiy Xitoy bo'lib, u erdan Amerika qit'asiga va 1930 yillarda esa Evropa mamlakatlariiga larqalgan. Janubiy Afrikada, Hindistonda, Yangi Zellandiya, Avstraliya, Koreya va Yaponiyada uchraydi. Bugungi kunda bu hasharot bizga qo'shni davlatlardan Turkmaniston, Tojikiston Kavkaz, Ukraina, Moldaviyada uchraydi. Tojikiston Respublikasining janubiy qismida borligi aniqlangan. Bu hasharotning Turkmaniston doirasidagi ikkinchi makonini 0'simliklar karantin inspetsiyasi tugatgan. 0'zbekistonda 1964 yilga qadar meva va manzaraJi daraxtlaming jiddiy zararkunandasi bo'lmish kaliforniya qalqondori mutlaqo uchramas edi.

Biroq, bu qalqondor 1964 yili Toshkentda ilk bor topilgan. Kaliforniya qalqondori Toshkentda aniqlangandan so‘ng unga qarshi keskin kurash ehoralari qoilanildi, o‘simgiliklar karantin xizmati xodimlari bu hasharotlarning boshqa viloyatlarga o‘tib qolmasligiga harakat qilishdi. Biroq qilingan barcha tadbirlar, harakatlar zoya ketib qalqondor 0‘zbekistonning boshqa viloyatlariga ham tarqab ketdi. Hozirda hasharot Farg‘ona vodiysida tarqalmoqda. Kaliforniya qalqondori o‘simgiliklarga zarar etkazish jihatdan olma qurtidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. **Zararii.** Kaliforniya qalqondori - Quadraspidiotus perniciosus Corns, ichki karantin hasharot boiib, bog‘ va oimonzorlarga jiddiy zarar etkazadi.

Mamlakatimizda 1964 yilda aniqlangan boiib, bugungi kunda bir nechta viloyatlarga tarqalgan. Kaliforniya qalqondori hammaxoi hasharot boiib, 200 dan ortiq o‘simgiliklarda zararkunandalik qiladi. Zararkunanda o‘simglik tanasi shirasini so‘rib zarar etkazadi. Ayniqsa yosh novdalami nobud qiladi. Ushbu zarar mevalarda ham. yaqqol koinadi.



**20-rasm. Kaliforniya qalqondori:** 1. Urg‘ochisi qalqoni. 2. Urg‘ochisi. 3. Erkak qalqoni. 4. Bir yoshti lichinkasi. 5. Erkagi. 6. Olma mevasi va novdasidagi qalqondorlar to‘dasi

**Morfologik belgiiari.** Kaliforniya qalqondorining qalqoni yumaloq, anchagina yapaloq, och jigar rang - kul rang tusda boiib, diametri LOTS mm, ba’zan 2 mm gacha boradi (20-rasm).

Qalqonnинг chetlari oitasiga qaraganda och tusdadir. Qalqotming o‘rtा qismida och jigarrang lichinka terisi bor. Erkagining qanoti bir jLift.

Yosh lichinkasi oziqlana boshlaganda oqimtir shira chiqaradi. Yupqa qavat boiib turadigan bu shira keyinchalik qalqonga aylanadi. Birinchi yoshda erkak va urg‘ochi lichinkalarini bir-biridan ajratib bolmaydi. Ikkinci yoshdan boshlab erkak lichinkalarining qalqonlari cho‘ziqroq boiib qoladi. Urg‘ochi lichinkalarining qalqonlari esa yumaloq holida qolaveradi. Urg‘ochi zotining rangi limon kabi sariq, shakli noksimon, uzunligi 1,3 mm, ko‘zi, oyogi va mo‘ylovi yo‘q. Qalqoni yumaloq, oichami 2mm, bo‘rtgan, rangi qoramtilr yoki qo‘ng‘i.r, oitasida 2 ta lichinka po‘stining izi bor.


Biologik xususiyati. Kalifomiya qalqondorining birinchi yoshli va qisman ikkinchi yoshli lichinkalari va voyaga etgan urg‘ochilar qishlaydi, ammo ikki yoshli lichinkalari va voyaga etgan urg‘ochilar qishda xalok boladi. Qalqondorlar daraxt!ami.ng shoxlari va qalqonlari ostida qishlaydi. Fevrai oyning oxirlarida uyqudagagi lichinka ikkinchi yoshga o‘ta boshlaydi. Lekin qish paytida 20-50% lichinkalar olib ketadi. Daraxtlar ko‘kara boshlashi bilan lichinkalar oziqlanishini boshlaydi va 2 marta po‘sht tashiab jinsiy etuk urg‘ochi va erkak zotlarga aylanadi. Erkak va urg‘ochi zotlarning nisbati o‘rtacha birga-bir to‘g‘ri keladi.

Kalifomiya qalqondorining erkaklari qanotli, serharakat boladi, ш-g‘ochilar bir joyga yopishib olib, qimirlamay yotadi. Ular yosh lichinkalik stadiyasida tarqatadi, ular o‘rmalab yuradi yoki shamol, hasharotlar, qushlar vositasi bilan tarqaladi. Lichinkalar keyinchalik biron joyga yopishib olib, harakatlanmaydi.

Ildcinchi avlod uchun urchigan urg‘ochi zot 1 oycha etilgach, tirik tug‘a boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, lichinkalar ona tanasida tug‘ilishdan oldin tuxumdan ochib chiqqan boiadi. Kamdan - kam hollarda lichinka qalqon ostida onasi tuxum qo‘yganidan keyin chiqadi. Bular ham daraxt bo‘ylab tarqab ketib yangi avlodni boshlab beradi. Kalifomiya qalqondorining urg‘ochisi 100-200 tacha (janubdagи ba’zi joylarda 500 tacha) lichinka tug‘adi. O‘zbekiston sharoitida kalifomiya qalqondori inavsumda 4-5 ta avlod beradi. Tojikiston va Ozarbayjon sharoitida 4ta avlod beradi. Hai- qaysi avlod lichinkalari dan bir qismi

qishlashga qoladi. Va nihoyat, oxirgi avlodining birinchi yosh lichinkalari maxsus tayyorgarlik ko‘rib, ona qalqoni ostida qishlab qoladi. Ammo, sharoit mavjud bo‘lsa (issiqxona va boshqa xonadonlardagi o‘simliklar) kaliforniya qalqondori yil mobaynida timmay rivojlanishi mumkin.

Kaliforniya qalqondori asosan ko‘chatlarda joydan-joyga tarqalishi mumkin. Zararlangan mevada savdo yoilari bilan ham tarqalish imkoniyatiga ega. Zarari. Kaliforniya qalqondori meva daraxtlariga, rezavor meva, butalarga va manzarali o‘simliklarga zarar etkazadi. Kaliforniya qalqondori juda ko‘payib ketganda daraxt po‘stlog‘ini yorib yuboradi. SHoxlami va hatto butun daraxtni quritib qo‘yadi. Mevaiardagi shirani soiib, to‘q qizil dog‘ tushiradi. Kaliforniya qalqondori yangi o‘tkazilgan daraxtlarga. ayniqsa katta zarar etkazadi. Kaliforniya qalqondori har narsani eyaveradi. Ular olma va nok daraxtlariga ko‘proq zarar etkazadi, bundan tashqari, u belli, oiik, bodom, yong‘oq, olxoui, tog‘olcha, gilos, olchaga zarar etkazadi, boshqa juda ko‘p mevali daraxtlar, tok manzarali daraxt va butalaming shirasini so‘radi (21-rasm).



21-rasm. Kaliforniya qalqondorining olma mevasiga zarari. (internet ma’lumoti)

**Kurash ehoralari.** Qolqondorlarda qolqoni boigani uchun ularga qarshi kurash bir muncha murakkab. Fizik-mexanik choraldardan: erta ko‘klamda butalgan shox va novdalar yoqiladi, daraxtlar tanasi tozalanib, qurigan eski po‘stloqlari yo‘q qilinadi.

Kaliforniya qalqondorining tuxumdan chiqqan lichinkalari daydicha xolatda yashagan davrda ularga kimyoviv kurash chorasi olib boriladi. Qalqondorlarga qarshi kurash uchun ishlatiladigan kimyoviy choralar: erta ko'klamda (kurtaklar bo'rtguncha) 10 % li moy emulsiyasi yoki (Icamroq natija beradigani) 50 li oxak-oltingugurt qaynatmasi yoki toza urchuq moyi purkaladi, bu dorilarni samolyotdan purkash ham mumkin.

Barg bitlariga qarshi kurashish uchun ishlatiladi gan insektitsidlar yozda kaliforniya qalqondoriga qarshi kurashish uchun ham ishlatiladi.

Daraxtdagi kaliforniya qalqondorilarni shu insektitsidlar bilan batamom yo'q qilish uchun ularni tuxumlardan yosh lichinkaiar chiqib, o'rmalab yuradigan qisqa bir davrdagina ishlatish kerak. Ammo bunday davr odatda atigi 2-3 kun davom etadi.

### **KOMSTOK QURTI**

*Pseudococcus comstocki* Kuw.

**Tur - Komstok qurti - *Pseudococcus comstocki* Kuw.**

**Oik - Unli chervetslar - *Pseudococcidae***

**Turkumi - tengqanotilar - *Soccinea***

**Tarqalishi.** Hozirgi vaqtida komstok qurti Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika va Evropaning ko'pgina mamlakatlarda < tarqalgan. MDHda komstok qurti birinchi marta 1939 yilning avgust oyida 0'rtta Osiyo ipakchilik institutining Toshkent shahri yaqinidagi Jarariq tajriba xo'jaligida Yaponiyadan keltirilgan **yirik** bargli tut ko'chatlarida aniqlandi. O'zbekistonda komstok qurti Toshkent viloyatining butun sug'oriladigan qismida tarqalib, so'ngra Respublikaning boshqa viloyatlariga ham tarqalib ketdi. Farg'ona viloyatida komstok qurti 1947 yilda topildi. Bu erda qurtning tarqalishi Toshkent viloyatidagiga qaraganda tezroq bo'kli.

1953 yilda butun Farg'ona viloyatiga komstok qurti tarqalib bo'lgan edi. Bog'laming, daraxtzorlarning ko'pligi, tutlaming qalin o'tkaziiishi va ariqlar qurtning tez tarqalishiga yordam berdi.


1953-1957 yillarda Andijon viloyatining barcha tumanlarida komstok qurti juda tez tarqaldi. Ushbu zararkunanda 1957 yil Jizzax viloyatining Zomin, Samarqand viloyatining Tshtixon tumani va Samarqand shahrida,

1960 yil esa Buxoro, Navoiy viloyatlari va 1961 yilda Surxondaryo viloyatining Afg'oniston bilan chegaradosh tumanlarida tarqalgan. Xorazm va Urganchda 1962 yilda, Qoraqalpogiston Respublikasi hududlarida 1964 yillarda paydo boidi. Komstok qurti so'nggi yillarda butun O'zbekiston hududlari bo'ylab tarqalib bormoqda. Zararkunanda qishloq xo'jalik mahsulotlari va ko'chatlar orqali boshqa hududlarga keng tarqaladi. Uning O'zbekiston hududiga kirib kelgan vaqtidan beri 75 yil o'tgan boisada shu yillar mobaynida karantin chora-tadbirlari qat'iy olib borilishiga qaramasdan tarqalmoqda. Bugungi kunda MDH davlatlarida komstok qurti barcha mintaqalarga keng tarqalib ketish xavfi mavjud. Komstok qurti tarqalmagan xududlami undan muhofaza qilish uchun ko'chatlarni, o'simlik mahsulotlarini kiritish va chiqarishida barcha karantin qoidalariga amal qilish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini keng koiamli olib borish lozim. Komstok qurtining biologik rivojlanish vaqtini va unga qarshi kurash chora-tadbir usullarini yaxshi bilish, bu vazifani muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi.

Komstok qurtining vatani Yaponiya va Xitoy davlati boiib, entomolog S.Kuvan 1902 yilda bu qurtni ta'riflaydi va unga amerika entomologi Komstok sharafiga Komstok nomini beradi Komstok qurti 300 xil o'simlikni zararlaydi. Ular daraxt tanasi, shoxlari va barglarida katta-katta koloniya boiib joylashadi va daraxt shirasini soiib olib, uning dannonini quritadi va o'sishini zaiflashtiradi. Kuchli zararlangan daraxtlarda shishlar paydo boiib, yosh novdalar quriydi va barglar to'kiladi. SHaftoli, behi, nok, olma, anor, uzum, zarang, chinor, kartoshkada ham oz boisada, uchrab turadi. U pensilvaniya shumtoli, tog'olcha, oiik, oq akatsiya, qavrog'och, gledichiya, tol, amerika zarangida, g'o'za, poliz, sabzavot va dukkakli ekinlarda juda oz uchraydi.

**Zarari.** Komstok qurti - xavfli ichki karantin hasharotdir. Uni deyarli barcha mevali va manzarali daraxt, daraxtsimon o'simliklar hamda ayrim o'tsimon o'simliklarda (hatto tut qatorlariga yaqin joylarda g'o'zada ham) uchratish mumkin. Mevali daraxtlardan anor, olma, nok, shaftoli, shuningdek tutlarni qattiq zararlaydi. Komstok qurti har qanday daraxtda

uchrashi, panada hayot kechirishi, biologik xususiyatlari juda ko‘p urug‘li bo‘lib, tabiatda tez tarqalishi hisobiga unga qarshi kurashish juda qiyindir.



**Morfoiogik belgilari.** Erkak va urg‘ochi zotlari tashqi tuzilishi bo'yicha keskin farqlanadi. Urg‘ochisi yassi shaklli, qanotsiz, kam harakat va usti oq mumsimon dog‘lar bilan qoplanib 5 mm uzunlikda bo‘ladi.

- Tanasining yon tomonida 17 juft mumsimon o‘simaltalarini bor, dum qismi sezilarli darajada cho‘zinchoq bo‘ladi. Mo‘ylovlarini sakldz bo‘g‘inli bo‘ladi.

Komstok qurtining erkagi 1 juft shaffof qanotli, serharakat, rangi qizg‘ish-jigarrang tusda, uzunligi 1-1,5 mm, mo‘ylovlarini 10 bo‘g‘inli. Tuxumining uzunligi 0,3 mm, bir tomonidan toraygan oval shaklda. Rangi sariq-zarg‘aldoq bo‘lib, yupqa oq gard bilan qoplangan.

Komstok qurti - tanasining kattaligi va dum qismining uzunligi bilan bir - biridan farq qiluvchi uchta lichinkalik yoshini o‘taydi.

Birinchi yoshdagisi: qurtlarning uzunligi 0,3-0,6 mm kattalikda, yon tomonida o‘simaltalarini bo‘lmaydi, dum qismida bilinar bilinmas o‘simta bo‘ladi. Tanasi sarg‘ish-qizg‘ish bo‘iib, unsimon qoplamasini bo‘lmaydi, unsimon qoplama oziqlana boshlaganidan soiig asta-sekin paydo bo‘ladi.

Ikkinchı yoshdagisi: qurtlarning uzunligi 0,9-1,2 mm kattalikda, yon tomonida qisqa o'simtlari bor, tanasining to'rtadan bir qismini durn o'simtasi tashkil etgan. Birinchi yoshdagi qurtlar tullaganidan keyin ikkinchi yoshdagilar paydo bo'lib, sezilarli unsimon qoplamga o'rالган bo'ladi.

Mo'ylovlar olti bo'g'inli. Tullab tashlangan po'stlarining ko'p bo'lishi, qurtning ikkinchi yosha kirganligini bildiradi.

Uchinchi yoshdagisi: qurtlarning uzunligi 1,7-2,5 mm kattalikda, erkagi urg'ochisiga o'xshasada, 16 juft yon o'simtlari bo'lib, urg'ochisinkidan qisqaroq bo'madi. Tanasining uchdan bir - ikkidan bir qismini 1,5 mm gacha bo'lgan dum o'simtasi tashkil etgan. SHuning uchun, uchinchi yosha kirgan yirik qurtlarni yosh urg'ochi qurtlar bilan osongina adashtirib yuborish mumkin.

Ularni hamisha mo'ylov bo'g'iniga qarab ajratsa bo'ladi. Uchincli yosh qurtlarning mo'ylovi 7 bo'g'inli, katta urg'ochi qurtniki esa 8 bo'g'inli bo'ladi, Bundan tashqari koloniyada yoki uning yaqinida uzunligi 1,2-1,5 mm keladigan oq tusdagi cho'zinchoq shakldagi urg'ochi qurt pillachalarining paydo bo'lishi uchunchi yosha qurtlar paydo bo'lganligini bildiradi. Komstok qurtining biologiyasi: O'zbekistonda komstok qurti bir yilda uch marta nasi beradi, qisman to'rtinchi marta ham nasi tarqatadi. Lekin sovuq tushishi bilan to'rtinchi nasi qirilib ketadi.

**Biologlk xususiyatiari** Komstok qurti tuxum bosqichida qishlaydi. Bir urg'ochi qurt 250 dan 600 donaga qadar sarg'ish - zarg'aldoq tusdagi tuxumni mumsimon oq qopchiqqa tashlaydi. Bu qopchiqni urg'ochi qurtning mum ajratuvchi bezlari yasab chiqaradi. Uchinchi nasi sentyabr-dekabr oylarida qishlash uchun tuxum tashlaydi. Bu mumsimon qopchiqlar yozdagilariga nisbatan sertuk va zichroq bo'ladi. Bir aviodining rivojlanishi haroratga qarab 42 kundati 65 kimgacha davom etadi. O'zbekiston sharoitida komstok qurti birinchi aviodining rivojlanishi aprel oyining boshidan may oyining oxirigacha davom etadi, ikkinchi avlodni may oyining o'talaridan iyul oyining boshigacha, uchinchi avlodni esa iyul oyining boshidan sentyabr oyining o'talarigacha davom etadi.

Tuxumlari tuproqning 5 sm dan 16 sm chuqurligida va kamdan- kam hollarda 30 dan 40 sm gacha chuqurlikda boiadi. Qishlaydigan tuxumlar sovuqqa juda chidamli boiadi. Harorati -300S hoiadigan mamlakatlar (AQSH ning Pensilvaniya, Ogayo, Indiana shtatlarida) ham komstok qurti tarqalgan. Odatda komstok qurti oktyabr-noyabr oylarida ham daraxtlarda va ularning yaqinida harakatchan bosqichda yoki tuxum shakiida juda ko‘p to‘planadi. Sovuq tushishi bilan qurtlar va urg‘ochilar batamom halok boiadi. Qishga tashlangan tuxumlaming hammasi qirilib ketadi. Faqat qish yaxshi kelib, issiq boiganidagina tabiatdagi komstok qurti tuxumlari 5-15 foiz saqlanib qoladi. SHuning uchun, odatda komstok qurtining birinchi nasli juda oz boiadi. Qishlab chiqqan tuxumdan qurt chiqish davri tutning kurtakianishi va dastlabki barglari paydo boiishi vaqtiga ya’ni taxminan mart oyining oxiri va aprel oyining boshlariga to‘g‘ri keladi. Tuxumdan chiqqan qurtlar dastlabki 2-3 kun mobaynida mumsimon qopchiqda turadi, so‘ngra oimalab, barglarning tagi, tomirlari bo‘ylab yopishib oladi. Harorat va havo namligi komstok qurtining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Urg‘ochi komstok qurtining butun hayoti davomida uch marta tullaydi. Haroratga qarab, birinchi yoshdagi qurtlaming rivojlanishi 12-16 kun davom etadi. Tullahdan so‘ng birinchi kunlar ko‘pchilik qurtlar tashlagan po‘stlari yaqinida oziqlanadi, so‘ngra 5-7 kun daydib yuradi. Bu narsa avgust oyining oxirida, ayniqlas kechalar haroratning pasayishiga sabab boiadi.

Erkak komstok qurtining ikkinchi yoshga qadar rivojlanishi urg‘ochi qurtlarnikiga o‘xshash boiadi. Birinchi yoshdagi erkak va urg‘ochi qurtlar sirt koiinishi jihatidan ham, yurish-turishi jihatidan ham bir-biridan farq qilmaydi. Ikkinci yoshda erkak qurt bezovta boia boshlaydi. Koloniyani tashlab chiqadi va xilvat joy qidirib oimalaydi va bunday joyda mumsimon shaffof, cho‘zinchoq pilla oiab to ochilib chiqquncha shu pillada rivojlanadi.

Erkak qurtning ikkinchi tulashi pillamng ichida sodir boiib, shu erda ular og‘iz organlarini yo‘qtadi. Qurt oldi bosqichi 2-3 kun davom etib, so‘ngra qurtga aylanadi. Erkak qurtlar 2 kundan 6 kungacha

rivojlanadi. Ular katta bolgach, pillani tashlab chiqib, urg‘ochisi bilan qo‘shiladi. Uning ochib chiqishi odatda urg‘ochi qurtlar jinsiy etilgan paytga to‘gii keladi. Tabiatda katta yoshdagi erkak qurtlarni topish juda qiyin. Laboratoriyyada esa ular derazalarda va elektr lampochkalari atrofida juda ko‘p to‘planadi,

Erkak qurtlarning rivojlamb etilishi uchun urg‘ochi qurtlamikiday baravar kun talab etiladi. Tuxum qo‘yish, qurtlarning ochib chiqishi, tullah,

Erkak qurt pillachalarining hosil boiishi tunda boiib oiadi. Erkak qurtlarning ochib chiqishi va juftlashuvi bundan mustasnodir. Bu jarayonlar esa asosan ertalabki soatlarda sodir boladi.

**Kurash clioralari.** Komstok qurtiga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish uchun bir qancha kurash tadbirdari ishlab chiqilgan. Karantin, tadbirdari bajarilgan sharoitdagina qurtning zararli faoliyatini to‘xtatish va uning bundan buyon tarqalishiga yoi qo‘ymaslik mumkin. Bularga quyidagi karantin tadbirdari kiradi: ko‘chatlarni ko‘zdan kechirish hamda komstok qurtiga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullari ishlatalidi.

1. Tashkiliy-xo‘jalik, agrotexnik, biologik va kimyoviy usullar yordamida zararlangan daraxtlardagi komstok qurti zichligini kamaytirish, uning keyinchalik rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri daraxt va mevani himoya qilish tadbirdarini amalga oshirish lozim.

2. Biologik kurash sifatida psevdafikusni laboratoriya va dala sharoitlarida ko‘paytirish mumkin. Buning uchun kuzda mumiyalashgan komstok qurtlarini tabiatda yigishtirib olib, laboratoriya qo‘shuviga olib kelinadi va sovutgichlarda -3 dan +60 gacha boigan sharoitda bahorgacha saqlanadi. Mart-aprel oyalarida esa qaytadan tabiatga, komstok qurti tarqalgan daraxtlarga qo‘yib yuboriladi.

3. Kimyoviy kurash sifatida komstok qurti tarqalgan daraxt va o‘simliklarga quyidagi insektitsidlar bilan ishlov beriladi: siperfos - 0,1%, dursban - 0,1%, karate, talstar - 0,05%, benzofosfat - 0,3%, mospilan -

0,02%, konfidor - 0,03%, sipermetrin - 0,03%.

4. Komstok qurti ichki karantin ob'ekti hisoblanadi, bu sohada nazarda tutilgan amaliy tadbirlarga qat'iy rioya qilish zarur.

**Karantin kurash tadbirlari:** Komstok qurti o'choqlarini topish, tarqalish chegarasini belgilash hamda qarshi kurash miqyosini aniqlash uchun mutaxassislar har yili tut, anor ko'chatlari hamda boshqa daraxt va dala ekinlari, begona o'tlami ko'zdan kechiradilar.

Komstok qurti tarqalmagan hududda uning tarqalishi ehtimoli kutilgan joylarda (shaharlar, tuman markazlari,, aholi yashaydigan punktlar, pitomniklar, ilmiy-tadqiqot muassasalar, tomorqalar, vokzal, aeroport, avtostansiya, bozor hududlari, komstok qurti tarqalgan hududdan keltirib o'tkazilgan ko'chatlar va qo'riqxonalarning tevaragi) tut, anor ko'chatlari batamom ko'zdan kechirib tekshiriladi. Daraxtda komstok qurti topilgan bo'lsa, shu o'choqdan 5-10 km kenglikdagi barcha daraxtlar tekshirib chiqiladi.

Karantinga olingan hududda xo'jalik, tashkilot, korxona rahbarlari shu zararkunandaga qarshi kurashish tadbirlarining o'z vaqtida va to'la bajarilishiga mas'uliyatli bo'lib, quyidagi karantin qoidalariga amal qilishlari darkor.

- a) payvand qilinadigan tut va boshqa dov-daraxtlar faqat komstok qurti bilan zararlanmagan uchastkalardangina olib tayyorlanishi kerak;
- b) komstok qurti bilan zararlanmagan tumanlarga tut bargi olib borilishiga yo'l qo'yilmaydi
- v) zararlangan zonadan boshqa xo'jaiiklar, tuman, shahar, viloyat va Respublikalarga ko'chat hamda o'simliklardan' olinadigan boshqa mahsulotiar o'simlik karantini bo'yicha davlat xizmati organlari beradigan karantin sertifikatlariga asoslangan, karantin qoidalariga rioya qilgan holda yuboriladi;
- g) komstok qurti karantin ostiga olingan hududlarda yangi Ico'chatzorlar, tutzorlar, bog'lar, tokzorlar, anorzorlar faqat o'simlik karantini bo'yicha davlat xizmatining ruxsati bilangina baipo qilinmog'i shart.

### **12.3. AMERIKA OQ KAPALAGI VA TOK FILLOKSERASINI BIOEKOLOGIYASINI ANIQLASH AMERIKA OQ KAPALAGI**

*Hyphantria cicnea* Drury

Tur- Amerika oq kapalagi—*Hyphantriacunea*Drury.

Oila - Ayiqllilar-Aretudae

Turkum - tanga qanotiiar - Lepidoptera

**Tarqalishi.** Vatani Shimoliy Amerika (AQSH va Kanadaning Janubi)dir. Evropaga Shimoliy Amerikadan 1940 yilda kelib qolgan bois, MDH davlatlariga 1952 yilda kelgan. Hozirgi vaqqda bu hasharot Yugoslaviya, Avstriya, Chexoslavakiya, Ruminiya va Vengriyada ham oiib ancha zarar keltirmoqda. Bundan tashqari Ukrainada, Moldaviyada, Gruziyada ham bor.

MDH davlatlariga 1952- yilda Vengriyadan olib kirilgan. Birinchi marta Kavkaz orti viloyatida uchragan keyinchalik Sharqqa tomon Kaspiy dengizigacha tarqalib ketgan (Adigey, Dogiston, Kabardino-Balkariya, Kalmikiya, Karachevo-Cherkesiya, Ingushetiya, Shimoliy Osetiya, Krasnodar o'lkasi, Stavropol', Astraxan', Volgograd, Rostov viloyatlariga tarqalgan). Amerika oq kapalagi Rossiya Federatsiyasining Evropa qismida o'zining maium tarqalgan hududiga ega. Bu zarakunandani ayniqlsa oiish xavfi bor joylar Markaziy Osiyo va janubiy Qozogiston.

Zarari. Amerika oq kapalagi 250 dan ortiq o'simliklarga zarar etkazadi, ko'pincha bular tut daraxti va mevali o'simliklardir. Amerika oq kapalagini qurtlari har xil meva dekorativ va bargli oimon daraxtlari hamda butalarning bargini, ayniqlsa tut bargini eb qo'yadi, ba'zan turli poliz va dala o'simliklariga ham tushadi. Yosh qurtlar barglarni g'ajib tashlaydi va keyinroq ularni butunlay eb qo'yadi, bunda barg va daraxtlimi toi bilan chirmab oladi.. Amerika oq kapalagi qurtlariga qarshi defoliatsiya qilinishi uning qayta-qayta qoilanishi, ayrim o'simliklaming nobud boiishiga ham olib keladi natijada o'rmon o'simliklarining himoya, amaliy va estetik funksiyasi pasayib ketadi. Qurtlar tut ipak qurtinig raqobatchisi hisoblanadi. Qurtlarning tuklari insonda allergik reaksiyalami uyg'otishi mumkin. Mevali daraxtlarning 20% bargi nobud boiishi natijasida hosil 5-10% ga, 50% bargining nobud boiishi natijasida hosil


50-55% ga kamayadi, 75% bargning nobud boishi natijasida hosil umuraan yo‘q boib ketishi mumkin.

**Morfologik beJgiları.** Amerika oq kapalagi ayiqsimon hashoratlar oilasiga mansub kapalak boib, qanotlari yozilganda 20-35 mm ga etadi, qanotlari oq rangli boib, doglari boladi. Qurtining uzunligi 25-35 mm, yuqori qismida duxoba-jigar rang qora hollari va uzun tuki, yon tomondan sariq yoili va to‘q sariq mo‘ylovi bor. Kapalak qanotining kengligi 9-15 mm ni tashkil qilganida, tanasining uzunligi 20-36 mm dan iborat boladi.

Qanotlari toza oq yoki to‘q jigar rang dogli oqish ranglardan iborat buladi. Kapalakni zlatoguzkadan farqlash lozim, zlatoguzka giimbagining pastki qismi to‘q sariq va och jigar rang rangda boladi u yirikroq boib (qanotlari kengligi 35-55 mm), uning patsimon mo‘ylovi bor.

Amerika oq kapalagi erkagining mo‘ylovi ikki qatorli patsimon bolsa, urg‘ochisining mo‘ylovi ikki qator ipsimon boladi. Bir yoshdagagi qurt och sariq rangda, uzunligi 1-1,5 mm, kattalarining uzunligi 30-40 mm. Katta yoshdagagi qurtlarning tanasi mayin va qalin tuk bilan qoplangan, orqa qismida ikki qator qora va yon tomonlarida uch qator sariq-jigar rang hollari buladi. G‘umbak oitasidagi choklar qo‘pol nuqtasimon chuqirchalar bilan xarakterlanadi.

Qurtlar uzunchoq-tuxumsimon shaklga ega, uzunligi 10-15 mm. Tuxumlari sharsimon boib, tekis asosli, hajmi 0,5-0,6 mm.



13-rasm. 1-Urg‘ochisi vatuxumto‘dasi; 2-Qurti. (internet ma’lumoti)

Bir yilda ikki avlod beradi. Qurtlar qishni po‘stloq ostida oikazadi. 1-avlod kapalaklari may oyida, ikkinchi avlodni iyup va avgust oylarida uchib ciliqadi Bargning quruq qisimiga 200-2000 tagacha tuxum

qo‘yadi. Birinchi avlod qurtlari iyun’ oyining boshlarida paydo bo‘ladi, iyulning o‘rtasida g‘umbakka aylanishadi va kech kuzgacha yashaydi.Urg‘ochi kapalak jinsiy sherik topish va tuxum qo‘yish maqsadida 250m masofaga uchub borish yoki uncha katta bo‘lмаган masofaga havo oqimi bilan ham borib qolishi mumkin. Ushbu hashorat bir yilda o‘rtacha 30-40 km masofagacha tarqaladi.Kapalaklar o‘simliklami ko‘zdan kechirish jarayonida aniqlanadi. Buning uchun har bir novda, barg, shox-shabba e’tibor bilan ko‘zdan kechiriladi va yaxshilab silkitiladi. Bezovtalangan kapalaklar uchib ketishadi va 5-6 metirdan so‘ng yana barglarga qo‘nishadi.

Tunda kapalaklarni nur bilan yoki ul’tra binafsha qopqonlar bilan tutish mumkin. Ularni harorat 15°S dan. oshganda tutish mumkin. Qurtlarni maxsus to‘r bilan qoplangan uyalar orqali topish mumkin. Qurtlarni ozuqali chuqurchalardan yoki ko‘zga tashlanmaydigan turli joylardan ham topish mumkin.

Hayotiy faoliyat va biologik xususiyatlari yaxshi o‘rganilgan. Evropada, shu jumladan, sobiq SSSRda ikki avlodga ega.

Qurtlari qishlaydi, qurtlardan kapalaklammg uchib chiqishi asosan kechki vaqitda soat 5-7 far davomida yuz beradi. Qishlaydigan populyasiyada uchib chiqish tunggi vaqitda ham ro‘y berishi mumkin. Harorat 13°S ga tushib ketganida uchib chiqish to‘xtab qoladi. Uchib chiqish davri 20-30 kun davom etadi, ommaviy uchib chiqish 11-14 kun davom etadi.

Urg‘ochi kapalalnинг hayoti bahorda **2-11** sutka, yozda o‘rtacha 6 sutka davom etadi. Erkak kapalaklar 1 sutkadan 4 sutkagacha yashashi mumkin.

Kapalaklar oziqlanmaydi. YAngi sherik topish va tuxum qo‘yish maqsadida o‘rtacha 250 m ga uchib boradi. Urg‘ochi kapalaklar g‘umbakdan chiqqan kunidan boshlab ertasi yoki keyingi kunda bir biri bilan qo‘shiladi. Qishlagan avlodning uchib chiqishi may oyida, yozgi avlodning uchib chiqishi iyul oyining oxiri, avgustning boshlarida kuzatiladi.

Urg‘ochi kapalaklar qo‘shilishdan 1-2 soat vaqit o‘tgandan keyin bargning pastki tomoniga tuxum qo‘yishni boshlaydi. Kapalak urg‘ochilar

tun yarmida tuxum qo'yishga kirishadilar. Urg'ochi kapalaklar o'rtacha 450, umuman olganda, 200 tadan 2000 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxum rivojlanishi uchun havo harorati 23-24°S va havoning nisbiy namligi 75% qulay hisoblanadi. Namlik 20-50% ga tushib ketsa embrionlar va tugilgan qurtlar halok boiadi.

Harorat 12°S dan tushib ketsa tuxumdan qurtlarning chiqishi to'xtaydi. Qurt tuxumdan chiqqandan 1-2 soatdan so'ng oziqlanishni boshlaydi va uya qurishga xarakat qiladi.

1-2 yoshda uya toi bilan oialgan bir nechta barglardan iborat boiadi. Qurtlar 5 yoshdan oshganda uya 1-1,5 m ga etishi mumkin. Bu yoshda qurtlar uyani tark etadi va bugun daraxt bo'ylab joylashib oladi, yoshining miqdori yashash sharoitida bogiq boiadi va 6-8-11 yoshgacha etadi. 19°S haroratda qurt bosqichi 38 kun davom etsa, 23 °S haroratda qurt hosqichi 28 kun davom etadi. Qurt bospana topish maqsadida faol harakat qilishadi. Qurtlar daraxtlar kovagida, quriq barglarda, erdag'i organik axlatlarda, binolar yoriqlarida, devorlar ichida tuklar bilan qoplangan kul rang pillada qishni o'tkazadi.

Qurtlarning asosiy qismi 3-5 sm chuqirlikda joylashadi, alohida turlari 15 sm chuqirlikkacha kirib borishi mumkin. Ayrim qurtlar yozda barglarga oialib oladilar. Qurtlarning bir qismi 10-15% diapauzaga tushib qolishadi, ya'ni ulardan bin yil oigandan so'ng kapalak uchib chiqadi. Qurtlarning juda ko'p qismi kuzgi qishki davorda tashqi ta'sirlar natijasida parazitlar, kasalliklar, yirtqichlar tufayli halok boiadi.

Amerika oq kapalak O'zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan. Rossiya Federatsiiyasi hududida cheklangan tarzda tarqalgan karantin hashoratlari ro'yxatga kiritilgan.

Uni aniqlash uchun zararkunanda tarqalgan mamlakatlardan olib kirilayotgan mahsulotlar, yuklar va tiransport vositalari sinchiklab tekshiriladi. Amerika oq kapalagi topilgpndp yuklar va transport vositalari sinchiklab tekshiriladi. Amerika oq kapalagi topilganda yuklar va transport vositalari zararsizlantiriladi. Amerika oq kapalagi tarqalgan mamlakatlardan inevalarni olib kirish va realizatsiya qilishda karantin qoidalariiga amal qilinadi.

Zararlangan xo‘jaliklar va aholi punktiaridan meva va ko‘chatlami olib chiqishda Amerika oq kapalagi o‘rg‘ochini aniqiash, lokalizatsiya va likvidatsiya qilish yoiqnomalariga amal qilinadi.

0‘choqlarini yo‘q qilish va Amerika oq kapalagi sonini kamaytirish uchun agrotexnik va qiravchi tadbirlar oikazadi.

**Birinchidan:** zararkunandaning uyasi yuqotiladi, qurtlar tutiladi, hududdagi chiqindilar yoqib tashlanadi, daraxtlaming pustlog‘i tozalab tashlanadi va ohak bilan oqlanadi.

**Ikkinchidan:** o‘simliklarga kimyovi va bakterial pestitsidlar bilan ishlov beriladi.

Amerika oq kapalagining miqdori entomofoglar tomonidan kamaytirilib turiladi. Rossiya Federatsiyasi hududlarida Amerika oq kapalagi entomofoglari keng qullaniladi, ular tabiatdagi Amerika oq kapalagi sonini muntazam tartibga keltiradi.

#### Nazorat savollari:

1. YApon qo‘ng‘izi yiliga necha marta avlod beradi?
2. Amerika oq kapalagi ko‘proq qaysi mevalarga zarar etkazadi?
3. Amerika oq kapalagi bir yilda necha marta avlod beradi?
4. Kartoshka kuyasi qanday zarar etkazadi va bir yilda nechta avlod beradi?

#### UZUM FILOKSERASI

(*Viteus vitifolii* Fitch)

**Tur;** Uzum filokserasi (*Viteus vitifolii* Fitch)

**Oila;** Filoksera (*PhUoceridae*)

**Turkum;** Teng qanotlilar (*Homoptera*)


**Zarari.** Filoksera monofag bo‘lib, faqat uzumning novda, barg va ildizi bilan oziqlanadi. Uzumda kuchli tarqalganda, asosan, bargdan tashqari, qalamchasi, burtlari, shingil bandlarida va hatto bitta bargda 200- 250 tagacha bo‘lishi mumkin. Barglar buralib qoladi, yuqori qismida assimilyasiya jarayoni kamayadi. Ildizlarga tarqalgan lichinkalar ta’sirida uning zararlanishi ortib boradi. Bu polimorfizm tipiga mansub. Bunda har xil tuzilishga ega boiib, 5 ta formasi shakllangan - ildiz va bargsimon, nimfa, qanotli va ikki jinsli avloddan iborat.

**Morfologik belgilari.** Imago, urg‘ochi ildiz form as i n/unllri I I ’ mm. eni 0,5 mm. Ular sarg‘ish-ko‘k, yassi va bir nechta qo‘filinm lui tanadan iborat, 6 qator to‘q soqlchlalar joylashgan. Mo‘ylovi uch bo‘g‘imli va uzun xartumli, qanoti yo‘q. Qalqonli zotlari zarg‘a!doq tusda, Ico‘kragi qora. Barg filokserasi dumaloq (formaga) shaklga ega 23-rasm.

Udizning tanasi cho‘ziq, hasharot orqa tomonida va yonboshida 6 ta qator qora bo‘rtmalari aniq ko‘rinib turadi. Ko‘zi uchta fasetkadan iborat (uchta to‘q-qizil nuqta bor), qanotlilarda va nimfada ko‘zi murakkab fasetkali. Ildiz formalni lichinkaning 1-yoshi uzun tanaga ega bo‘lib, olchami 0,3-0,4 mm. Ildiz filoksera qo‘ygan tuxum yassi, dastlab tillasimon-sariq, keyinchalik ko‘k rangga aylanadi, uzunligi 0,3 mm.

Qanotli filoksera ikki xil o‘lchamda tuxum qo‘yadi; yirik (0,4 mm), ulardan urg‘ochilar chiqadi va mayda (0,25 mm) ulardan jinsiy avlod erkaklar chiqadi. Urg‘ochi avlodni sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadi, faqat bittadan qishlovchi tuxum qo‘yadi.

Filoksera tuxumi dastlab tillasimon-sariq, sekin-asta ko‘kish rangga o‘ta boshlaydi, ularning shakli ovalsimon, uzunligi 0,3 mm ni tashkil etadi.



20-rasm. Bai‘g va ildizga zarar etkazadigan filoksera (internet ma’ lumoti)

**Biologik xususiyatlari.** Filoksera uzumni Evropa va Amerika navlarida quyidagicha rivojlanadi. Lichinkaning 1-yoshlari tuproqdagi ildizlarda qishlaydi, qishlab chiqayotgan tuproqtabahorda harorat 13° S ga qiziganda, lichinka etuk urg‘ochi ildiz formasiga aylanadi. Oxirida partogenetik tipda

ko‘payadi va 40-120 taga etkazib tuxum qo‘yadi. Embriionning rivojlanishi harorat va tuproq namligiga bogiqholda 2-12 kungacha davom etadi. Tuxumdan chiqqan 1-yosh lichinka juda ham harakatchan boiib, daydi deb nomlanadi. Ular tuproqda,ildiz va tuproq yoriqlari bo‘ylab xuddi tuproq ostida yurgan kabi harakatlanadi. So‘ng lichinka. ildizni so‘ra boshlaydi. Hayoti davomida jami 4 marta tulaydi va har bir tulash davri 3-

5 kunni tashkil etadi, o‘z navbatida qanotsiz partogenetik urg‘ochi zotga avlanadi. Ildiz filokserasi janubiy tumanlarda 7-8 ta, shimolda 4-5 ta avlod berishi mumkin. Kuzda birinchi yosh lichinkalar mumiyolashib, lichinkalami boshqa yoshdagilari va urg‘ochi zot nobud boiadi.

Ildiz filokserasi uchun tuproqdagi qulay namlik 17-23°S etarli hisoblanadi, ammo yoz davrida tuproq usti qatlamidagi lichinkalar tinim davriga ketadi. Bir bo‘g‘inning toiiq rivojlanishi uchun havo harorati, nisbiy havo namligi va asosan oziqaga bogiiq ravishda 18-26 kun kerak. SHuningdek, avlodlar soni ortib borishi yoki kamavishiga filokseralar tuproq chuqurligi ortib borishita’sir koisatadi.

Amerika shingili va gibridlar etishtirilayotgan joylarda, qisman Evropa navlarida uchinchi avlodni boshlanish davrida ildiz filokserasimng III-IV yoshida nimfa namoyon boiadi. Ular o‘z navbatida qanotli zotlarga aylanadi va tuproq ustki qismi shingiliga ikki xil turda tuxum qo‘yadi: yirik 0,4 mm ga yaqin boiib, bular bir xil jinsli urg‘ochi avlodini va kichik 0,25 mm ga yaqin uzunlikda erkak zotlarini beradi. Otalandan so‘ng, qoitiq yoriqlariga yoki shtambalariga bittadan qishlovchi tuxum qo‘vadi. Ulardan barg formali lichinkalar chiqadi. Ammo ular Evropa navlari bilan oziqlana ohnaydi va tez orada nobud boiadi. Amerika turlaridagi uzum noyda va gibrid navlarida qishlovchi tuxumlardan chiqqan lichinkalar bargni yuqori qismini so‘ra boshlaydi.

Lichinka va to‘dalar 4 marta tulaydi va qanotsiz barg formalarini asoschilariga aylanadi, bunda ular (partogenetik) otalanmasdan ko‘payadi va 250-500 tagacha tuxum qo‘yadi. Barg formalari 7-8 ta avlod beradi.

#### **Nazorat savoilar:**

1. Tok fillokserasining morfologik belgilarini ta’riflang?
2. Amerika oq kapalagi qaysi stadiyasida qishlaydi?
3. Tok fillokserasining bioekologiyasi?
4. Tok fillokserasini qanday shakllarini bilasiz?

**12.4, G'ALLANI KARANTIN ZARARLI  
ORGANIZMLARINI BIOEKOLOGIYASINI O'RGANISH.**

**KAPR QO'NG'IZI** *Trogoderma granarium* Tur - Kapr qo'ng'izi — *Trogoderma granarium*.

*Ev.*


**Oila - terixo'rlar - Derraestidae.**

**Turkum -qattiqqanotlilar - Coleoptera**

**Tarqalishlii.** Hindiston, AQSH, O'rta Osiyo, va Janubiy Evropa, Finlyandiyada uchraydi. Don po'stxo'ri Xitoya ham tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Uzbekistonda Qashqadaryo viloyati Qarshi pivzavodida, Toshkent viloyati Olmaliq pivzavodida va Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus pivzavodida tarqalgan.

**Zarari.** Don po'stxo'ri makkajo'xori, bug'doy, arpa va boshqa g'alla gullilarning doni, shuningdek har xil dukkakli ekinlaming urug'ini eb qo'yadi.

**Morfologik belgilar.** Qo'ng'izning tanasi cho'ziq oval shaklda to'q qo'ng'ir tusli bo'lib, qanot ustliklarida ochroq dog'i bor, mo'ylovleri och jigar rang yoki sariq tusda 10 bo'g'imli bulavasi bor. Erkaginining uzunligi 2 mm, urg'ochisiniki 2,8 mm gacha keladi.



27-rasm. Kapr qo'ng'izi (internet ma'lumoti)

Lichinkasining uzunligi 4 mm gacha bo'lib, uchi tornon toraya boradi. Uzun qo'ng'ir tuklari bor, so'nggi qorin segmentining orqa chekkasidagi tuklari eng uzun bo'ladi.

G'umbagi ham yaxshi sezilarli siyrak tuklar bilan qoplangan. Biologik **xususiyatlari**. Hasharot o'zi tushgan don va dukkali don bilan birga boshqa joylarga tarqaladi. Don po'stxo'ri lichinkalik stadiyasida qishlaydi. Qo'ng'izlar tuxumini don yuzasiga g'allalarda esa don egatchasiga qo'yadi. Voyaga etgan qo'ng'izlar oziqlanmaydi va donga zarar etkazmaydi.

Ular 10 kun yashaydi. Urg'ochilari o'rta hisob bilan 65 ta tuxum qo'yadi, har birini alohida-alohida joylaydi. Ko'p deganda 126 ta tuxum qo'yadi. Etarli yuqori haroratda tuxumlar 6-7 kun rivojlanadi. Lichinkalarning butun rivojlanishi uch kunda tiganlanadi, ular shu erda g'umbakka aylanadi. Lichinkalarning rivojlanishi bir yarim oygacha davom etadi. Qo'ng'izlar donni tashlab ketib, tez orada juftlashadi va tuxum qo'yishiga kirishiladi. Hasharot bir yilda to'rtta nasi berdi.

**KENG XARTUMLIOMBOR UZUNBURUNI *Caulophillus Say*.**

**Tur- Keng xartumli ombor uzunburuni - *Caulophillus Say*.**

**Qilasi - uzunburunlar - Surculionidae.**

**Turkum-qattiqqanoltilar- Coleoptera**

**Tarqalishi.** Belgiya, Germaniya, Finlyandiya, Marokash, Meksika, AQSH, Kuba, Puerto-Riko, Yamayka davlatlarida tarqalgan. MDH da ro'yxatga olinmagan.

**Zarari.** Bug'doy, arpa donlari, no'xat, makkajo'xori, va boshqa ko'plab ombor mahsulotlarini zararlaydi. Urug' larni urug'kurtagini eydi va ular ekish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi.

**Morfologik belgilari.** Imagosining tanasi uzun, deyarli silindrsimon, smolali qora rangda. Bosh tutqichi qisqa va enli. Mo'ylovchalari 9 bo<sup>4</sup>g<sup>4</sup>imli, tirsakli (bo<sup>4</sup>g<sup>4</sup>im-bo<sup>4</sup>g<sup>4</sup>imli).

Old beli tomoni uzunligi eni bilan teng. Qanot usti tepaga tomon yumaloqlashgan, old beliga nisbatan 2 marta uzun. Ko'kragida hamma oyoqlari yo'g'onlashgan. Qo'ng'izning tana uzunligi 3 mm gacha bo'ladidi.

Lichinkasi oq va sarg'ish rangda, tanasi oioqsimon egilgan. Kamyob tukchalar bilan qoplangan, oyoqsiz boiadi. Uzunligi 2,5-3 mm.

G'umbagi 2,8-3 mm uzunlikda, eni 1,3 mm gacha. Boshida oq keyinchaiik sarg'ish rangda boiadi.

**Biologik xususiyatlari.** Haroratga bogiiq holda, 5-7 kundan keyin g'umbakdan imagolar chiqadi. Tuxum qo'yish uchun urg'ochilar urug'ni teshadi va tuxumini shu erga qo'yadi.

Bitta urg'ochisi 200-300 tagacha tuxum qo'yadi. Harorat va namlikka bogiiq holda 4-14 kundan keyin lichinkalar paydo boiadi. G'umbaklanish zararlangan urugiar ichida yuz beradi. AQSH janubida 1 avlodning rivojlanishi 1 oyga etadi. Zararkunanda hamma rivojlanish bosqichlarida urugiar, mevalar, don va zararlangan mahsulotlar orqali tarqaladi. Oxirgi yillarda zararkunanda Meksikadan keltirilgan makkajo'xori doni va bug'doyni tekshirish natijasida topilgan. Ularning hammasi brommetil bilan zararsizlantirilgan. Karantin tadbirlar. Karantin ostidagi materiallami tekshiruvdan oikazish. Tekshiruv lupa va binokulyar yordamida olib kuriladi.

Mahsulotni zararsizlantirish brommetil bilan vakkum sharoitlarda olib boriladi.

#### **Nazorat savottari:**

1. Kapr qo'ng'izining rivojlanish xususiyatlari?
2. Keng xartimxli ombor uzunburunining mortologik belgilari?
3. Don po'stxo'ri qaysi stadiyasida qishlaydi?
4. Karantin ostidagi materiallami tekshiruvdan oikazish usulari?

### **12.5.DON-DUKKAKLI O'SIMLIKLARNI KARANTINI ZARARLI ORGANIZMLARINI BIOEKOLOGIYASINI ORGANISH**

#### **OSIYO DONXO RI**

**Tarqalishi:** Birma, Hindiston, Iraq, Evropa davlatlarida uchraydi.

Zarari: Ochiqda va asosan omboi-xonada saqlanayotgan tayyor mahsulotlarni zararlaydi. Osijo donxo'ri har xil dukkakli ekinlami, marjumak, mosh, loviya, akatsiya, urugini eb zarar keltiradi.

**Morfologik beligilari:** Bosh va old qismi qo‘ng‘ir kashtansimon rangda. Qanotlarining ust qismi och, qizg‘ish jigarrangda, qanotlarining ost qismi, och-qizgish-jigarrangda, chetlari to‘q qorovut. Qorin qismi qora-qo‘ng‘irsimon rangda. Bosh qismida tuklari ko‘p, old elka qismida kamroq sariq tuklari bor. Peshonasida ikki ko‘zining o‘rtasida yaxshi koiinib turadigan dog‘i bor. Mo‘ylovlari 10 boiakdan iborat boiib, birinchi 4 ta a’zosi konussimon, 5-10 a’zolari arrasimon tipda.

Ko‘zлari yaxshi rivojlangan, qora.

Oyogi bir xil och-qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangda, pigidiysi qora, qizgish jigaromg chiziqlari bor. Pigidiv uzunligi 4 mm, eni 1,9 mm gacha boradi.

Tuxumi oikir uchli ovalsimon, eniga 0,4 mm kattalikda. Tuxumlar maxsus suyuqlik yordamida donga yopishtiriladi. Kattaligi 0,7 mm. Lichinkasi oq rangda, cho‘ziq, uzunligi 4 mm gacha boradi. G‘umbagi sut rangida oqish boladi. Uzunligi 2,5 mm ni tashkil etadi.

**Biologik xususiyati:** Donxoi ham dalada, ham omborxonada kuchli zarar keltiradi.

Havoning issiq kunlarida qo‘ng‘izi juda faol boladi va uzoq masofaga uchishi mumkin. Urg‘ochi qo‘ng‘iz oitacha 78 ta tuxum qo‘yadi. Rivojlanishi urug‘ ichida kechadi. Embrional rivojlanishi 12 kungacha boradi. Lichinkasining rivojlanishi 33°S da loviya urugida -

11, 5 kun. moshda-17,5 kunni tashkil qiladi. Lichinkalari omborxonalarda qishlaydi. Hindistonning shimoliy-Sharqiy qismida 9-10 ta avlod beradi. Boshqa xususiyatlari Xitoy va to‘rt nuqtali donxoi qo‘ngizlariga o‘xshash.

## XITOY URUG‘XO‘RI

*Calosobruches chinensis L*

**Tur-** Xitoy urug‘xo‘ri - *Calosobruches chinensis L.*,


**Oila** - doiixo‘r qo‘ngiz!ar - Dermestidae.

**Turkum** - qattiq qanotilar - Coleoptera.

**Tarqalishi.** Xitoy urug‘xo‘ri. Buyuk Britaniya, Gretsiya, Italiya, Fransiya, Afg‘oniston, Birma, Hindiston, Indoneziya, Eron, Xitoy, Turkiya, Laos, Pokiston, Suriya, Yaponiya, Misr, Keniya, Senegal, Sudan, Kuba, Meksika, AQSH, YAmayka, Avstraliya davlatlarida tarqalgan.

MDH da hisobga olinmagan. MDHning Evropa qismida, Kavkazda va G'rtalarda Osiyoga tarqalib, muhitga moslashib zarar etkazishi mumkin.

Zarari. Soya, mosb, loviya, oddiy no'xat, xashaki dukkanlilar, nut va boshqa o'simliklami zararlaydi. Daladagi ekinlami zararlaydi, asosan kuchli zararlanish omborxonalarda kuzatiladi. Mosh dukkagini deyarli to'liq ichini eb faqat po'sti (qobig'i) qoladi.



28-rasm. Xitoy urug'xo' n(*Callosobrachus chinensis* L) (internet, ma'lumoti)

**Morfologik belgilari.** Imagosi qizgish-jigar rang, qisqa ovalsimon, deyarli to'g'ri burchakli, uzunligi 2,5 mm, eni 1,6 mm.

Erkaldarining mo'ylovleri taroqsimon uzun boiadi. Urg'ochilarini mo'ylovleri esa arrasimon qizgish-qoramtilrangda. Ustki qanoti uzaygan to'rtburchakli och-jigar rangda. Pigidiysi (ket qismi) tik, oq mayda tukchaiar bilan qoplangan.

Tuxumi ovalsimon 0,4x0,6 mm yangi qo'yilgan tuxumlar shaffof. Lichinka chiqqandan keyin tuxum qobigining rangi ko'ng'ir boiadi.

Lichinkasi oq, uzunligi 4 mm gacha 1 yoshda uch juft 2 bo'gimli oyog'i boiadi. Po'st tashlagandan keyin lichinkalar yo'g'on buldigan oyoqsiz holda boiadi.

G'umbagining uzunligi 2,5 mm, sargish-oq rangda, erkin tipda.

**Biologik hususiyatlari.** Rivojlanishi to'xtovsiz ravishda boiadi. Qo'ng'izlar hayotining davomiyligi o'rtacha 12 kundan 36 kungacha bo'ladi.

Urg'ochi qo'ng'izlar quruq uruqqa (donga, dukkakka) yoki pishgan dukkaklarga o'rtacha 60 ta tuxum qo'yadi. Tuxumlarini dukkakka yopishtirib, dona-dona qilib qo'yadi. Bir dukkak yoki donga 30-60 tagacha tuxum qo'yishi mumkin.

Bitta donda bir necha lichinka rivojlanib, hamda imago berishi mumkin. Lichinkaiar 3 marta po'st tashlaydi va zararlagan urug<sup>1</sup> ichida g'umbakka aylanadi. G'umbakdan qo'ng'izlar chiqqandan keyin qobig' sinib, tushib ketadi. Hamma bosqichlarini rivojlanishi haroratga bog'liq bo'lib, 45 kundan 196 kungacha cho'zilishi mumkin.

Qishda rivojlanish 3-4 oyga cho'ziladi. Bir yilda Xitoy urug'xo'r qo'ng'izi (donxo'ri) AQSHda 6-8 ta, Tayvanda 10 ta avlod beradi. Xitoy urug'xo'r qo'ng'izi hamma rivojlanish fazalarida urug'lik va dukkaklari orqali tarqaladi.


#### **TO'RT NUQTALI QO'NG'IZ Callosobruchus masculatus F**

**Tur - to'rt nuqtali qo'ng'iz - Callosobruchus masculatus F. Oila - donxo'r qo'ng'iz!ar ■- Bruchidae.**

**Turkum - qattiqqanotilar - Coleoptera**

**Tarqalishi.** Afg'oniston, Hindiston, Indoneziya, Uzoq Sharq, Janubiy, O'rta va Sharqiy Evropada, O'rta va janubiy Afrikada, Mavrikiya orolida, O'zbekistonda omborlarda 1978 yildan beri tarqalib kelyapti. Asosan hozirgi kunda Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tarqalgan.

**Zarari.** Bu qo'ng'iz loviya, mosh, no'xat, burchoq, zig'ir, yasmiq urug'lari ichidagi moddani kemirib eyishi bilan zarar etkazadi. SHikastlangan donlarning, unish darajasi 75% gacha pasayadi va to'rt nuqtali qo'ng'izning chiqindilari bilan ifloslangan donlar ovqat uchun yaramaydi.



**29-rasm. To‘rt nuqtali qo‘ng‘iz: 1- ko‘ng‘izi va uning zarari (internet ma’lumoti)**

**Morfologik belgilari.** Qo‘ng‘izi tanasi kalta, oval shaklda, rangi qizg‘ish qo‘ng‘ir, qanoti ustlari bo‘ylab g‘uj joylashgan kalta tuklardari iborat, qora va och rangli dog‘chalar o‘tadi. Oldingi qanotida 4ta oq tusli belgilari bor. Orqasining old qismining asosiy uchiga nisbatan kengroq. Keyingi boldirlarining ichki tomonida tishchalari bor. Qo‘ng‘izning, tana uzunligi 2,5-3,5 mm keladi. Erkak qo‘ng‘izlarning mo‘yovlari taroqsimon shaklda, 8-10 bo‘g‘imli, urg‘ochilarining mo‘yovlari esa tasbexsimon shaklda. Ana shu J-belgilarga qarab erkak va urg‘ochilarini bilib olish oson. Tuxumi yaltiroq, oqish rangda, cho‘zinchoq oval shaklida 0,7-0,46 mm uzunlikda lichinkasining rangi **oq** yoki oq sarg‘ish 3,5-4,6 mm gacha, kichkina boshli, ko‘krak qismiga tomon egilib turadi. G‘umbagi 3,5 mm oq sariq rangda.

**Biologik hususiyatlari.** Voyaga etgan qo‘ng‘iz holatida omborlardagi, shuningdek dalalarda yanchish vaqtida erga to‘kilgan no‘xatlar ichida qishlaydi. Ko‘klamda qo‘ng‘izlar no‘xat uragMarini kemirib teshib, tashqariga chiqadi. Urg‘ochi qo‘ng‘iz tuxumlarini no‘xatning yosh qo‘zoqlariga, o‘z tanasidan chiqargan va tez qurib qolgan suyuq tomchi ustiga qo‘yadi. Tuxum qo‘yish davri ikki hafta davom etadi.

Urg‘ochi qo‘ng‘iz o‘rta hisobda 60 ta tuxum qo‘yadi. Tuxumlari o‘rta hisobda 8, lichinkalari 17, g‘umbaklari 7 kunda rivojlanib bo‘ladi.

Turli sharoitda bu zarakunandaning to‘la rivojlanishi 18-60 kungacha davom etadi. Loviyaning bitta doni ichida bir necha lichinka etilishi mumkin.

Bu zararkunandalar omborlarda yiliga bir necha bo‘g‘in, iqlim sharoitida bitta bo‘g‘in beradi. Harorat etarli darajada yuqori bo‘lganda qishki uyquga kirmasdan rivojlna oladi. Kurash choralar. Karantin maqsadida loviya donini hamda bu zararkunanda tushadigan dukkanli o‘simglik donlarini chetdan keltirish masalasi loviya qo‘ng‘izining tarqalish doirasiga qarab tartibga solinadi.

Bu qo‘ng‘iz tarqalgan rayonlardan loviya keltirish zarur bo‘lib qolgan taqdirda to‘rt nuqtali qo‘ng‘iz belgilari bo‘lgan donlar dezinfeksiya qilinadi.

Oziq-ovqatga ishlataladigan loviya va dukaklar termik usulda ham yuqumsizlantiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Dukkakdosh ekinlar karantin zararkunanda larini turlarini aytинг?
2. Nuxot donxo‘ri bioekologiyasi va qarshi kurash choralar?
3. Osiyo donxo‘rining tarqalishi?
4. Osiyo donxo‘riga qarshi kurash?


### **12.6. Sabzavot va poliz ekinlarini karantin zararli organizmlarini dnksini aniqlash tadbirlari**

#### **POMIDOR KUYASI**

##### *Tuta absoluta*

**Pomidor kuyasi** *Tuta absoluta* (Meyrick 1917) Povolniy (1994) (*Tuta absolyuta*) (hasharotning inglizcha nomlari tomato pinworm, tomato leafminer va South American tomato moth)

Tangaqanotlilar, yoki Kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumi, 0‘yiq qanotli kuyalar (*Gelechiidae*) oilasiga mansub.



**30-rasm. Pomidor kuyasi (internet ma' lumoti)**

Pomidor o'simliklariga tuxum qo'yishi:

- Barglarga - 73%
- Barg tomirchalari va poyalarga - 21%
- Gulkosabarglarga - 5%
- Mevalarga -1%


Lichinkasi (qurti) endi chiqqanida oqish-sarg'ish tusli, uzunligi 0,5 mm, boshi qora (diagnostik belgi), keyin o'sib, 2-4-yoshlarida nimrang yoki sarg'ish-yashil tus oladi; 4-15 (o'rtacha 8) kun yashaydi va bu vaqtida 4-yosh o'tadi. Etilgan lichinkaning uzunligi 8-9 mm, u ipak o'rabi, tuproqqa tushadi va g'umbaklanadi.

G'umbaklanishi tuproqda yoki o'simlik qoldiqlari orasida, ba'zan zararlangan va o'ralgan barglar ustida ipaksimon pilla ichida 10 kun davomida o'tadi.

Barglarda g'ovak ichida ham g'umbaklanishi mumkin. G'umbagi och- qo'ng'ir tusli, uzunligi 6 mm atrofida.

Imago: urg'ochi zotlari 10-15, erkagi 6-7 kun yashaydi.

Uzunligi 5-7 mm, qanot yozganida 8-10 mm, tusi qo'ng'ir yoki kumushsimon, old qanotlarida xarakterli qora dogiari bor, mo'ylovlari ipsimon (tasbehsimon).



31-rasm. Pomidor kuyasining voyaga etgan kapalagi (internet ma'lumoti)

#### **Pomidor Kuyasining Diagnostik Belgilari:**

Zararkunandaning ipsimon (tasbehsimon) mo'ylovlari, old qanotlarida kumushsimon-kulrang tangacbalari hamda o'ziga xos qora dogiari mavjud boiishi uni aniqliash uchun hisobga olinadigan eng muhim identifikatsion belgilardan hisoblanadi.

Bunday belgilar qatoriga kuya qurtining 1-yoshdan 4-yoshgacha boigan rivojlanishi davridagi belgilari ham kiradi.

Pomidor Kuyasining Rivojlanishi:

Zararkunanda tuxum, g'umbak va imago bosqichlarida qishlashi mumkin.

Qulay ob-havo sharoitida yiliga 8-10, 0'rtaer dengizi mintaqasi mamlakatlarida 10-12 tagacha avlod beradi. Bir avlodning umri 30-35 kimda yakunlanadi. Har xil haroratlarda zararkunanda rivojlanish siklining muddatlari:

Rivojlanishi uchun minimal harorat 9°С.

14°С - 76 kun 20°С

- 24 kun (opt.)

27°С - 24 kun (opt.)

Kapalagi kechalari uchadi, kunduzlari barglar orasida yashirinib o'tiradi.

Pomidor ham issiqxonalarda, ham ochiq dalalarda, butnn o'suv davrida (ko'chatlik davridan vegetatsiya oxirigacha) zararlanadi.

Pomidor o'simliklarining o'suv nuqtasidagi kurtaklari, barglari, poyalari va mevalari hamda poyaning pastki qismida ildiz bo'g'zi ham zararlanadi.

(Pomidor kuyasi bilan kartoshkaning asosan tuproq ustidagi qismlari zararlanadi, ammo yaqin da uning tuganaklari zararlanishi haqida ham xabar qilishdi).

Ruya rivojlanishining zarar etkazadigan bosqichi qurtlik bosqichidir. Bu bosqich 12-15 kunda yakunlanadi.

Qurtlari barglar va poyalar ichida mezofill to'qimalari bilan oziqlanib, to'qima ichida o'ziga xos katta, noto'g'ri shaklli dog'larni - g'ovaklami hosil qiladi, mevalami faqat yosh (yashil) paytida zararlashi mumkin (boshqa manbada. qurtlar etilgan mevalami ham zararlashi xabar qilingan). G'ovaklar ichida kuyaning qurtlari va axlatlari boiadi.



32-rasm. Pomidor kuyasi bilan zararlangan pomidor (internet ma'lumoti)

Ozuqa etarli boisqa qurtlari diapauzaga kirmaydi. Tullahshlar orasida qurtlari barg va meva to'qimalarining tashqarisiga vaqtinchalik chiqib turishlari mumkin.

G'ovaklar orqali o'simlik to'qimalariga har xil mikroorganizmlar, ko'pincha zambumgiar kirib, barglar va mevalar chirishi va

mog'orlashiga olib keladi. Mevalar o'suv davrida yoki saqlash paytida chirib ketadi.

Kuya bilan kuchli zararlangan barglar to'la nobud bo'ladi. Kuya zararlangan pomidor o'sim!iklarining hosildorligini 80-100% ga pasaytirib, hosilni to'la nobud qilishi mumkin.

Zararlanish boshlangan kundan boshlab maydoni 1 ga bo'lgan dalani kuya 2 haftada to'la vayron qilishi mumkin.

Q'zbekistondagi holat:

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra pomidor kuyasi 0'zbekistonda 2015 Goriy) yilda Buxoro, Navoiy va Toshkent viloyatlarda keng, Farg'ona vodiysida kamroq darajada tarqalib ketdi (prof. SH.T. Xodjaev, b.f.n. F. Shamsitdinov).

Kuya boshqa viloyatlariga ham o'tib ketgan bo'lishining ehtimoli juda katta.

Ba'zi joylarda fermerlar ushbu zararkunandaga qarshi pomidor ekinlariga 20 martagacha dori purkashgan.

Eng achinarlisi shuki, dori purkalgan ekinlardan olingen hosil muddatini saqiamasdan, darhol bozorlarda sotilayapti, buni SES xodimlari nazorat qilishmayapti, natijada bunday pomidorlarni iste'mol qilgan insonlar ko'plab zaharlanayotgan bo'lishining ehtimoli juda katta.

#### QOVUN PASHSHASI

*Carpomyapardalina* Bigot

Ter- Ooviiya pashshasi - *Carpomya pardalina* Bigot

Oils- chipor qanotlilar - (*Tephriidae* [*Trypetidae*] ).

Turkum-Ikki qanotlilar - (*Diptera*)


Zarari. Qovun, tarvuz, qovoq va yovvoyi bodringni zararlaydi. Bu tur qovunni mavsum davomida meva tugishidan to pishib etilgunga qadar zararlaydi.

Molfologik belgilari. Pashsha etuk zotining rangi och sariq, uzunligi 5,5-6,5 mm, ko'krak kismi oltinrang mayda tukchalar bilan qoplangan, ko'kragining ustki qismida 2 ta ochroq tasmasimon dog'lari mavjud. Boshqa pashshalardan ko'krak va qorin qismlarida bir nechta mayda

dog'chalari mayjudligi bilan ajralib turadi. Qanolari och sariq, ularning har birida 3 ta to'qroq sariq tasmasimon dogiari boiib, ulardan 2 ta ichki qismidagilari to'g'ri, tashqi qismidagisi «V» harfi shakiida.

Tuxumi oq, yaltiroq, uzunchoq shaklli, uzunligi 1 mm gacha. Lichinkasi oq, oyoqsiz, old qismiga qarab ingichkalashgan, etilganlarining uzunligi 10 mm gacha, tanasining oxirgi segmentida 2 ta kichik o'smalari mavjud. G'umbagi sarg'ish-qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir, uzunligi 7-8 mm, usti qattiq boigan soxta pilla (pupariy) ichida rivojlanadi.

Kandibina (1965, 1977) maiumotlariga koia, etuk pashshaning tanasi uzunchoq silindr shaklli, uzunligi 8-10 mm, oq yoki sargish tusli, terisi qalinlashmagan, boshi oddiy, peshona qismlari biroz rivojlangan, mo'ylovi 2 segmentli, dorsal tuklari T-1 - A-6 segmentlarida, A-8 dum segmentida, 10 ta mikroskopik sezgi tukchalarini mavjud.



33-rasm. Qovun pashshasi ning etuk zoti va lichinkalarining poliz ekinlariga keltiradigan zarari (internet ma'lumoti)

Bioogik hususiyatlari. Pupariy ichidagi g'umbagi tuproqda 10-20 sm chuqurlikda, qishlaydi. Qishlagan g'umbakdan pashshalar ertapishar qovun gullah va meva tuga boshlash davrida (mayning ikkinchi yannida) uchib chiqadi. Pashsha shira bilan oziqlanganidan so'ng otalanadi va qovun yoki boshqa poliz ekinlari yosh mevalarining qobigini tuxum qo'ygichi bilan teshib, uning tagiga bittadan, ammo ko'pincha bitta

mevaga 20 ta va imdan ham ko‘proq tuxum qo‘yadi. Tuxum qo‘yish odatda mevalar diametri 3-5 sm boiganda boshlanadi. Bitta urg‘ochi pasbsha bir mavsumda 98-130 ta tuxum qo‘yadi. Tuxum 2-8 kun davomida embrional rivojlanishdan o‘tgach, ulardan lichinka-lar chiqib, darhol meva ichiga o‘tadi, meva eti bilan oziqlanib, uruqqacha etib boradi va urug‘ni ham eydi. Ular 10-18 kun rivojlangandan so‘ng, meva po‘stini teshib tashqariga chiqadi va tuproqda 5-15 sm chuqurlikka ketib, pupariy ichida g‘umbaklanadi. 10-18 kundan so‘ng g‘umbakdan 2-bo‘g‘in pashshasi chiqadi, urg‘ochi zotlari otalanadi va yana tuxum qo‘yadi. Bir bo‘ginining hayot davri 30 kuncha boiib, bir mavsumda pashsha Afg‘onistonda 3-4, Qoraqalpogistonda 2-3 bo‘g‘in beradi. Qishlashga ketish paytida lichinkalar tuproqda 10-20 sm chuqurlikda g‘umbaklanadi. Lichinkalar qovun ichida harakatlanganda qovun etida zang tusli dog‘lar paydo boladi. Lichinkalar tashqariga chiqishida po‘choqda paydo qilgan teshiklardan kirgan mikroorganizmlar ta’sirida qovun 5-7 kun ichida butunlay chiriydi va o‘ta badbo‘y hid chiqaradi.

#### **12.7. Kartoshka ekinini karantin rganizmlarini dnksini aniqiash**

tadbirlari

**KOLORADO QO‘NG‘IZI**

*Leptinotarsa decemlineata* Say.

Tur - Kolorado Qo‘ng‘izi (*Leptinotarsa decemlineata* Say)

Oila - Barg Kerairuvchilar (Chrysomelidae)

Turkum - Q o \* rag 4 zl a r- (C o! c o p t e ra)

Tarqaiishi. Respublikamizning Xorazm viloyati va Qoraqalpog<sup>1</sup> iston Respublikasidan tashqari barcha viloyatlarida tarqalgan.

Tarqaiishi. Amerika qit’asining AQSH, Kanada, Meksika va Gvatemalada, Evropaning barcha mamlakatlarida, Osiyoda Turkiya davlatida hamda Gita Osiyoda tarqalgan.


Bu zararkunanda birinchi bor AQSH ning Kolorado shtatida 1859 yili aniqlangan. Evropaga kolorado qo‘ngizi bir necha bor kartoshka mahsuloti bilan o‘tgan, ammo birinchi jahon urushining oxirlaridagina Fransiyaning Bordo tumani atrofida mustahkam o‘mashib olishga

muvaffaq bo‘lgan. Bu erdan boshlab har yili 150-400 km ga Evropa mamlakatlari sari siljib,keng yoyilib ketgan.

0‘zbekistonda kolorado qo‘ng‘izi birinchi bor 1974 yili Toshkent viloyatining “Chorvoq” va “Bo‘stonliq” xo‘jaliklarida aniqlangan. Bu erda zararkunanda Belorussiyadan keltirilgan kartoshka urug‘i bilan olib kelingan edi. Faqat 0‘zdavkarantin xodimlarining tuman mutaxassislari bilan hamkorlikda o‘z vaqtida amalga oshirilgan uyg‘unlashgan tadbirlarigina keyingi to‘rt yil ichida bu uyalarni bartaraf etishga imkon berdi. Keyingi yillari (urug‘lik mahsulot bilan) kolorado qo‘ng‘izi 0‘zbekiston sharoitida yana uyalar vujudga keltirishga muvaffaq bo‘ldi. SHunday uyalarga ilk bor Farg‘ona viloyatining Sox tumani xo‘jaliklari, Toshkent viloyati Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlaridagi ayrim xo‘jaliklarni kiritish mumkin.

Zarari. Bu tur zararkunanda kartoshka bargini kemirib zarar etkazadi, ayrim yillari hosilni 50 % gacha nobud qilishi mumkin.

Morfologik belgilari. Oval, bo‘rtgan tanaga ega bo‘lgan qo‘ng‘izning uzunligi 9-12 mm keladi. Old elkasi va ust qanotlari sarg‘ish yoki sarg‘ish- qizil. Old elkasi 12-14 ta qora dog‘lari bor. 0‘rtadagi dog‘lari yirik boiib “V” belgisini eslatadi. Har bir ustki qanotida 5 tadan qora chiziqlari mavjud, yaxshi uchadi. Mo‘yovlari 11 bo‘g‘imli va asosidan uchiga tomon yo‘g‘onlashib boradi.




**35-rasm.** Kolorado qo‘ng‘izi (internet ma’lumoti)

Tuxumining uzunligi 1,2-1,8 mm boiib cho'ziq-oval, yaltiroq, oldin sariq, so'ngra to'q sariq tusda. Iichinkasining uzunligi 15-16 mm, bo'rtgan shakiida, to'q sariq-qizil. Tanasining o'rta qismi old tomonidan keng, orqa qismi uchlilangan. Old elkasida ko'ndalangiga joylashgan qora dogi bor, yonida esa ikki qator segment nuqtalari mavjud. G'umbagi ochiq tipda, uzunligi 10-12 mm, rangi to'q sariqdan qizgishgacha.

Biologik xususiyati. Qo'ngizlar oziqlangan dala sharoitida 20-60 sm chuqutlikda qishlab qoladi. Bahorda er sathi 14-150 S gacha qizishi bilan qo'ng'izlar uchib chiqqa boshlaydi.

Qo'shimcha oziqlangandan so'ng hasharotlar urchiydi va urg'ocbi qo'ngizlar ituzum-guldosh o'simliklaming barg tagiga to'p-to'p qilib 12- 80 tadan tuxum qo'yadi. 0'rtacha bir qo'ng'iz 400-700 ta, ko'pi bilan 2400 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. Tuxumi 5-17 kun rivojlangandan keyin lichinka chiqadi va o'simlik bilan oziqlanib 16-34 kun ichida to'rt marta po'st tashlaydi. Lichinkalari erga tushib 5-15 sm chuqurlikda g'umbakka aylanadi. G'umbak rivojanishi 12-24 kun davom etadi.



36-rasm. Kolorado qo'ng'izining tuxumlari, lichinkasi, g'umbagi (internet ma'lumoti)

Mintaqamizda kolorado qo'ng'izi yiliga 3-4 ta avlod berishi mumkin. Sababi Respublikamizning yozgi issiq jazirama kunlarida bu

hasharot yozgi diapauzaga ketadi. Kolorado qo‘ng‘izi sovuqqa chidamliligi uncha yuqori emas. Tajribalarda 9-110 S da 9 soat mobaynida 50-100% qo‘ng‘iz qirilgan. Shiming uchun ham shimoliy mintaqalarda ayrim yillari qishlov paytida 85% gacha qo‘ng‘iz qirilib ketadi. Kolorado qo‘ng‘izi rivojlanishi xususiyatlaridan bin muhitga moslashishdir, bu diapauza orqali amalga oshiriladi. Bu hasharotda olti xil diapauza aniqlangan. Qishki diapauza kuzning 3-4 oylari mobaynida (avgust-noyabr) organizm zahira moddalarining sekin-asta sarflanishini ta’minlaydi. Sovuq tushishi bilan qishki oligopauza erta bahorgacha davom etadi. Yozning issiq kunlari bir qism qo‘ng‘izlar 11-36 kunga yozgi diapauzaga ketadi. Yozning oitasida qishlab chiqqan qo‘ng‘izlarning deyarli yarrni yozgi uyquga (1-10 kunga) ketadi.

Bir yoki ikki qishni o‘tab, shu bilan birga urchib rivojlangan qo‘ng‘izlar avgust-sentyabrda uchinchi marta qayta diapauzaga ketishi mumkin. Va nihoyat, bir qism qo‘ng‘izlar tuproqda 2-3 yil mobaynida ko‘p yillik diapauzani o‘tashi mumkin (super pauza). Diapauzaga ketgan qo‘ng‘izlar egatlaming hamma erida bir tekis joylashavei TNaydi. Maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, umumiy sonining 77% ariq ichida yumshoq tuproq ostida 5-15 sm chuqurlikda joylashar ekan. Buni kuzda hosil yig‘ilgan paykallarda zararkanandani nazorat qilishda inobatga olish kerak.

Zarari. Kolorado qo‘ng‘izi - oligofag, u faqat ituzumguldoshlar oilasiga mansub o‘simpliklar bilan oziqlanadi. Bular ichida kartoshka eng afzal oziqa hisoblanadi, keyingi o‘rnlarda baqlajon va pomidor turadi. SHU bilan birga tamaki, bangidevona, mingdevona, ituzum kabi o‘simpliklami ham eb rivojlanadi. Lichinka va qo‘ng‘izi bargni eb shikastlaydi. Har tup kartoshka o‘simpligida 20-40 dona lichinka va qo‘ng‘iz mavjudligida barglar 50-100% nobud bo‘lishi mumkin. Bu esa xosilning 2-3 dan 10 baravargacha kamayishiga olib keladi.

Kurash chorralari. Kolorado qo‘ng‘izi O‘zbekiston uchun ichki karantin ob’ektidir, shuning uchun unga qarshi kurash alohida ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda bu zararkunandaga qarshi kurash “Kolorado qo‘ng‘iziga qarshi kurash instruksiyasi” ga asosan olib boriladi. Bu instruksiyada kolorado qo‘ng‘iziga qarshi kurash tizimi ifodalangan.

Jamoa va fermer xo'jaliklarida hamda shaxsiy xo'jalik tomorqalarida kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashni tashkil etish xo'jalik rahbarlariga yuklatilgan.

Himoya qilish tizimi quyidagi tadbirdarni o'tkazishni nazarda tutadi.

•Zararkunanda mavjud tuman va xo'jaliklardan kartoshkani olib ketishdan oldin mahsulotni hasharotdan tozalab barcha karantin chorasini ko'rghan holda shahodatnama bilan ta'minlash. Bunday hosilni qabul qilib olgan rmanzilda esa qo'shimcha karantin nazoratini o'tkazib, lozim topilsa brommetil bilan fumigatsiya o'tkazish.

•Agrotexnik tadbirdardan o'simlikka yuqori darajada ishlov berish, organo-mineral o'g'itlar bilan etarlicha ta'minlab, uning bardoshliligini oshirish, hosil yig'imi oldidan poyani o'rib olish, hosil yig'ib-terib olinganidan so'ng daladagi kartoshka qoldiqlarini qoldirmay terish, erni chuqur shudgorlash.

•Kolorado qo'ng'izining 50 dan ortiq kushandalari mavjud. Ular ichida ayniqsa polifag oltinko'zlar, xon qizi, jujelitsalar, qandalalar, chumoli va o'rgimchaklar alohida o'rin tutadi. Bularning faoliyati natijasida zararkunanda 23-78% nobud bo'lishi mumkin. Istiqbolli entomofaglardan introduksiya qilingan qandalalar - perillyus hamda podizus alohida ahamiyatga ega.

•Kichik maydonlarga ekilgan ituzumguldosh o'simnklarni kolorado qo'ng'izidan himoya qilish uchun uning tuxumini qo'lda terib qirib tashlasa ham bo'Madi.

### KARTOSHKA KUYASI

(*Rhthorimaea orerculella Zell*)

**Kartoshka kuyasi** - (*Rhthorimaea orerculella Zell*) kartoshka, tamaki, baqlajon, pomidor va boshqa ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarga katta zarar etkazuvchi xavfli karantin hasharot hisoblanadi.


Tarqalishi. Kartoshka kuyasining vatani Janubiy va Markazi Amerika hisoblanadi. Uni dastlab Texaslik entomolog olim Seller 1873 yilda aniqlagan. Bugungi kunda dunyoning 70 dan ortiq davlatida keng tarqalganligi kuzatilgan. 0'z vaqtida qarshi kurash choralar o'tkazilmaganda Janubiy Afrikada kartoshka ekinlarining qariyb 80 % iga kuya tushganligi qayd qilingan. AQSHdagi Viskonsin shtatida ertagi

kartoshka ekinlarining 25-40 % iga va kechki kartoshka ekinlarining 60 % iga kuya tushganligi, Avstraliyada esa kartoshka hosilining qariyib 80 % i nobud boiganligi aniqlangan.

Italiya, Ispaniya va Portugaliya davlatlariga 1920 yilda kirib kelgan. Ukraina, Moldaviya, Gruziya Respublikalari va Rossiya Federatsiyasining Krasnodar, Rostov, Primore o'lkasining uzoq Sharq qismi, Astraxan viloyatida tarqalganligi qayd etilgan.

Mamlakatimizda kartoshka kuyasi ilk bor 2009 yilda Xorazm viloyatining Turkmaniston bilan chegaradosh SHovot, Gurlan, Qushko'pir tumanlarida aniqlangan. Hozirda bu xavfli karantin hasharot Respublikamizning barcha kartoshka ekilgan maydolarida rivojlanib tarqaimoqda.

*Morfologiyasi belgilari.* Kartoshka kuyasining **kapalagi** kichkina, och kulrang tusda boiadi. Tinch holatda qanotlarini elkasiga yig'ilib turadi. Oldingi qanotlarining kattaligi 12-15 mm atrofida (10-rasm). Erkagining oldingi qanotlari urg'ochiga nisbatan 2-2,5 mm kichikroq boiadi. Qanotlarida to'q rangh chiziqlari va qora dogiari bor. Erkak kapalak urg'ochisidan asosan qorin qismining oxirida oq yoki kulrang momiqlar borligi bilan farq qiladi. Qornining rangi sargish kulrang, ost qismi esa kulrang oq tusda.




10-rasm. Kartoshka kuyasining kapalagi va tuximi (internet ma'lumoti)

Oldingi va o'rta oyoqlari och-kulrang, tashqi tomoni jigarrang, panjalari jigarrang tusda. Orqa oyoqlari uzun och sarg'ish va panjalari jigarrang momiqlar bilan qoplangan.

**Tuxumi** oval shaklda. Ba'zan bir tomoni botiqroq bo'ladi. Eni 0,35-0,45mm, uzunligi 0,8 mm kattalikda bo'ladi. Yangi qo'yilgan tuxumlari oq rangda, kamalaksimon tovlanib turadi. Qobig'i silliq, bir tomoni to'rsimon. Vaqt o'tishi bilan tuxum to'q rangga kiradi va qurt chiqishidan oldin qobiqdan koiinib turadi.

**Lichinkasi.** Tuxumdan chiqqan lichinka 1,2 mm uzunlikda, rangsiz yoki och qizg'ish tusda bo'ladi, vaqt o'tish bilan to'q jigarrang tusga kiradi, bosh qismi qora rangda. Etuk lichinkalar 10-13 mm uzunlikda, eni 1,5 mm, rangi sarg'imtir qizg'ish yoki yashilsimon kulrang tusda. Bosh qismi to'q jigarrang yoki qora rangda. Ko'krak qismi deyarli qora, sarg'ish, qalqonlari juda kichkina va to'q tusda (12-rasm).

**Pilla va g'umbagi.** Pillasi sarg'ish-kumush rangda, Boshqa kuyalarga nisbatan juda pishiq ishlangan. Lichinkalar avvaliga ipak toi to'qiydi, so'ng ichki qavatini to'qivdi. 24 soat davomida pillani tayyorlab ulguradi. SHundan so'ng pilla ichiga kirib, teshikiами berkitadi va 3-4 kundan keyin g'umbakka aylanadi. G'umbak uzunligi 10 mm, eni 4 mm ni tashkil qiladi. Erkagining g'umbagi, odatda urg'ochining g'umbagiga nisbatan kichikroq boladi.



11-rasm. Kartoshka kuyasining lichinkasi, g'umbagi (internet ma'lumoti)

**Biologik xususivati.** Urg'ochi kuya 6'simliklar bargining pastki tomoniga (asosan tomirlar yaqiniga), ba'zan o'simliklar bo'g'zi atrofidagi tuproqqa, ba'zan pomidor mevasiga bittadan yoki ikkitadan tuxum qo'yadi, kartoshka yuzasidagi chuqurchalarga tuxum qo'yishni yaxshi ko'radi. Urg'ochi kuya umrida 150-200 tacha tuxum qo'yadi, tuxum qo'yishi 6 kundan uch haftagacha davom etadi. Tuhum qo'yib bo'lgan urg'ochi kapalaklar nobud bo'ladi. Quyosh botib, qosh qorayganda va sahardagi g'ira-shirada kapalaklar uchadi va tuxum qo'yadi. Turli sharoitda 5 kundan 30 kungacha o'tgandan keyin tuxumlardan lichinkaiar chiqadi. Lichinka tuxum ichini kemirib o'ziga chiqish uchun teshik ochadi va tuxumdan chiqadi. Bo'shagan tuxum oq rangda bo'ladi.

Tuxumdan chiqqan lichinkaiar birdaniga bargni kemira boshlamaydi, awaliga o'rgimchak to'risimon to'rlar to'qiydi va shuni ichida yurib, birozdan keyin barg, mevalarga yo'l ochadi va ularni kemira boshlaydi. O'rgimchak to'ri ostida yo'llar kengayib borishi bilan, lichinka o'z ekskrementlari bilan to'ldirib boradi. Odatda lichinkaiar bitta yo'l ochib oladi, agar oziqa kam bo'lsa, ikkinchi yo'lni ham ochib olishi mumkin. Kartoshka va pomidorda lichinkaiar bir bargdan ikkinchisiga tez-tez o'tib turadi va barglarni o'rgimchak to'ri bilan bir-biriga bog'laydi. Dala sharoitlarida lichinkaiar bargdan tashqari, poyalarni ham zararlab epidermis qavatidan yo'l ochib tashlaydi. Lichinkaiar to'rtinchchi yoshga etganlarida juda katta zarar keltira boshlaydi.

Lichinkaiar kartoshkaning yashil, mo'rt ustki qismida, tamaki yoki boshqa o'simliklarda rivojlanadi. U tez o'zgaruvchan haroratga moslashuvchan bo'lib, qattiq sovuqda ham mevalar ichida yashovchanligini saqlab qoladi. Lichinkaiar odatda chiqindilar yoki tuproq orasiga kirib g'umbakka aylanadi. Tuproqdagi kesaklar yoki boshqa jismlarga yopishib oladi.

U o'zi zararlagan daraxt ostidagi tuproqda g'umbakka aylangan bo'lsa ham, uni o'sha joyda topish, ko'z bilan iig'ash juda qiyin. G'umbak omborxonalar, qop oraliqlari, kartoshka kurtagi oralari, pol teshiklari va boshqa ko'z ilg'amaydigan joylarda bo'lishi mumkin.

Kuya lichinkasi umri davomida 4 yoshni o'taydi, lichinka 11-26 kungacha rivojlanadi. Kartoshka kuyasi havo harorati +4° S dan yuqori

boiganda yaxshi rivojlanadi. YOz mavsumida Kartoshka kuyasining lichinkalar 11 kun, g'umbagi esa 7 kun rivojlanadi. 27° S lik haroratda zararkunandaning rivojlanishi hammasi boiib 25 kunga cho'ziladi

Bir yilda 5-6 avlod beradi. Qulay sharoitda kartoshka kuyasi yiliga 11-13 tagacha avlod berishi ham mumkun. Yoz mavsumida bir avlodning rivojlanishi 22-30 kun, qish mavsumida esa. 2-4 oygacha davom etadi. Havo haroratining -4° S va +36° S boiishi kartoshka kuyasiga halokatli ta'sir qiladi. Kartoshka kuyasi bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga asosan qurtlik orqali (kartoshka bilan, qisman ituzumsimon o'simliklar qoldiqlarida) o'tadi. Yoz mavsumida kartoshka kuyasi omborxonalarga to'xtovsiz tuxum qo'yadi. Kartoshka kuyasining asosiy o'chog'i - omborxonalar hisoblanadi. Kuya tarqalgan janubiy hududlarda va issiq omborlarda kartoshka kuyasi qishki uyquga kirmaydi. Harorat past bois, kuya rivojlanishning turli bosqichlarda (asosan g'umbaklik va lichinka bosqichiarida) uyquga kirishi mumkin.

Zarari. Kartoshka kuyasi ko'chatlarga ham, o'zini tutib olgan o'simliklarga ham zarar etkazadi, ko'chatlarning ayrim barglarini va ba'zan butun tupini quritib qo'yadi.

Tamaki o'simligiga kuya tushsa, tamaki sanoat uchun yaroqli hosil bermavdi. O'zini tutib olgan o'simliklar bargi tamomila zararlanganda quvvatdan ketib, hosili juda kamayadi.

Kartoshka kuyasi pomidorning ba'zan mevasiga ham zarar etkazib, uni yaroqsiz qilib qo'yadi.

Kartoshka kuyasining kapalagi ekinlarining bargidan tashqari yuzaroqdagi kartoshkasiga ham zarar etkazadi. Dalada kartoshka qazib olingandan keyin, omborga kuya lichinkalari bilan zararlangan tugunaklar olib kirilsa 25-80 foiz saqlanayotgan kartoshka tugunaklari nobud boiishi mumkin (12-rasm).

Qattiq zararlangan barglar qurib, qo'ng'ir tusga kiradi va qovjirab yorilib ketadi. Kuya. ko'paygan dal alar kuygang'a o'xshab qoladi. Kuzda o'simliklaming uchlardagi qo'shni barglar ko'pincha o'rgimchak iplari bilan bir-biriga yopishib qoladi. Zararlangan kartoshka yuzasi qurt kirgandan bir necha kun keyin pushti dog' boiib qoladi. Zararlangan pomidor va kartoshka aksariyati chirib ketadi.



13-rasm. Kartoshka kuyasining zarari(internetma'jumoti)

Kartoshka kuyasiga karshi kimyoviy kurash choraları:

1. Urug' saklanadigan oniborlami fumigatsiya kilish (Entalucbo 20% em.k. 25grl0 iitr suvg'a).
2. Saklanadigan urug'lik kaitoshkani profilaktika uchun 3 tonnasiga, 0.2—0. 25 l Entolicho 20% em.k. +0.1 l Entospilan 20% n.kuk. preparation bilan 150-200 iitr ishchi eritma tayyorlab ishlov berib 2 soat. dimlab so'ng omborga olib kirish lozim.

Kartoshka ekilgan maydonlarda kartoshka kuyasi kapalagi ucha boshlaganda yoki lichinkasi zarari aniqlanishi bilan Entovant 15% em.k. preparatini 0.45-0.5 l/ga me'yorida kechki salqinda 250-300 Iitr ishchi eritma taylorlab ishlov berish kerak. Oradan 10-15 kun o'tkazib ikkinchi ishlovni Entovant 15% em.k. 0.4 l/ga. + Entolicho 20% em.k. 0.2 i/ga ishlov o'tkazlsh kerak

Karantin va himoya chora-tadbirlari:

1. Zararkunanda tarqalgan davlatlardan kelayotgan yuk mashinalari va yuklarni karantin tekshiruvidan o'tkazish.
2. Sanoat yuklari va transport vositalarini zararsizlantirish.

3. O'simlik mahsulotlari ortilgan hududlami 3 km. gacha feromon tutqichlar yordamida tekshirib chiqish.
4. Ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarni doimiv nazorat qilib, tekshirib turish.
5. Kartoshka poyasini qurib qolishiga 5-7 kun qolganda o'rib olish va yo'qotish.
6. Daladan kartoshkani tez yig'ishtirib olish va olib chiqib ketish.
7. Belgilangan tartib qoidalar asosida kartoshka mevasini brom-metil bilan zararsizlantirish.
8. Ituzumdoshlar oilasiga mansub begona o'tlami doimiv yo'qotib borish.
9. Kartoshka kuyasi tarqalgan maydonlarda tavsiva etilgan kimyoviy vositalar bilan ishlov berish.
10. Respublikamizga kartoshka kuyasi tarqalgan davlatlardan kartoshka va boshqa ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi o'simlik mahsulotlarini kiritish «0'zd.avkarantin» inspeksiyasi tomonidan beriladigan sertifikatlar orqali amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Kartoshkaning karantin zararkunandalariga nimalar kiradi?
2. Kartoshka kuyasining rivojlanish bosqichlarini aytib bering?
3. Kolorado qo'ng'izi qaysi bosqichda qishlab qoladi?
4. Qo'ng'izlar oziqlangan dala sharoitida necha sm chuqurlikda qishlab chiqadi?

## **12.8. Mevali daraxtlarni karantin organizmlarini dnk taxlili bilan**

**tanishuv SHARQ MEVAXO'RI**

*Grapholitha molesta Busck* Tur - Sharq Mevaxo'ri (*Grapholitha molesta Busck*)

TarqaJishi. Sharq mevaxo'ri dunyoda keng tarqalgan hasharot. Sharq mevaxoiining vatani Xitoy va Koreya davlatlari hisoblanadi. Sharq nievaxo'ri zararkunanda sifatida birinchi marta 1899 yilda Yaponiyada, 1913 yilda esa Amerikada aniqlangan boiib, 1959 yilda Janubiy Avstraliya, keyinroq Braziliyaga tarqaldi. 1970 yillarga kelib O'rta er dengizi atroflariga ham tarqalib ulgurdi.

Evropaning Avstriya, Bolgariva, Vengriya, Gretsya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Polsha, Ruminiya, Sloveniya, Fransiya, Shveysariya, Chexiya, Yugoslaviya davlatlarida keng tarqalgan.

1980 yilga kelib 0'zbekiston hududida ham Sharq mevaxo'ri tarqalganligi ma'lum boidi. Bugungi kunda Sharq mevaxoii 0'zbekistonning Andijon, Namangan, Samarqand, Farg'onasi viloyatlari va Toshkent shahrida tarqalgan.

Zarari. SHaftoli ko'chatlarini zararlash davomida, ko'chat tanasi ichida 12-15 sm uzimlikda yul ochadi, natijada ko'chat uchki tomonidan soiib qoladi, barglari tushib ketadi, o'simlik o'sishi sekinlashadi va bukilib qoladi.

Olma va nokning yosh ko'chatlarida lichinka 1-2 sm gacha kirib boradi, zararlangan qismlar qorayadi va quriydi. Zararlangan ko'chat qismlarini chiqarishda va elimli tomchilami uchratish mumkin. Bitta lichinka 4-5 ta ko'chatni zararlashi mumkin.

Mevalarda esa meva bandlari atrofi va bandlar orqali keyingi mevalarga ham o'tib zarar keltiradi.

Danakli mevalami yigib olgandan so'ng, lichinkalar umgii mevalilarga o'tadi va yana ko'chatlami zararlay boshlaydi.

**Morfologik belgilari.** Kapalagi: Urnumiy rangi kulrang-qo'ng'ir. Oldingi qanotining old qismida etti juft "Qo'shtimoqsimon" oq dogTari bor. SHimdan to'rttasi qanot qirrasida aniq ko'riniq turadi (37-rasm).



**37-rasm.** Sharq meva qurti va olmadagi zarari (internet ma'lumoti)

Qanotining tashqi burchaklarida etti dona qora dog'i bor. Orqa qanotlari keng kulrang-qo'ng'ir va bronzasimon - baxmalsimon qoplamga ega.

Mo'ylovi ipsimon bo'lib old qanoti uzunligining yarmini tashkil qiladi, ingichka va bilinar - bilinmas oq tuklari bor.

Lab qismi och-qo'ng'ir, qorin qismi, tuk-sarg'ish qo'ng'ir, Qorin qismining pasti esa ipaksimon oq rangda oyoqlari qoramtilrangda, sarg'ish oq kalta tuklar bilan qoplangan. Qanotlarini yozganda 12-14 mm kattalikda. Urg'ochi kapalak erkagiga nisbatan kattaroq boiadi.

Tuxumi: Ovalsimon, cho'zinchoq, yarim tiniq oq yaltiroqsimon, etilishi davomida qizgish tusga kiradi, xiralashib qoladi, shundan so'ng 15-48 soat ichida tuxumdan lichinkalar chiqa boshlaydi, lichinkani bosh qismi qora rangda, uzunligi 0,4-0,5 mm, eni 0,15 mm kattalikda bo'ladi.

Lichinkasi: Tuxumdan chiqqan lichinkalar sutsimon oq rangda, bosh qismi qora rangda, ko'krak qismi to'k rangda va anal qismida tuki bo'ladi. Katta yoshdagilichinkalari kizgish-kulrang tusda bo'ladi. Katta yoshdagilichinkaning tanasidagi tuklar qo'ng'ir-kulrang tusda bo'lib, olxo'ri qurtidan farq qiladi, olxoii qurtida tanasidagi tuklar kaltaroq bo'ladi.

Nafas olish yo'llari to'q hoshiyador teri qoplamidan iborat, olxo'ri qurtlari esa nafas yullari qisqa va ko'proq och rangdagi teri qoplamidan iborat. Bosh qismi sariq jigarrang, ko'z atrofida va lunj qismida qora dog'lari bor.

Lichinkanining tanasi to'liq mayda kutikulali tikanak tuklardan iborat elka qismidagi mushaklaming tutashgan qismida ushbu tikanak tuklar bo'lmaydi. Oldingi ko'krak qafasi sarg'ish-qo'ng'ir rangda. Orqa chiqaruv organi segmentlari och sarg'ish qo'ng'ir rangda, qora dog'lar:i bor.

Orqa chiqaruv organi segmentlari anal chiqaruv organi tepasidan

4- 7 tishli taroqqa o'xshash anal taroqlari mavjud. Sharq mevaxo'rini olxo'ri qurtidan farq qiladigan jixatlaridan yana bir farqi 2-ko'krak segmentining bitta umumiy segmentida 9 ta qalqonjoylashgan, olxo'ri qurtida esa alohida joylashgan lichinkanining uzunligi 12mm bo'ladi.


G'umbagi: Qorin qismining elka tomonida ikki qator jigarrang chiziqlari bor. Ko'zlar qora, murakkab tuzilgan. Qorin qismining oxirida 10-18 ta, turli kattalikdagi tikkanlari bor. Yon tomonida orqa va jinsiy chiqaruv teshiklaridan balandiroqda 1-2 ta tuklari mavjud. G'umbak uzunligi 6 mm dan iborat.

Pillasi: Ovaisimon pishiq va atrof muhit rangidan kam farq qiladi. Yozgi pillalarni mevalarda, daraxt tanalarida, ko'chatlarda va boshqa joylarda uchratish mumkin, Pilla uzunligi 12,5 mm bo'ladi.

**Biologik xususiyatlari.** Sharq mevaxo'rining lichinkalari pishiq ipak-pilla ichida daraxtlar tanasida, po'stloqlar orasida tuproqdan 5-50 sm balandlikda qishlaydi ba'zan tuproqdag'i o'simlik qoldiqlari orasida ba'zi chirigan mevalar ichida ham qishlab chiqadi. Bahorda (shaftoli va o'rik gullagan davrda) Sharq mevaxo'rining lichinkasi g'umbaklanadi. Havo xarorati o'rtacha 15 OS bo'lganda kapalaklar ucha boshlaydi. Bir necha kundan keyin urg'ochi zot tuxum qo'yishga kirishadi. Har bir zot bir nechtdan 100 tagacha tuxum qo'yishi mumkin.

7- 12 kundan keyin (bahorda) tuxumdan qurt chiqib, novdaning o'sish nuqtasiga kemirib kiradi va o'zagidan pastga qarab 6-11 sm li yo'lak ochadi. Qattiq qismga kelgach kemirib tashqariga chiqadi va boshqa novdaga (yoki mevaga) kirishga harakat qiladi.

Novdaning zararlangan qismi soiib quriydi, u «chekanka» qilingandek shoxlab ketadi. Sharq mevaxo'rining qurtlari novdalardan tashqari olma qurti singari daraxt mevalarini ham shikastlashi mumkin. Bunda danakli mevalar ichida (9-14 kun) urugiik mevalar ichidan ko'ra (16-24 kun) kamroq vaqt boiadi. Oziqlanishni tugatgach tashqariga chiqib turli panaroq joy topadi va zinch pilla yasab ichida g'umbakka aylanadi. 8- 17 kundan keyin yangi avlod kapalaklari paydo boiadi. Sharq mevaxo'rining bir avlodning rivojlanishi uchun turli iqlim-sharoitda 24 kundan 65 kungacha vaqt talab etiladi. O'zbekiston sharoitida (Farg'ona viloyati) Sharq mevaxoii 3 tadan 5 tagacha avlod berishi mumkin.



38-rasm. Sharq mevaxo'rming zarari (internet maiuraoti)

**Kurash choraları.** Agrotexnik kurash usullari. 1. Daraxtning qurigan shoxlarini kesib tashlash zararlangan novdalami olib tashlash, daraxtning eski po'stlolarini tozalash, daraxt qoldiqlari va tushgan barglarni yoqib yuborish. 2. Daraxt tanasiga tutqich belbogiar bogiash; 3. Daraxtlar qator orasini, tanasi atroflarini ag'darish. 4. Mevalar qadoqlangan bostirmalar atrofi, imoratlar va uning hududlarini tozalash, chiqindilarni yoqib yuborish.

**Kimyoviy kurash usullari.** 1. Sharq mevaxo'ri zararlagan daraxtlar tavsiya etilgan kimyoviy vositalar bilan qayta ishlanadi. 2. Ko'chatlar yoki o'sayotgan ertagi daraxtlar 3-4 marta kimyoviy

ishlanadi. 3. Shaftolining kechki navlari, qo'shimcha ravishda yana 18-20 kun oralig'ida ikki marta ishlanadi. 4. Urugii ekinlar ko'chatlari: behi, olma, nok, kimyoviy vositalar bilan ikki marta dorilanadi. 5. 01xo'ridagi Sharq mevaxoiiga qarshi kimyoviy kurash olxo'ri qurtiga qarshi kurash bilan bir vaqtida amalga oshiriladi.

Mevali boglami Sharq mevaxo'riga qarshi kimyoviy vositalar bilan ishlashdan 2-3 kun oldin aholi ogohlantiriladi va ular asalari uyalarini tomorqadagi sabzavot, poliz va boshqa ekinlarini zaxarli kimyoviy vositalardan himoya qilish choralarini ko'rishlari lozim. Kimyoviy vositalar bilan ishlov berish, hosil yigishtirib olinishiga kamida 30 kun qolganda to'xtatilishi lozim.

Karantin tadbirlar. Sharq mevaxo'ri aniqlangan hududlarda o'simliklar karantini davlat xizmati tomonidan karantin e'lon qilinadi va zararkunandani boshqa hududlarga tarqalmasligi va uni yo'qotish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

### **12.9. Tashqi karantin kasalliklari klassiilkatsiyasi bilan tanishuv**

#### **G'0'ZANING ANTRAKNOZ KASALLIGI**


*(Glomerella gossypii Edgerton)*

**Tarqaiishi.** G'o'za antraknozi kasallikning areali dunyoning yog'ingarchilik 1000 mm va undan ko'proq bo'lgan mintaqallari bilan cheklangan. Vatani-Amerika bo'lishi etimol qilinadi. Evropa - Bolgariya, Rurniniya, YUGoslaviya, Ispaniya va Italiyada uchrashi ham xabar qilingan, ammo keyinchalik isbotini topmagan.

Antraknozning paxta hosiliga kesin salbiy ta'siri g'o'za nihol paytida ko'saklar rivojlanishi va ochilib boshlashi davrida kuzatiladi.Urug'palla, chinbarglar, poya hamda ildiz chiriydi va o'simlik halok bo'ladi.Kasallik ko'saklar butunlay yo'qotilishi, poya zararlanishi, tola miqdori kamayishi va sifati buzilishiga olib keladi. AQSHda 1945 yilda (urug'lik chigitni yoppasiga dorillashni boshlashdan oldin antraknoz har yili juda katta talafot etkazgan. Janubiy Karolina va Florida shtatlarida ko'saklarning 60-90 foizi yo'qotilgan. Chigit samarali fungitsidlar bilan dorilab boshlangandan keyin (1955yildan so'ng) antraknoz AQSFlda kam kuzatiladigan va hosilga zarar keltira olmaydigan kasallikka aylangan.

SHu bilan birga,bir necha boshqa mamlakatlarda antraknoz hozirgacha xavfli kasallik bo‘lib qolmoqda. Antraknoz tufayli har yili Kot-de, Ivuarda tola hosilining 25 foizi, Senegalda 40-60 foizgachasi yo‘qotiladi.Hindistonda va Xitoyda bu kasallik ko‘sak chirishining asosiy sababidir.

**Zarari.** Zamburug<sup>1</sup> g‘o‘zani barcha fazalarida va butun o‘suv davrida zaralaydi; ayniqsa yosh niholiarga va ko‘saklarga katta zarar etkazadi.Patogen o‘simlik to‘qimasiga odatda mexanik jarohatlar va hasharotlar paydo qilgan yaralar orqali kiradi, ammo konidiya chiqargan infeksiya gifa to‘qimaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ham kira oladi. Zamburug<sup>1</sup> to‘qima ichida (endogen shaklda) rivojlanadi, tashqariga faqat konidiya hosil qiluvchi organlari chiqadi. Zararlangan urug<sup>1</sup> ekilishi urug‘palla va yosh nihollar zararlanishiga olib keladi.Ularda paydo bo‘lgan konidiyalar yomgh‘r tomchilaii, hasharotlar va shamol orqali sog‘iom o‘simliklarga tarqaladi va zaralaydi. Yomg‘ir va xavoning yuqori nisbiy namligi o‘simliklar zararlanishi uchun qulay sharoit tug‘diradi. Quruq ob-havoda kasallik rivojlanishi kamayadi yoki to‘xtaydi,so‘ngra ko‘saklar rivojlanishi davrida yana kuchayadi. Nihol, imig‘palla tuproqdan chiqmasdan yoki chiqib zararlanadi, urug‘barglarda qizg‘ish-qo‘ng‘ir yoki to‘q-qo‘zg‘ish dog‘lar paydo boiadi, ulai- poyachani o‘rab oladi va qisib, noziklashtiradi, o‘simlik sarg‘ayadi, yotib qoladi va chiriydi.



39-rasm. G‘o‘zaning antraknoz kasalligi (internet malumoti)

## **TEXAS ILDIZ CHIRISHI.**

(*Phymatotrichum omnivorum* (Shear). Dugg.)

**Tarqalishi.** AQSH ning Texas, Kaliforniya, Nevadv, YUta, shtatlarida MDXning bazi Ozarbayjon, Gmziya, Dogistonda uchraydi.

**Zarari.** Madaniy o'simliklarning 2000 ga yaqin turi, jumladan, g'o'zada ham uchraydi. SHonalash davrida o'simlikning ildiz sistemasi va poyasining tuproqdan 2—3 sm yuqori qismi kasallanadi. O'simlikning so'lishi uchidan boshlanadi va pastdag'i barglarga tez o'tadi, barglar qorayib, mo'rt boiib qoladi, ildizi qizgishsariq dogiar bilan qoplanadi, po'stlog'i yog'ochdan oson ko'chadi, chunki zamburug' o'simlik to'qimasi (kambiy)ga va tomirlariga kiradi. Zamburug' ildiz sirtida konidiya va sklerotsiy hosil qilib rivojlanadi; issiq nam sharoitda qurib qolgan o'simlik tnp'i atrofidagi tuproq yuzasida mayda oq tolasimon g'ubor ko'rinishida konidiyabandlar rivojlanadi. Ularda tezda Texas tabiatini manzarasi. Spora konidiyalar hosil boiadi. Zamburug' zararlangan urugiik va mitseyliy yoki sklerotsiy kurinishda o'simlik ildiziga yopishgan tuproq bilan birga tarqaladi. Sklerotsiyalar tuprokda kamida 12 y. gacha yashovchanligini saklaydi. **Karantin choraları:** chetdan keltirilgan urugiikni fitopatologik tekshirish.

## **MEVALI DARAXTLARNING KUYISHI**

(*Erwinia amylovora* Burrl)

**Tarqalishi.** Amerika, Yaponiya, Italiya, Daniya, Germaniya, Polsha va boshqa davlatlarda ro'yxatga olingan. Respublikamiz uchun karantin ob'ekti xisoblanadi.

**Zarari.** Kasallik olma, nok va boshqa mevali daraxtlarda gul, novda, shox va mevalarda kuzatiladi. Gullar to'satdan soiiydi va qorayadi, barglar buraladi, qorayadi va shoxlarda osilib qoladi, daraxt kuydirilgansimon ko'rinishga kiradi. Zararlangan joyda yosh novda va shoxlarning po'stlog'i moi suyuqlik oqimi kelishi natijasida shishadi, keyinchalik u po'stloq bo'ylab gommoz ekssudat koiinishida oqib chiqadi. Suyuqlik dastlab rangsiz, keyinchalik to'q tusga kiradi va

qaxrabo-sariq yoki to‘q qo‘ng‘ir rangli tomchi koiinishida qotadi.

YOzda kasallik yo‘qolganday boMadi. biroq bahorda sharbat harakati boshlanishi bilan yana yangilanadi va butun o‘simplik bo‘ylab tarqaladi. Kasallik pishmagan yosh mevalarnigina zararlaydi, pishayotgan va etilgan mevalar xatto sun’iy zararlantirilganda xam kasallanmaydi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyasi. Ularning rivojlanishi uchun qulay xarorat  $30^{\circ}\text{S}$  hisoblanadi,  $45\text{--}50^{\circ}\text{S}$  da patogen nobud boMadi. Daraxtlarning zararlanishi  $18^{\circ}\text{S}$  xaroratdan boshlab sodir bo‘ladi.

Kasallikning inkubatsiya davri kasallikka moyil navlarda 3-4 kun, chidamli navlarda 6-10 loin davom etadi. Kuyishning birinchi belgilari paydo bo‘lishigacha minimal xarorat  $14^{\circ}\text{S}$  dan yuqori boiishi talab etiladi.

Xorij olimlarining ma’lumotlariga ko‘ra, *E. amylovora* behi, qarag‘ay, dolana, atirgul, olxo‘ri, qorag‘at, xo‘jag‘at va boshqa ko‘pgina o‘simpliklarni zararlaydi.

Infeksiya manbai zararlangan daraxtlar xisoblanadi. Bakteriyalar yomgir tomchilari, bitlar, asalarilar va qushlar yordamida tarqaladi. Ular bog‘ asboblari bilan xam (ayniqsa payvandlashda) berilishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, azotli o‘g‘itlarni bir tomonlama qo‘ilash kasallikni kuchaytirib yuboradi.

### **MAKKAO‘XORINING BAKTERIAL SO‘LISH KASALLIGI Tarqaiishi.**

Vatani nomalum. Evropa -Gretsiya, Italiya, Polsha, Ruminiya, Shveysariya; Osiyo-

Vietnam, Tailand, Xitoy, Afrika-Janubiy qismi, Amerika-AQSH. O‘zbekistonga kirish xavfi mavjud, bunda kasallik makkajo‘xori ekinlariga katta zarar etkazishi mumkin.

Zarari. Makkajo‘xoriga juda kaita zarar etkazadi. O‘simpliklar o‘rtacha darajada zararlanganida hosilining 20-50 foizi, ekin erta zararlanganda hosil butunlay (100 foiz) nobud boigan. Kasallik ko‘p marta epifitotiya shaklida rivojlangan. Italiyada bakterial soiish tufayli makkajo‘xori hosilining 65 foizgachasi yo‘qotilgan.

Makkajo‘xori barcha o‘sish va rivojlanish bosqichlarida zararlanadi. Kasallik tipi traxeobakterioz u o‘simplikning o‘tkazuvchi sistemasini zararlaydi, kasallik belgilari makkajo‘xorining barcha er ustti organlarida -

barg, poya, so‘ta va urug‘larida namoyon bo‘ladi. Maysa bosqichida o‘simliklar o’sishdan orqada qoladi, barglari so‘ladi, sarg‘ayadi, so‘ngra qo‘ng‘ir tus oladi va quriydi. Kasai o‘simliklaming ichki to‘qimalari qorayadi, ba’zan poyaning pastki qismi chiriydi. Etilgan o‘simliklarda kasallikning birinchi belgisi pastki barglarda uzunasiga joylashgan chiziqsimon, oldin och-yashil, so‘ngra sariq dog‘lar paydo bo‘lishidir.

Keyinchalik dog‘lar o‘rta va yuqori yarusning barcha poya barglariga o‘tadi. Dog‘lar ustida bakteriya ekssudati kichik tomchilar shaklida paydo bo‘ladi. Ro‘vaklar vaqtidan oldin chiqadi va oq tusli bo‘ladi. Ba’zan barglar ekssudat tufayli bir-biriga yopishib qoladi, ro‘vak chiqmaydi va poya qiyshiq bo‘lib qoladi.

Qo‘zg‘atuvchi-harakatsiz, tayoqcha shaklli bakteriya, kattaligi 1- 2x0,5-0,77 mkm, alohida yoki ikkitadan qo‘shilgan, xivchinsiz, gramsalbiy, sporasiz, kapsulasiz, aerob. Go‘sht-pepton agarida koloniyalari dumaloq, kichik atrofi ravon, qizg‘ish, so‘ngra sariq tusli sekin o‘suvchi, bakteriya uchun optimal harorat 30°S, minimum 8-9°S, maksimum 39°S da xolok bo‘ladi.

Bakteriya urug‘da, chirimagan o‘simlik qoldiqlarida hamda qo‘ng‘izlar turkumiga mansub bo‘lgan hasharotlar - er burgachalarining tanasi ichida qishlaydi. Ko‘pincha zararlangan urug‘larda, ular kichik va f burishgan bo‘lishidan tashqari, kasallikning boshqa tashqi belgilari ko‘rinmaydi.

Uzoq masofalarga bakteriya urug‘ bilan tarqaladi.

Xo‘jayin o‘simlik yo‘qligida bakteriyalar saqlanishida er burgachalari katta rol o‘ynaydi. Bu burgachalar tarqalgan mintaqalarda makkajo‘xorining zararlanish darajasi qishlagan burgachalar soniga proparsional bo‘ladi. Burgachalar o‘simlikning birlamchi zararlanishida va keyinchalik vegetatsiya davrida tarqalishida ishtirok etadi. Ular bahorda makkajo‘xorining yosh barglarini kemirgan paytida, o‘simlikka bakteriyani yuqtiradi. Bakteriyasiz burgachalar kasal o‘simlikda oziqlanganida bakteriya bilan zararlanadi va kasallik tarqatuvchisiga aylanadi. Kasallik burgachalar uchramaydigan mintaqalarda ham, misol uchun Italiyada tarqalgan.

### Karantin tadbirlari

- Bakterioz tarqalgan mamlakatlardan O‘zbekistonga ekish uchun moijallangan urug‘ olib kelish man etiladi;
- Seleksiya va ilmiy-tadqiqot maqsadida olib kelingan urug‘ zararlanganligini aniqlash maqsadida uni laboratoriyada ekspertiza qilish va 1 yil davomida introduksiya-karantin ko‘chatzorida ekib tekshirish;
- Urugiikni ekishdan oldin, tarkibida taram mavjud boigan fungitsid bilan dorilash;
- Makkajo‘xorini ayni. dalaga 3-4 yil ekmaslikni ko‘zda tutuvchi almashlab ekish sxemasini qoilash;
- 0‘simlik qoldiqlarini daladan chiqarib, yo‘qotish;
- Chidamli navlar yaratish va qoilash,
- Hasharotlar bilan kurashish tavsiya etiladi.

### KARTOSHKA RAKI

*Synchtrium endobioticum Pers.*

